

G 24
B - 95




ULUSLULAR

~~Men bandan nəticim böyüm qolqadək cheksiz
həzər-həzər təq'iciliyəchi şəhəni kütardım.~~

84 (50) №.

13-95.



UCH MUSOFIR

Hikoyalar

0044

2-nashri

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM YAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI MIRECHQO

DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

AXBOROT RESURS MARKAZI

1. FILIALI

TOSHKENT
O'ZBEKISTON

2015

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM YAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI MIRECHQO
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K: 821.512.133-3
KBK: 84(50)'7
B 95

Tarjimon
Dildorxon ALIYEVA

IVAN BUNIN

Bunin, Ivan
B 95 Uch musofir / I. Bunin. – Toshkent: «O'zbekiston»,
2015. – 288 b.
ISBN 978-9943-28-074-8

To'plamdag'i hikoyalarini jahon adabiy gulshanidan terib olingen
bir dasia gul deb atash mungkin. Rossiya, Mist, Fransiya, Angliya,
Germaniya – ya niyoyat Yaponiya man'lakatlari yozuvchilarining
yurak qo'ri bilan yozgan bu hikoyalari o'z o'quvchisini topishi,
shubhasisz. Ularni birma-bir mutolaa qilar ekansiz, avvalo, hikoya
janri shaklan ixcham bo'lsa-da, mazmunan har qanday romanidan kam
emasligini chuqur his etasiz.

UO'K: 821.512.133-3
KBK: 84(50)'7

ISBN 978-9943-28-074-8

© D. Aliyeva, 2014, 2015
© «O'ZBEKISTON» NMU, 2014, 2015

QALINSAJ SAVAT UZUMARLARI
QALINSAJ DAVOJAR TAPGUCHAR
HUTCHI AYUDAGLAT TAPGUCHAR
ISANJAM SIZGA TOSOG'X

Josques

KORNET ELAGIN ISHI

I

Bu ish dahshatlî bo'ishi bilan birga g'alati va jumboqli, kala-vanîng uchini topib bo'lmaydigandek ko'rindi. Bir tomondan, u judayam oddiydek ko'rinsa, ikkinchi tomondan – juda mu-rakkab edi, bizning shahar tili bilan aytganda, xuddi tuturiq-siz romanlarga o'xshardi, ayni damda esa unda chuoqur ma noli badiy asar yoza bo'ladigan nimadir bor edi... Nima bo'lganda ham himoyachi sudda haq gapni aytdi.

– Bu ishda, – dedi u gap boshlab, – men bilan ayblovchi o'ttasida hech qanday bahsga o'rîn yo'qdek tuyulshi mumkin: axir ayblanuvchi o'z aybini tan oldi, uning jinoyati va izzat-nafsi haqorat qilingan qurbanining shaxsiyatî kabi o'zining shaxsiyatî haqorat qilingan qurbanining ko'pchiligiga erish va ahamiyat-ham bu zalda o'tirganlarning ko'rib turibni? Nazarimda, yo'q nar-sani, ayblovchi bilan hamjihatlikda yoritib bera oladigan na biron ta qarashimiz va na biron ta tafsilot yo'qki; dangal: «Ha, shunday» yoki «Yo'q, bunday emas!» deya olsak – qayoq-da, men churq eta olmayapman. Ammo hammasidan muhimi shundaki, ishning ma'nô-mohiyati «unday bo'imagan»ga olib toshib yotibdi...

U so'zida davom etib, dedi:

– Aytaylik, mening maqsadim – sudlanuvchiga shafqat ko'ssatisligiga erishish. Shunda ko'p gapga hojat qolmasdi. Qonun chiqaruvchi shunga o'xshash hollarda sud nimaga amal qilib ish ko'rishi kerakligini ko'rsatmagan, u bunday paytlarda ko'proq aql-farosatga, vijdonga va ziyraklikka keng imkoniyat bergen

va biz shundan foydalanib, jinoyatchiga jazo berish uchun qonunning u yoki bu bandimi tanlashimiz kerak bo'ldi. Men o'sha aql-farosat, vijdon, ziyraklikni ishga solib, shu orqali ularga ta'sir o'tkazib, sudlanuvchining aybini yengil-lashtiruvchi bor yaxshi sifatlarini yuzaga chiqarishga va shu

bilan sudning unga munosabatini o'zgartirishga astoydi harakat qillardim, axir u bir gapda mahkam turib olgan: men buni ataylab qilganim yo'q, deyapti. Sudlanuvchini oz emas, ko p emas, naq kodamxo'r bo'ri ga chiqarilgan bunday vaziyatda ayblovchi bilan bahslashishdan o'zimni qanday qilib shunadi, uni har kim yo unday, yo bunday tarzda yoritishi, o'ziga xos u yoki bu tarzda taqdim etishi mumkin. Mana bu ishda hozir biz nimani ko'rib turibmiz? Nazarimda, yo'q narsani, ayblovchi bilan hamjihatlikda yoritib bera oladigan na biron ta qarashimiz va na biron ta tafsilot yo'qki; dangal: «Ha, shunday» yoki «Yo'q, bunday emas!» deya olsak – qayoq-da, men churq eta olmayapman. Ammo hammasidan muhimi shundaki, ishning ma'nô-mohiyati «unday bo'imagan»ga olib kelyapti...

Bu ishning o'zi, boshlanishi vahimali edi. O'tgan yilning 19-iyun kumi. Ertâ tong, soat besh-oltilar bo'lishiga qaramay, leyb-gvardiya polkning rotmisti Lixarev ishxonasida allaqachon tong otib ulgurgan, shahar havosi yoz quyoshidan dim va quruq edi. Rotmistrning uyi shahar tashqa-

risida, gusar kazarmalarining biridagi korpusda joylashgani uchun ham atrofda hali jumjitilik hukm surardi. Atrofdagi bu sokinlik va o'zining nawqiron yoshidan soydatangan rotmistr qattiq uyqudua edi. Stol ustida likyordan bo'shagan shishalar, oxirigacha ichilmay qolgan qahva idishlari turardi. Qo'shi xonadagi mehmonxonada esa boshqa zabit – shtab-rotmistr graff Koshits, undan naroqdagi ishxonasida kornet Sevskiy uxlab yotishhardi. Ertal tong odatdagidek, jo'ngina boshlandi, xuddi shunday kunlarda g'alati voqealar sodir bo'lganidek, 19-iyunning ana shunday erta tonglaridan birida rotmistr Lixarevning uyida to'satdan aqga sig'maydigan bir voqeasodir bo'idi. Kutilmaganda eshik qo'ng'iroq'i chalinib, xizmatdagi askarning oyoqyalang ohista va yengil yurib, eshik tomon borgani eshitildi, so'ng tashqaridan kimir ataylab baland ovozda o'kirdi:

– Uyda kim bor?

Eshikni lang ochdi-da, mehmon oshxonaga etigi bilan gurs-gurs bosib, shportarini sharaqlatib shovqin solib bostorib kirdi. Rotmistr boshini ko'tarib, uyquli ko'zları bilan hayron qarab turardi: ro'parasida polkdosh do'sti kornet Elagin turardi, u jikkak, ozg'indan kelgan, sochlari malla, sepkil yuzli, qiyishiq oyoqlari o'ziga mos, nimjon, egnida buni u har doim o'zining eng «kojzi» tomoni deb qayta-qayta takrorlashni xush ko'radigan bashang ust-boshda edi. U yozgi shinbelimi tez yeehib,

uni stulga tashladi-da, baland ovozda: «Mana sizlarga mening pogonlarim!» – dedi. So'ng devor ro'parasidagi divanga kelib cho'zildi va qo'llini boshi orqasiga qo'ydi.

– To'xta, to'xta, – dedi ming'irlab rotmistr lo'q ko'zlarini undan uzmay, – qayerdan kelayapsan, senga nima bo'igan o'zi?

– Men Manyani o'dirdim, – dedi Elagin.

– Mastmisan? Qanaqa Manya? – dedi rotmistr.

– Mariya Iosifovna Sosnovskaya degan artistni.

Rotmistr oyog'i ni divandan tushirdi:

– Nima, hazillashyapsamni?

– Afsuski yo'q, balki bu yaxshilikkdir, yoki yomonlikka.

– Kimu? Yananima bo'idi? – qichqirdi grafmehmonxonadan turib.

Elagin cho'ziddi-da, oyog'i bilan eshikni yengil tepib, lang ochib yubordi.

– Bo'irma, – dedi u. – Bu men, Elagimman. Men Manyani otib qo'ydim.

– Nima? – dedi graff va bir lahma indamay turdi-da, bir dan xoxolab kulib yubordi. – Mana, gap qayerda! – baqirdi u quvnoqlik bilan. – Voy xudo, seni bu gal uzringni qabul qilamiz. Yaxshiyamki uyg'olding, bo'imsa yana uxlab qolgan bo'lardik, kecha yana soat uchgacha rosa ko'ngilxushlik qilibmiz.

– Chin so'zim, uni o'dirdim, – qat'iy turib takrorladi Elagin.

— Aldayapsan, ukajon, aldayapsan! — dedi mezbon ham paypog'ini kiya turib baland ovozda. — Men bo'sha rostdanam bir gap bo'libdi-da deb vahimaga tushayotgan edim... Efrem, choy qani?

Elagin shimming cho'ntagiga qo'lini suqib, undan umcha katta bo'imagan bir kalitni oldi va uni yelkasi osha stolga uloqtirib, dedi:

— Boring, ishonmasangiz o'zingiz ko'ring...

Sudda prokuror Elagin voqeasini tashkil etgan surbetlik, haysizlik va shunga o'xshash ba'zi dahshatli manzaralar haqida ko'p gapirib, asosiy e'tiborni ko'proq shu tomonga qaratishga urinardi. O'sha tong rotmistr Lixarev daslabki daqiqalardagi na o'zi aytganidek, hech qanday «g'ayrittabiiylik»ni, Elaginning oqarib ketgan yuzini, ko'zlarida hech bir «vahshiylilik»ni payqaganini, so'ngra esa «undanam-bundanam hayratdan yoqa ushlaganim» esdan chiqargandi...

II

Shunday qilib, o'tgan yilning 19-iyun erta tongida mana bunday voqeа yuz bergandi.

Graf Koshits va kornet Sevskiy yarim soat ichida Sosnovskaya yashagan uyning yo'lagi oldida hozir bo'idilar. Endi ko'ngilga hazil sig'masdi.

Aravakashni uchirib haydashga majbur qilişdi, yetib kelgach, aravadan otlib chiqib, shosha-pisha kalitni qulf

teshigiga suqa boshlashdi, qo'ng'iroqni ham zo'r berib bosishdi, lekin kalit eshikka tushmadi, uyning ichidan ham hech qanday sado eshitilmadi. Toqtalari toq bo'lib, shoshib tashqariga chiqishdi-da, qorovulni izlay ketishdi. Qorovul orqa yo'lakdan chopib oshxonada tomonga o'tdi, qaytib kelib, oqsoch xotining aytishiqa qaraganda, Sosnovskaya uyida tunamaganini — qo'liga qandaydir o'rog'ilq narsani ko'tarib, kechqurun chiqib keganini aydi. Graf va kornet hayron bo'lib qolishdi: endi nima qilishadi? O'ylab-o'ylab, yelka qisgancha qorovulni ham o'zlar bilan birga olib, qismga jo'nadilar. U yerdan turib rotmistr Lixarevga qo'ng'iroq qilishdi. Rotmistr telefonдан baqirib berdi:

— Bu tentakning dastidan dod solishga ham tayormana, u Sosnovskaya turadigan uygemas, ular uchrashib turadigan ishratxonaga borishlarini aytishi kerak edi: Starograd ko'chasi, o'n to'rt. Eshityapsizmi? Starograd ko'chasi, o'n to'rt. Xuddi Partij ishratxonalariga o'xshab to'g'ri ko'chadan kiriladi...

Ular Starograd ko'chasi tomonga yugurib ketishdi.

Qorovul izvoschi o'miga o'tirdi, o'zini vazmin, erkin tutgan holda daha nazoratchisi zabitlarning ro'parasiga cho'kdi. Havo issiq, ko'chalar sershovqin, odamga to'la, shunday ostob charaqlagan, hayot qaynagan bir tongda qayerdadir odam o'lib yorganiga ishonging kelmasdi. Nahotki, yigirma ikki yoshli Sasha Elaginning qo'lidan shunday ish kelsa. Bunga uning qanday

qo'li bordiykin? Uni nima sababdan o'dirdi? Qanday o'dirdi?
Hech nimani anglab bo'lmasi, savollarning hammasi javobsiz qolardi.

Starograd ko'chasidagi ikki qavatlari, eski fayzsiz uy yoniga kelib to'xtaganlarida, ularning aytilishlaricha, «butunlay ruhlari tushib ketgandiv». Nahotki, bu ish shu yerda sodir bo'lgan bo'lsa? Nahotki, bularni ko'rish shart bo'lsa? Shunday deysan-u, ko'rmasa bo'lmassi ham. Biroq daha nazoratchisi birdan sergaklandi, o'zini tetik va bardam tuta boshladi.

— Kalitni bering-chi, — dedi u quruj va qat'iy ohangda.

Zobitlar qorovullarga xos hadik bilan kalitni unga tutishdi.
Uyning o'tasida darvoza bor edi, uning ortida yolg'iz daraxt o'sib turgan choqqina hovli, to'd-qulrang tusdagi tosh devor oldida daraxt yanada yashilroq bo'lib ko'zga tashlanardi.

Darvozadan o'ng tomonda to'g'ri ko'chaga chiqadigan haligi sirli eshik bo'lib, endi uni ochish kerak edi. Daha nazoratchisi qovog'imi uygancha kalitni qulqa solgan edi, eshik ochildi-qoldi va graf bilan kornet qandyadir qop-qorong'i yo'lakka o'xshash bir nimani ko'rdilar. Nazoratchi yoritgichni qayerdan izlash kerakligini bilgandek, qo'lini oldinga cho'zdi-da, devorga shap etib urdi, tor va huvillagan xona birdan yorishib ketdi. Xona o'tasida ikkita oromkursi, uning o'tasida stolcha, stolcha usida esa tovuq go'shti, meva qoldiqlari bilan to'la likopchalar bor edi.

Bundan ham dahshatlrog'i hali oldinda edi. Yo'lakning o'ng tomonida qo'shni xonaga o'tiladigan yo'l bo'lib, u xona ham qop-qorong'i edi, shiftiga qora shoyi soyabon tortilgan, tagidan esa sopol sonus o'matilgan bo'lib, xuddi go'rnii yoritgandek yoritib turardi. Xona devorlarining tepasidan pastigacha qandaydir qora mato qoplangan bo'lib, hammayog'i berk, derazasiz edi. Bu yerda ham to'nda katta, pastqam turk divani bo'lib, unda ichki ko'yilakda ko'zlar va labi yarim ochiq, oyoqlari biroz kerilgan, yuzlari oppoq oqargan, tengi yo'q, yoshgina sohibjamol cho'zilib yotardi.

Kirganlar taqqa to'xtab, qo'rquv va hayratdan bir zum qotib qolishdi.

III

Marhumaning noyob husn egasi bo'lismiga sabab, u o'z noyobligi bilan, masalan, nuqsonisiz ayollarini tasvirlaydigan zamonaqiy rassomlar o'zlariga qo'yadigan talkablarni qondira olardi. Bu yerda luzumli hamma narsa muhayyo edi: sarvdek qaddi-qomat, tong kabi tiniq badan, ixcham, nuqsonisiz siliq oyoqlar, bolalarday ma'sum va jozibali lablar, bejirim, muussi jonsiz edi, barchasi toshday qotib, tusi o'chib, bu go'zallik marhumani borgan sari battar qo'rinchli qilib borardi. Soch turmaklari shunday saqlangandiki, shu alfozda ham bemalol

balga kirib borsa bo'laverardi. Boshi divanning ko'tarilgan yondoriga qo'yilgan, salpal ko'kragiga tegib turgan iyagi, uning yarim ochiq ko'zları va butun chehrasiga qandaydir o'ychanlik va hayrat bag'ishlab turardi. Shift tagidagi marhuma uzra qanotlarini keng yoyib turgan qandaydir yirtqich qushga o'xhash qora soyabon tubiga osig'ilq shisha chiroq bularning barchasini g'ira-shira yoritib turardi.

Xullas, bu manzarani ko'rgan daha nazoratchisi ham doneg qotib qoldi. So'ng bu ishni battafsiroq o'rghanish masadida hammalari cho'chibgina unga yaqinlashdilar.

Marmumaning nafis yalang'och qo'llari bo'yи baravari-da to'g'ri, tekis cho'zilib yotardi. Ko'kragida, ko'ylagining jumjimador to'rida Elaginga tegishli bo'igan ikkita tashrif qog'oz, yerda esa yalang'och oyoqchalarga nisbatan g'oyatda qo'pol tuyulib turgan gusarlar qilichi yotardi. Graf bema ni xayolga borib, uni sopidan chiqarib, qon izlari bor-yo'qligini bilmooqchi bo'ldi. Daha nazoratchisi uni bu noqonuniy harakat-dan to'xtatib qoldi.

— Ha, albatta, albatta. — shivvlab ming'irdi graf, — to'g'ri, halihech nimaga tegish mumkin emas. Meni hayron qoldiradigan shuki, hech qayerda hech qanday qonni, biron-bir jinoyat izni ko'rmayapman. Afidan zaharlanish bo'lsa keragov?

— Sabr qiling, — dedi nasihatomuz ohangda dahan nazoratchisi, — tergovchi va doktorni kutaylik. Lekin, zaharlanishga ham o'xshab ketayapti...

Zaharlangan bo'lishi aniqa o'xshaydi. Hech qayerda — na yerda, na divanda, na badanda, na marmumaning tungi ko'ylagida qondan asar yo'q edi. Divan yonidagi oromkursida ayollar pantalon, tungi ko'yak, ularning tagida esa sadafdek tovlaniib turgan moviyrang ko'yak, yaxshigina to'q-kulrang matodan yubka va kulrang shoyi manto. Bularning hammasi divanda tartibsiz sochilib yotsa-da, lekin birontasi ham bir tomchi qon bilan bulg'anmagandi. Divan tepasidagi tokchadan topilgan bo'sh shampan idishlar va po'kkalar, sham qoldiqlari, soch to'g'nag'ichlari, yozib, yirtib tashlangan qog'oz parchalari, yortiq'ida «Or. Pulv» degan qop-qora vahimali yozuvli shisha idish ham zaharlanish bo'lsa kerak, degan fikri tasdiqlab turardi.

Daha nazoratchisi, graf va kornet birlari olib, birlari qo'yib navbatma-navbat yorilqidagi yozuvni o'qib turganlarida ko'chadan ekipajning shovqini eshitildi: doktor bilan tergovchi yetib kelgandi. Bir necha daqiqadan so'ng Elaginning gaplari haqiqat bo'lib chiqdi. Sosnovskaya chindan ham revolvedan otib o'ldirilgandi. Ko'yakdan qon dog'lari topilmadi. Ammo ko'yakning tagida, yurak atrofida ko'kishtob qontalash dog'mi topishdi. Dog'ning o'rtasida chetlari kuygan, dumaloqlangan ro'molcha bilan yopilgani uchun hech bir joyni bulg'amagan qop-qora qon to'mchilab turgan jarohat ko'rinish turardi.

¹ Manto — ayollarning mo'ynali paltosi, shuba.

...

Shifokorlar tekshiruvni yana nimaga aniqlik kiritdi? Ko'p narsaga emas: marhumaning o'ng o'pkasida sil xastaligidan qolgan izlar bor; yaqindan turib otilgani uchun o'lim bir lahzaning o'zida sodir bo'lgan; shu alfozda ham marhuma bitta-yarimta so'z aytishi mumkin bo'lgan; qotil va uning qurbanini o'rtaida hech qanday kurash bo'lmagan; u shampan vinosini ichib, ortidan uncha ko'p bo'lmagan afyuni portera (zaharlanshga ozlik qilardi) qo'shib ichgan, va nihoyat, uning bu mash um kechada erishgani bir erkak bilan qovushgani bo'lgan...

Buerkak nimaga, nima sababdan ayolni o'ldirdi? Elaginning bu savolga javobli shunday edi: ularning har ikkisi – u va Sosnovskaya – «fojiali ahvolda» edilar, ular bu ahvoldan qutulishning o'lindan boshqa chorasini ko'rmaganlar. Sosnovskayani o'ldirib, Elagin uning buyrug'ini ado etgan, xolos. Marhumaning o'limi oldidan yozgan xatlari esa bularning barchasini inkor etardi. Uning ko'ylagi ko'kragidan Elagingga tegishi bo'lgan, marhumanning o'z qo'llari bilan polyak tilida (aytish kerakki, savodsizlarcha) yozilaverib, to'lib, titlib ketgan tashrif qog'ozini topishdi. Shulardan birida bunday so'zlar yozilgan edi:

— «Teatr boshqaruvi raisi general Konovnitsinga! Do'stim! Bir necha yillik olivjanob do'stlik uchun sendan minnatdorman... Senga so'nggi salomimni yo'llay turib, mening oxirgi chiqishlarimdan tushgan pulning hammasini onamga berib qo'yishingni iltimos qildim...»

Boshqasida:

— «Bu odam meni o'ldirib, to'g'ri ish qildi... Baxtsiz, bechora ona! O'z xohishim bilan o'lmaganim bois meni afv etishingizni so'rardim... Ona! Biz ko'rishamiz... u yerda, arshi a'loda... Sezayapman – bu oxirgi damim...»

Sosnovskaya shunga o'xshash tashrif qog'ozlariiga o'zining o'limi oldidan bitgan boshqa maktublarini ham yozib qoldirgan. Ular tokchada mayda-mayda yirtilgan holda yotardi. Ularni yig'ib, yelmlab, quyidagihami o'qishdi:

— «Bu odam mening va o'zining ajalini talab qilyapti... Bu yerdan tirik chiqishga umid yo'q...»

— «Xullas, mening kunim bitti... Xudoyim, meni yolg'iz qoldirma... Men so'nggi xayolimi – onamga va muqaddas san'atga bag'ishlayman...»

— «Oxiri yo'q, tubsizlik! Bu odam mening taq... Meni qutqar, Xudoyim, o'zing madad ber...»

Va nihoyat, eng sirlisi:

— «Quand meme pour bonjours...»¹

Barsha maktublar – marhuma yonidan topilganlari ham, tokchada parchalangan holda yotganlari ham go'yo Elaginning so'zlariga butunlay zid edi. Lekin, hamma gap o'sha «go'yo»da edi. Elaginning taqdirini hal qiluvchi o'sha Sosnovskayaning yonidan topilgan «Men o'z xohishim bilan o'lmayapman», degan so'zları yozilgan tashrif qog'izi yirtib tashlansa bo'lmasmidi?

Elagin xatlarni yirtib tashlamagangina emas, balki o'zi bilan olib ketmagan ham edi, aksinchala, o'z qo'lli bilan (buni yana boshqa kim ham qilardi?) eng ko'rinarli yerga qo'yib qo'yan. Shoshib qolganidan ularni yirtmagandir. Bunday paytda yirtishni esdan chiqargan bo'lishi mumkindir. Ming shoshamasin, o'zi uchun xatarli bo'lgan bunday maktubni u qanday qilib marhumananing ko'kragiga solib qo'yin? U o'zi umuman shoshib qolganmikan? Aslo, u marhumaning u yoq-bu yog'ini tartibga keltirgan, ustini ko'ylak bilan yopgan, yarasiga shunchayin ro'molcha bostirib qo'ygan-da, o'zini ham tartibga keltirgan... Yo'q, bu yerdan prokuror haq: bularni shoshganda bajarib bo'lmasdi.

IV

Prokuror shunday dedi:

– Jinoyatchilar ikki xil bo'ladi. Birinchisi, tasodifiyalar bo'llib, ular jinoyatni g'azab va nafrat ustida, ishlari o'ngidan kelmay qolgan vacqida sodir etadilar, bu ilmiy tilda «soniy aqlsizlik» deyiladi. Ikkinchisi, sodir etayotgan jinoyatini oldindan o'ylab, yomon niyatda qasddan sodir etadi: bular tug'ma jinoyatchilar bo'lib, jamiyatning, jamoat tartibining dushmanlari, ya'ni «odamxo'r jinoyatchi»lardir. Biz sudlanuvchi kursida o'tirgan odamni bu toifalarning qaysi biriga kiritish bo'ladi? Albatta, ikkinchisiga. U, shubhaisiz, tajribali jinoyatchi, u jinoyat sodir etdi, chunki u yallo qilib yurib, axloqsiz va bebosh yashashdan cuturib ketgandi...

Bu tantanali nutq (Elagin to'g'risida shahrimizning umumiy fikrini ifoda etgan bo'lsa-da) favqulodda g'alati edi. Elagin sudda yuzini qo'lli bilan odamlardan pana qilib, tirsagiga suyanib o'tirdi va savollarga qisqa-qisqa, g'ijinibgina, ma'yus javob berib turdi. Bir tomonдан prokuror haq edi: sudlanuvchi o'rnida o'tirgan unaqa-bunaqa jinoyatchi emas, u hatto koniy aqlsizlikdan ham lat yemagan.

Prokuror o'rtaga ikita savol tashladi: birinchidan, o'zi jinoyat jazzavada, ya'ni hayajonda sodir etilmaganmikan, ikkinchidan, u ixtiyorsiz ravishda qotillikka hamkor bo'lмаганмикан, – dedi va har ikkala savolga ham o'zi to'la ishonch bilan: yo'q, aslo, – deya javob qaytardi.

– Yo'q, – dedi u birinchi savolga javob bera turib, – hech qanday jazzava to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas, negaki, jazava holati bir necha soatga cho'zilmaydi. Elagin nimadan ham jazzavaga tushardi?

Oxirgi masalani hal qilish uchun prokuror o'ziga juda ko'p savol berdi va shu ondayoq ularni rad etib, maskaraomuz kulinib, qo'ydi-da, dedi:

– O'sha mash'um kunda Elagin O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLYVA ORTA MAMYUS TA'LIM VAZIRLIGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PEDAGOGIKA INSTITUTI AXBOROT RESURS MARKAZI

maganmikan? Yo'q, u o'zi ko'p ichkadagi tekshiruvdan o'tkazgan shifokorlarning fikriga qo'shilganmikan?

– Uning salomatligi joyida bo'lganmi jo yozqimi? Um tekshiruvdan o'tkazgan shifokorlarning fikriga qo'shilganmikan sog'lon, lekin o'zini tiyishni mutlaqo bilmaydi. OLYVA ORTA MAMYUS TA'LIM VAZIRLIGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PEDAGOGIKA INSTITUTI AXBOROT RESURS MARKAZI

2- Uch musofir

0047

17

16

— Agar u haqiqatan ham o'sha ayolni sevgan bo'lsa, unda jazzava sevgan ayoli bilan er-xotin bo'lmagli tufayli kelib chiqmadimikin? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas; chunki sudlanuvchi unga g'amxo'rlik qilinagan, birga bo'lish uchun biror-bir qat'iy chora ham ko'magan.

Bundan keyin:

— Balki Sosnovskayaning chet elga ketishi uni shu ko'yga solgandir? Yo'q, ayolning jo'nab ketishini u avvaldan bilgandi.

— Balki Sosnovskayaning chet elga jo'nashi tufayli aloqalariga darz ketgandir? Bunday ham emas, chunki aloqalarining uzilishi haqida bu kechadan avval ham ko'p marotaba gaplashilgan. Agar shunday bo'imasa, unda nima axit? Nima, unda o'im to'g'risida gaplashishganmi? Xonadagi g'alati holat, shayton vasvasasi, umuman, o'sha vujudni o'rtaguvchi «qora» tundek unga azob berarmidi? O'im haqidagi gap-so'zlar Elagin uchun yangilik bo'lolmasdi: bunday mish-mishlar o'zi va ma'shuqasi o'tasida to'xtovsiz bo'lib, ko'ngilga ham urgandi. Shayton vasvasi to'g'risida so'z ochishning o'zi kulgili. Uni g'oyatda zavqsz narsalar: kundalik kechki ovqat, undan qolgan qoldiqlaru bo'shagan shishalar, haitto afv etasizu, tungi hojatbaror idishlar ham batamom tiyib qo'ygandi.

Elagin yegan, ichgan, hojatxonaga borgan, goh vino deb,

goh qalamtarosh deb boshqa xonalarga ham chiqqan...

Prokuror shunday xulosa yasadi:

— Bungacha Elagin qotillik sodir etganimdi, agar bu marhuma xohishiga ko'ra ijro etilgani inobatga olinsa, bahsni cho'zishga hojat ham qolmaydi. Elagin Sosnovskaya o'zini o'ldirishni ko'raganini aytib, uning «o'tayapman, lekin o'z xohishim bilan emas» degan mazmundu yozilgan, o'zi uchun fojiali yakun topgan maktubini taqdim etib, bizni asosiz ishontirmoqchi bo'yapti.

V

Prokuror nutqidagi tafsilotlarning ko'piga e'tiroz bildirish mumkin. «Sudlanuvchi mutlaqo sog'iom...» Lekin, kasallik bilan salomatlikning, aql bilan aqilsizlikning me'yori qayerda? «U oila qurish haqida o'ylamasdi ham...» O'ylamaganining boisi, avvalambor, bari behudaligiga ishonardi; ikkinchidan, nahotki, sevgi va nikoh bir-biri bilan shunchalik bog'liq bo'lsa? Elagin Sosnovskaya bilan nikohdan o'tganda, umuman, o'rtadagi bar-chu fojalarga chek qo'yib, bir yo'la xotirjam bo'larmidt? Har qanday kuchli, hattoki, umuman, unchaliq oddiy bo'lmagan sevgida ham qanday qilib bo'lsa-da, nikohdan bo'yin tov lashdek antiqa bir xususiyat borligini nahotki hech kim bilmasa?

Takror ayaman, bular tafsilot, xolos. Aslida prokuror haq gapni aytgandi: bu jazava natijasi emasdi.

— U yana shunday dedi:

— Shifokorlar xulosasida Elagin, jazavadan ko'ra ko'proq xotirjam bo'lgan, men esa uni nafaqat xotirjam bo'lganini,

balki bu bilan hammani hayron qoldirganini tasdiqlayman. Biz bunga jinoyat sodir etilib, so'ng tartibga keltirigan va u yerda Elagin yana uzoq qolib ketgan xonani ko'zdan kechirganimizda amin bo'ldik. So'ng Elaginning Starograd ko'chasidagi uydan xotirjam chiqib, eshikni shoshmay, yaxshilab quflaganini ko'rgan tergovchi Yaroshenkonning ko'rsatmasi. Vaniboyat – Elagin xulqi haqida rotmisir Lixarev fikri. Masalan, Elagin kornet Sevskiy uni «aql-hushini yig'ib olishiga ishonirmoqchi bo'lib, Sosnovskaya o'zini-o'zi otmaganni, shuni eslab ko'rishimi so'raganida, u nima degan? U: «Yo'q, akaginam, hammasi juda yaxshii esimda!» – deya o'sha zahoti qanday otganimi tasvirlab bergan. Tergovchi Budbergi «Elagin o'z yoqimsizligi bilan hayron qoldirgan, ya'ni u iqrordan so'ng ham sovuqqonlik bilan choy ichib o'tirgan». Tergovchi Foxt esa hayratdan yoha ushladi: «Janob shtab rotmistr, – kinoyali dedi Elagin, – umid qilamanki, meni bugunoq o'qishdan ozod qilasiz. – Bu shu qadar dahshatlidir ediki, – dedi Foxt, – kornet Sevskiy buni ko'tarolmay ho'ngrab yig'lab yubordi...» To'g'ri, rotmistr polk komandiri huzuridan unga chiqarilgan buyruqni olib kelganimda, Lixarev va Foxtning yuzidan, eng muhimmi, endi u zabit emasligini tushunganida Elagin yig'lab yuborgan vaqtlar ham bo'lgan. Xuddi shunday damlarda u ho'ngrab yig'lab yuborgan, – dedi-da, prokuror ham ismi shu joyda yakunlab qo'ya qoldi.

Albatta, so'nggi jumla yanada g'alatiroq chiqdi. Shunga o'kshash boshga tushgan musibat seni tarashadek qotirgan buxtsiz damlaringda, to'satdan uyg'onib ketish, hatto arzimas, mutlaqo ahamiyat kasb etmagan, tasodifan ko'zingga tushgan biror narsa ham, dabdurustdan senga avvalgi shodon bayotingni, umidsizlikka to'la kunlaringni va shu damdagagi ahwolning bor dashhatini yodingga solishimi kim bilmaydi devsiz? Barcha voqealar Elagina bu shunchaki, ahamiyatsiz va tasodifiy nar-silar emasligini unga eslatib qo'ydi. Axir uni tug'ma zabit desa bo'lardi – uning o'n ajodi harbiy xizmatchilar bo'lgan. Endi esa u birdan zabit bo'lmay qoldi. Uning zabit emasligining sababi faqat bu emasıdi, – u endi o'z hayotidän ortiq ko'rgani, chin yurakdan sevgan ayolining bu yorug' olamda yo'qligi uchun ham zabit bo'lmay qolgandi, bunday qabih ishni uning o'zi o'z qo'llari bilan sodir etgandi.

Biroq, bu ham tafsilot, xolos. Eng asosiysi, «omiy aqslizlik» haqiqatan ham bo'lmagan. U holda nima sodir bo'lgandi? Prokuror tan olib aytdiki, bu shubhali ishda asosiy e'tiborni birinchchi navbatda Elaginning fe'l-atvori muhokamasiga va Sosnovskaya bilan oralaridagi munosabatni qanday aniqlashga quratish kerak! So'ng prokuror qat'iy turib dedi:

— Oralarida hech qanday o'xshashlik bo'lmagan ikki shaxs topishishdi...

Rostdanan shunday bo'lganmikan? Hamma gap shunda edi...

VI

Elagin haqida men, avvalo, shuni aytmoqchimanki, u endi yigirma ikki yoshta to'idi; bu qaltis yosh, zamon esa notinch, bularning bari insonning kelajagini belgilaydi.

Odatda, bunday paytda odam, tibbiyot tili bilan aytganda, balog'at yoshini boshidan kechiradi, hayotda esa bu – ilk muhabbat ko'rinishida bo'llib, negadir, bunga doim shoirona, va umuman olganda, g'oyat yengiltaklik bilan qaraladi. «Ilk muhabbat»ga tez-tez fojja, qayg'u hamrohiik qiladi, lekin mutlaqo hech kim bunday paytda odamlarni shunchakki hayajon, azob emas, balki undan xyla teran, murakkab bir hissiyat o'tayotgani haqida o'ylamaydilar; hali boshga tushmagan narsalar uchun kuyunishadi, balog'at davrining vahimas, o'zni namoyon etishning mashaqqati, ilk jinsiy mayl. Agar men Elaginning oqlovchisi bo'lganimda, suddan uning yoshta aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqib e'tibor qaratishlarini va qarshimizdagi odamni shu ma'noddan, mutlaqo tengi yo'qligimi inobatga olishlarini o'tingan bo'lardim. «Navqiron zabit, es-hushimi yo'qotib, ayshtishratga berilgan», deya prokuror ko'pchilik fikrini takrorladi-da, haqligini isbotlash maqsadida hikoyani boshqa bir guvoh – artist Lisovskiyga oshirib yubordi. Elagin bir kuni kunduzi teatrga kelib, artistlar mashq qilishga tarqalishayotganda, uni ko'rib qolgan Sosnovskaya chaqqon chetga o'tdi-da, Lisovskiyning panafigiga yashirinib: «Amaki,

meni undan yashiring!» – dedi. Men uni pana qildim, deya hikoyasini boshhladi Lisovskiy, sharobga cho'milgan bu zabit birdan to'xtadi va gangib turgan joyida oyooqlarini kerdi-da, buqrayib: bu Sosnovskaya deganlari qayerga daf bo'ldi? – dedi ulmowsirab.

Ha, aynan shunday: miyasi aymigan odam, lekin nimadan:

nahotki, «bebosh, bema ni turmushdan bo'lsa?» Deyish mumkinki, Elagin asilzoda va boy oiladan chiqqan. Onusi (qarangki, u ortiqcha hayajonga g'oyat moyil toifadan bo'gan)dan ujuda erta yetim qolgan, otasi esa berahm, qattiqqo'li odum bo'lgan. U doim shu qo'rquv tufayli otasidan uzoqlashib turib katta bo'lgan. Prokuror ayovsizlarcha Elaginning nafaqat axloqiy, balki jismony qiyofasini ham osongina chizib tashladi.

Keyin shunday dedi:

– Shunaqa, janoblar, qahramonimiz mana shunday «ko'kam» zabit libosida yurgan. Endi ahvoliga bir qarang-a. Endi uni bezaydig'an hech vaqosi qolmagan; qarshingizda past bo'yli, bukir bir yigitchani, o'zining malla mo'ylovi, betayin, bee'tibor boqib turgan basharasi, egnidagi qop-qora kamzuli bilan bir oz Otelloni yodga soluvchi odamni ko'rib turibsiz. Menimcha, unda nasl buzilishining o'ziga xos belgilari yaqqol ko'ziga tashlanib turardi. Zero, ba'zi hollarda, aytaylik, otasi ko'zidan narrida o'zini ozod his etganda va yana qonunni chetlashga imkoniyat tug'ilganda, odamlar bilan munosabatda biron-bir to'siq bilan hisoblashib o'tirmaydi.

Nima ham derdik, qo'poldan-qo'pol berilgan bu baholarning

ko'pi rost edi. Bularni eshitma turib, men avvalo bir narsaga tushunolmadim, axir, qanday qilib o'sha mash'um, o'ta chalkash bir fojiga bu taxlit yuzaki yondashish mumkin: ustigat-ustak, unda nasidan-nasnga o'tib kelayotgan belgi ham shundaygina ko'zga tashlanib turgan bir paytda, yana uni nimasi bilan ajratib olish mumkin; ikkinchidan, aytilgan ro'yirost gaplarda men haqiqatning bir bo'lagingina ko'ra oldim, xolos. To'g'ri, Elagin otasidan bezib o'sdi. Lekin, bu jur'atsiz degani emas-ku, ayniqsa, ota-onas oldida. Ustiga-ustak ajododlari, ota-bobolari bilan uni bog'lab turgan metros atalmish rishtani teran his eta olish baxtiga muyassar bo'lgan bunday odam uchun. Ha, Elagin zabitga xos ko'rksam tashqi ko'rinishdan bebahra edi, lekin bu ham uning favqulodda qobiliyatli ekanidan darak emasmi: sinciklab bir qarang-a, degan bo'lardim men prokurorga, malladan kelgan, oyoqlari ingichka, bukir bu odamga, o'shanda siz deyarli qo'rquv bilan kichik ko'zlarımoviy (uni sizdan olib qochayotgan) bu sepkilli yuzi uchun ahamiyatsiz narsaming o'zi yo'qligini ko'rasiz. Va yana siz o'sha buzilgan naslning quadratiga bir e'tibor qiling-a: qotillik sodir etilgan kun, u ertalabdan o'qishda bo'lgan – va nonushtada olti qadah aroq, bir shisha shampan vinosi, ikki qadah konyak ichib, shunda ham mutlaqo hushyorlikni yo'qotmagan.

VII

Ko'pchilikning Elagin haqida bildirgan chirkin fikrlariga qarshi-qarshi o'laroq, polkdosh do'stlari o'z ko'rsatmalar bilan uni himoya qilishga tayyor turardilar. Do'stlari u haqda faqat yosshi gaplarmi aytishdi. Masalan, eskadron komandiri u haqda fikr bildirib, bunday dedi:

– Elagin polka qadam qo'ygan kundan boshlab, zabitlar orasida odob-axloqi bilan o'zini ko'rsata oldi va doimo o'ta sushfe', g'amxo'r, kichik xodimlarga munosabatda ham odil bo'ldi. U fe'sidagi bir jihat – betayinligi bilan ajralib turardi. Lekin buning hech kimga zarari tegmasdi. Faqat unda kayfiyat o'zgarishi, ya'ni quvnoq odamdan ma'yusga, sergakdan indumasga, qat'iyatli odamdan birdan o'z qadr-qimmati... kelajagiga ishommaydigan odamga aylanib qolishi oson kechardi, xolos.

So'ng rotmistr Lixarev bunday fikr bildirdi:

– Uning g'alaitiroq ekanimi aytmasak, Elagin g'amxo'r va yaxshi do'st, kamtarin va kamgap, ba'zan sho'x, bebosh, ba'zan esa ravq-shavvqa to'lib-toshib bizni hayron qoldirardi. U yonimga kelib, Sosnovskayani o'dinganiga iqror bo'lganida, Sevskiy bilan Koshitsa Starogradskiy ko'chasidagi uya yugurishdi. U ba'zan qo'rquvdan ho'ng-ho'ng yig'lar, ba'zan yovuzlarcha zaharxandolk bilan kulib qo'yardi. Uni qamoqqa olib ketishayotganda beldun fuqaro kiyimiga qayerga buyurtma berishni so'radi...

So'zni graf Koshitsa davom etti:

— Elagin tabiatni to'kis odam edi. U bir vaqtning o'zida ham muloyim, ham asabiylar, ta'sirchan va zavq-shavqqa to'la odamga aylanib ulgurishi mumkin edi. U teatrdan, musiqadan o'zgacha ta'sirlanar bir zumda yig'tab yuborishi hech gap emasdi. U musiqaga borasida ham ancha qobiliyatli bo'llib, deyarli barcha cholg'u asboblarini bemalol chala olardi.

Boshqa guvohlar ham taxminan shularni ayishdi:

— U juda ishqiboz odam bo'llib, doim qandaydir chinakam, favqulodda bir narsani kutib yashardi...

— Do'stlar bazmida quvnoq, hatto joningga tegar darajada muloyim bo'llib, atrofidagi odamlardan shampidan vinosidan ko'proq so'rab olardi-da, to'g'ri kelgan odamini shu bilan mehmon qilaverardi. Sosnovskaya bilan uchrasha boshlagandan beri hissiyotini iloji boricha sif saqlashga urinardi. U o'zgargandi, xayolchan, g'annok yurardi. Bir kuni u o'zini o'ldirishga qaror qilganini ayrib qoldi...

Elagin bilan yaqindan tamish bo'lganlar shunday ma'lumot berishdi. Sudda o'tirib, men uning portretiga bunday qora bo'yoqni prokuror qayerdan topgani haqida o'yladim? Balki unda biz bilmagan boshqa ma'lumot bordir? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas. Taxminimcha, prokuroming unga qora bo'yoq chaplashiga sabab, uning «baxtli yoshlar» to'g'risidagi umumiyy qarashlariga qo'shimcha, yana, sudning ixtiyorida turgan, yagona, Elagining Kishinyovdag'i do'stiga yuborgan x-

tin o'qib bilganlari sabab bo'lgandi. Xatda Elagin o'z hayoti lo'g'risida surbetlarcha so'zlab:

Men, og'ayni, butunlay loqaydlik qurshovida qoldim: nanga endi hammasi baribir! Bugun yaxshi, xudoga shukr, lekin, ertaga nima bo'ladi — tupurdim, kechasi yotib o'yla — ersi turib so'yla. Uchiga chiqqan aroqxo'r, salkam dong'i ketgan ihmooq degan nom ortiirdim.

Bunday o'z-o'ziga baho chechangina prokuroring «o'z nafsi o'ylab, lazzat ketidan quvgan Elagin, borini unga bug'ishlagan ayolni jamoat hukmiga tashlab, uni nafaqat umriga to'min bo'idi, hatto so'nngi umidi — nasroniy urf-odatiga ko'ra dafn etilishidan ham mahrum etdi...» — degan nutqiga aloqasi hordek tuyulardi. Chindan ham aloqasi bornidi o'zi? Yo'q, prokuror xatdan bir necha satrgina olgandi, xolos. Xatning to'liq matni quyidagicha edi:

«Azizim Sergey Xatingmi oldim, kech bo'lsa-da, javob yoziyapman, nima ham qilardik? Xatimni o'qib: «Buncha aji-buji, si-yog'u tushegan pashha o'rmalagamni» — deb o'ylasang kerak. Nima ham qilardik, buyam bir yozuv-da, ayishadi-ku, agar oyina degani bo'lmasa bormi, fe'l-atvoringga baho beruvchilar ham topladi. Men o'sha-o'sha ishyoqmasligimcha qoldim, bilsang undan ham battar, ikki yillik mustaqil hayat va yana illanumalar menda o'z izini qoldirdi. Shunday gaplar borki, hetto Hazrat Sulaymonga ham aytolmaysan! Agar bir kun kelib o'zimni gumdon qilganimni eshitib qolsang, hayron bo'ima,

VIII

deb aytib qo'yayapman. Men, og'ayni qandaydir loqaydlik domiga tushib qoldim: menga endi hammasi baribir! Bugun yaxshi, xudoga shukr, ertaga nima bo'lsa bo'lar, tupurdim, kechasi yotib o'yla – ertasi turib so'yla. O'zimga uchiga chiqqan aroqxo'r, dong'i ketgan ahmoq degan nom ortirganim qoldi. Ishonasami, yo'qmi, bilmadim? Ba'zan yuragimdag'i kuchni, og'tiqni, barcha go'zal, dabdabali, umuman, jin ur-sin, qalbin nimaga talpinsa, o'shangga maylni his etib turaman. Balki buni yoshlikka yo'yarsan: nega endi men tengilar bunday holatlarni bosldan kechirmaydi? Men o'luguay asabiy bo'lib qolganman: ba'zan qishda, kechqurun, bo'ron,sovug bo'tishiga qaramay, o'mindan dast turaman-da, hatto hech nima bilan hayron qoldirib bo'lmaydigan shaharlakkarni lolu hayron qoldirib, ko'chaga chiqaman-da, asta-sekin yuqorilab boraveraman – e'tibor qilyapsamni, yana o'sha qayerlardadir qulog'imga chalingan ohangni tutish istagida o'zimni mutlaqo hushyor va xotirjam tutgan holda. Qani endi, tutolsam! Mayli, senga yorilaman. Yuragimdan urib qoldi, unaqasi hech yerda yo'q... Endi bu haqda bas qilaylik. Iltimos, menga xat yozib tur, manzilimi bilasan: Nima deganing yodingdam? «Rossiya, kornet Elaginga...»

Aqlga sig'maydi: hech bo'imaganda bu xatlardan bironiasi o'qilganda ham mushtarak biror narsasi bo'Imagen ikki kimsa qanday qilib topishishdiykin, deb aytish mumkin bo'harmidi?

Sonovskaya haqiqiy polyak ayoli bo'lib, Elagindan katta, yoshi yigirma sakkizda edi. Otasi mayda amaldorlardan bo'lib, qizaloq uch yoshdaligidida o'z joniga qasd qilgandi. Onasi amcha-jucha beva yashadi, so'ng xuddi o'shanday mayda amaldorga turushga chiqdi va yana beva qoldi. Ko'rib turgamingizdek, Sonovskayalar oilasi o'rtahol oilalardan bo'lgan. Lekin boshqalarda topilmaydigan ajoyib samimiylik va bizga ma'lum bo'lgan sahnaga bu darajada erta qiziqish unda qayerden paydo ho'ldi ekan? Bunga uning oiladan yoxud o'zi o'qigan xususiy pansionidan olgan tarbiyasi sabab bo'lomaydi. U juda yaxshi o'qigandi, bo'sh vaqtarida ko'p mutolaa qilardi. O'qigan kitoblaridan o'ziga yoqqan fikr va hikmatli so'zlarni yozib olib, mudom o'z hayotiga qiyoslab ko'rardi, umuman, u kundalikka o'kshush qaydlar qilib borardi, agar oylab qo'nga olmay tashlab qo'yigan, bu parcha-parcha qilib yirtilgan qog'ozlarni kundalik deyish mumkin bo'lsa. Axir u bu kundalikka o'z orzu-umidlarini, hayoga qarashlarini yozib, ko'nglini bo'shatardi, yana kirkona, ikkuvchi va boshqa allanimalarga ketgan xaraajatlarni ham kiritib borundi-da. U ayman qanday gaplarni ko'chirib olardi?
— «Birinchi baxt, bu – dunyoga kelmaslik, ikkinchisi esa, lanoga ketish». Ajoyib fikr!
— Yorug' dunyo o'lgedek zerikarli, toqatni-toq qiladi, yurak xoriqulodda nimagadir talpinadi.

— «Odamlar u dunyoga ravona qiladigan qiyinoqlarniga tushunishga qodir», Myusse.

— Men hech qachon tur mushga chiqmayman. Bu haqda hamma gapiryapti. Bunga Xudo va Ajal nomi bilan qasam ichaman.

— Yo muhabbat, yo o'lim. — Men sevadigan odam Yer yuzida bormikan o'zi? Bunday yo'q, bo'lishi ham mumkin emas!

Unda telbalarcha sevganim bu dunyoni qanday tashlab ketaman!

— Qo'rinqinchi, maftunkor, sirli muhabbatni yerdan ham,

ko'kdan ham topib bo'lmaydi...

— Oyim boylik uchun erga tegishimni xohlaydi. Men, boylik uchun-a! Sevgi degan so'z bu zaminga begona, unda azob-uqubat ham, joziba ham yetarli, afsus, men bunday tuhfadan benasibman!

— Hisobsiz yirtqich ko'zlar menga yeb qo'ygudek boqadi, men o'zimni xuddi maxluqlar makonida bo'lgandek his etaman.

— «Uning hayotdagij barcha toat-ibodatlari qalbi tubidigilarni pinhon saqlashga qaratilgan bo'lsa-yu, unga suqilib kira oldim, deya kim ham maqtana olardi?», Myusse.

Sosnovskaya pansiondagij kursni tugatgach, onasiga o'zini san'aga bag'ishlashini aytganda, mehribon katoliklardan bo'lgan onasi avval-boshida buni eshitishni ham istamadi, qizi esa boshqalarga o'xshamasdi, birovga itoat etish u yoqda tur-sin, hatto onasiga ham elburutdan ta'sir o'tkazib, Mariya Sosnovskayaning hayotti oddiy, shuhratsiz bo'lishi mumkin emasligiga uni ko'ndirgandi.

U o'n sakkiz yoshida Lvovga jo'nadi va ko'p o'tmay o'z urasini ro'yobga chiqardi: sahnaga ham biron-bir qiyinchiliklari erishdi va tez orada nazarga tushdi. Omma orasida ham tez tanildi, ancha jiddiy bo'lgan teatr san'ati olamida, symunitining uchinchchi yilda bizning shaharga taklif etildi. Lvovga kelgan kunidanoq, deyarli, avvalgidek, kundaligini junta boshladi:

— «U haqda gapirishyapti, kulishyapti, yig'lashyapti, uning qisi kim, kim biladi?», Myusse.

— Agar onam bo'imaganida, o'zimni o'dirgan bo'lardim. Bu mening doimiy orzuim...

— Men shahar tashqarrisiga chiqqanimda, u yerdan tubsiz, ujoyib osmonni ko'raman va shu lahzada menga nima bo'layotganini angolmay qolaman. Shu payt ovozin boricha qiehqirigm, kuylagim, biron nima o'qigim, yig'lagim, sevib qilim va oxiri o'lgim ketib ketadil!

— Men o'llinning eng go'zalini tanlayman. Ixchamgina uy olamon-da, uni motam matosi bilan qoplayman. Devor ortida kuy yangraydi, men esa oddiygina oq ko'yikda, atrofimdagidagi ifori bilan o'diruvchi gullar ichida yotaman. O, bu qanday mol'atl!

Keyin:

Humma tanamga muhtoj, ruhimga emas...

— Roy bo'lganimda butun dunyoni kezardim va undan muhabbatimni ayamagan bo'lardim...

— «Inson nima istashini o'zi bilarmikan, o'ylaganlariga o'zi ishonarmikan?», Krasinsky.

Va nihoyat:

— «Yaramas!»

Qilgan ishini payqash uncha qiyin bo'imagan bu yaramas yana kim bo'idi ekan? Anig'i shukki, u bor, uning mavhum shaxs bo'lishi mumkin emas. «Lvovdayoq, — dedi tergovchi Zauze, Sosnovskayarning xizmatdoshi, — u kiyimmasdi, yechinib xizmatini ado etardi, tanishlariyu muxlislarini uyida, ochiq-sochiq tungi ko'yakda, yalang'och oyoqlarini ko'rsatib qabul qildi. Uning go'zalligidan hamma lol qolardi, bu, ayniqsa, yangi kelganlarga ko'proq ta'sir qilardi va ular bundan hang-mang bo'lib qolardilar. Sosnovskaya shunda: «Aslo hayron bo'lmanq, bularning bari o'zimnik», — deya tizzasidan tepasini bernalol ochib ko'rsatardi. Shu bilan birga u tez-tez ko'z yoshi to'kib, — uning muhabbatiga munosibi yo'qligini va birdan-bir naioti o'lim ekamini bot-bot ta'kidardi...

Mana, Konstantinopolga, Venesiyaga, Parijga birga borgan, Krakov va Berlinda u bilan birga bo'lgan «yaramas» ham paydo bo'lib qoldi. Bu qandaydir galisiyalik yer egalaridan bo'lib, favqulodda badavlat odam edi. Sosnovskayani yoshligidan yaxshi bilgan tergovchi Volskiy u haqda shunday dedi:

— Men Sosnovskayani hamisha axloqsiz ayol deb hisoblagannan. O'kamiz fuqarosi va artist sifatida o'zini qanday tutishni mutlaqo bilmassi. U faqat pulni va erkaklarni xush

ko'rardi, xolos. Bu beadab, qanday qilib qizaloq paytidayoq o'zini keksa galitsiylik to'ng'izga topshirdi ekan?

Sosnovskaya o'z o'limi oldidan Elagin bilan qilgan suhbatdu aynan shu «to'ng'iz» haqida gapirib bergandi. Shu yerda u hepurvolik bilan Elaginga shikoyat qilib:

— Men o'z holimcha o'sdim, menga hech kim qaramagan, men o'z oilamda, butun yorug' olamda barchaga begona edim. Butun avlodи bilan la'natnga uchrugur bir xotin meni, ishonuvchan, pokiza bir qizni fahsh yo'iga boshladi... Faqat dahshat bilan enlash mumkin bo'lgan, ablaharning ablahi bo'lib chiqqan bir odamni men Lvovda xuddi o'z otamdek yaxshi ko'rib qolgandim. U meni nashaga, vinoga o'rgatdi va meni Konstantinopolga olib ketdi. U yerda uning butun boshti harami bo'lib, u o'z haramida yotib, yalang'och joriyalarini tomosha qilardi-da, meni ham ulardek yechinishga majbur etardi, u shunday ablah va pastkash odum ediki...

IX

Shahrimizda Sosnovskaya to'g'risida tezda mish-mish gaplar torqaldi.

— Lvovdayoq, — dedi tergovchi Meshkov, — ko'pchilikka bir kechanning o'zidayoq u bilan birga bo'lishni taklif eigan va sevishga qodir bo'lgan qalbni izlayotganini aytgan. Sosnovskaya bunday qalbni sabot bilan izlagan. O'zi esa: «Mening asosiy

maqsadim – yashash va hayotdan bahra olish» deya takrorlardi. Chashnagir barcha sharoblardan totishi lozim, lekin bironta xilidan mast bo'lishi mumkin emas. Ayol erkak bilan munosabatda ham shunday yo'l tutishi kerak». O'zi xuddi shunday qilgan, – dedi Meshkov. – Sharobning baridan totib ko'rgan deb aytolmayman, biroq yo'idan urganlarining sanog'i yo'qligini bilaman. Balki u bularni eng asosiy ish – atrofida shovqin-suron ko'tarib, teatrga yollangan olqishchilarini toplash uchun qilgandir. «Pul, – dardi u, – qo'nning kiri, men xuddi so'nggi meslichanlardek mumsik, ba'zan ziyanaman, lekin, nimadadir pul haqida o'yalamayman. Muhimi – shuhrat, qolganlari asta-sekkin bo'laveradi». Sosnovskaya o'lim haqida gapirishga majbur qilishni ko'zlagan o'zi to'g'risida birovlarini gapirishga majbur qilishni ko'zlagan bo'lsa, ne ajab...
Lvvoda sodir bo'lganlari bizning shaharda davom ettiridi. Qaydlar ham deyarli xuddi shunday yozib borildi:
– Xudoyim-ey, qanday zerikartli, qanday azob bu! Qani endi hammayoq ostin-ustin bo'lsayu, barini yer yutsa!
– Bir kuni kechqurun qabristonga bordim: u yer shunday ajoyib ediki! Mening nazarimda... yo'q, aslo, buni tasvirlashga ojizman. Menga qolsa tun bo'yи qabrular ustida qolib, ularga obdan, tinkam quriguncha so'zlarimni to'kib solgan bo'lardim. Ertasi kuni men o'z rolimni har qachongidan ham yaxshi o'ynadim...

Va yana:

Men kecha kechqurun soat o'narda qabristonga bordim. Hu qonday ta'siri manzara. Oy nuri qabr toshlari va xochlarga o're nurini to'kib tashlagandi. Meni minglab marhumlar o'rabi olundek tuyulardi. O'zimni shunday baxtiyor va yengil his qildimki. Men o'zimni juda yaxshi sezardim...

U Elug'un bilan tanishgandan so'ng bir kuni undan polkda otliq askarlardan birining o'lganini eshitgan va Elagindan uni ibodatxonaga, marhum yotgan yerga olib borishini so'ragan, keyin esa oyindan ibodatxonada va marhumming ko'rinishi unda hayradlanarli taassurot qoldirganini yozgan.

Shuhratga, odamlar e'tiboriga tashnalik bu vaqtga kelib shor'uzablikka aylanib ulgurgandi. Uning o'ziga munosabati yaxshi edi. Umuman olganda, uning chiroyida hech qanday o'siqu xoslik bo'masa-da, baribir, alohida, kam uchraydigan o'siqu maftunkorlik, ayyorona yovuzlik bilan qorishib ketgan imdadililik, ochiqko'ngilik bo'lib, bu qorishiq samimiylikni ihm o'yingga chorlab turardi: portretariga qarang, nigohlariga iloqet qiling, uning o'ziga xosligi, – biroz ochilgan lablar, iftomo xo'mraygan, ma'yus nigoh yoqimli, o'ziga tortuvchi xuddi biror nima va'da qilayotgandek, qandaydir siriilikka torilik bildirayotgandek axloqsizlikning bir ko'rinishi bu. U o'z g'ozalligidan qanday foydalanshni bilardi. U o'z muxlislarini o'zidagi bor go'zalliklar – jarangli ovozi, kulgili va ko'z yoshga

to'la jonli sahma harakatlari bilangina emas, balki ularni o'z badanini namoyish etadigan rollari bilan ham ushlab turardi. U uyida ko'ngilni sust ketkazadigan sharqona va yunon liboslarida yurar va ko'plab mehmonlarini shu liboslarida kutib olardi. Har xil to'pponchalar, xanjar, o'roq va murvat ko'tinishidagi qılıchlar, turli xildagi zaharlar solingan shisha idishlari bo'lgan, uning o'zi aytgamidek, qotililik uchun maxsus mo'ljallangan bu xonaga ularni olib kirardi-da, bu yerda suhbatning jomini krigazidgan doimiy narsa ajal derdi. Bu ham yetmagandek, tez-tez hayotdan voz kechishning turli usullari haqidagi suhbatlari da u devordagi o'qlog'iqliq revolverni olib, tepkisini ko'tarardi, stvoli og'zini ichib turgan viskisiga tirab turib: «Meni hoziroq o'pinglar, bo'limsa o'zimni otib tashlayman?» – deya og'ziga dumaloqlangan zahari kuchli dorini olardi-da, «Agar mehmon shu topning o'zida tiz cho'kib, yalang oyoqlarimdan o'pmasa, zaharni yutib yuboramam», – derdi. U barchasini shunday ishonarli qilib bajarardiki, mehmonning qo'rquvdan ranglari quv oqarib, unga ikki karra maftun bo'sib qaytardi va butun shahar bo'ylab aynan uning barcha hayajonga soladigan jihat-ları haqida mish-mishlarni yoyer edi.

– U, umuman, butunlay boshqqa odamga o'xhardi, – dedi sudda uni uzoq vaqt yaqindan bilgan guvoh Zalesskiy. – Odamni mazaxlash, jig'iga tegish – bular uning doimiy mashg'uloti edi. U siri va yoqimli qarashlari, ma'noli kulish-

lari, ma'sum boladek ma'yus xo'rsinislari bilan odamning qurabini qo'zg'ashga juda ustta edi. U Elagini goh yondiar, goh ustidan sovuq shunday tutardi. U Elagini goh yondiar, goh ustidan sovuq suyu quvardi... U asli o'lishni istarmidi? U hayotning ashhadligi ishqibozi edi, ajaldan esa o'igudek qo'rqurdi. Umuman olgonda, uning fe'hida xushchaqchaqlik, quvnoqlik ko'proq o'tti. Usimda, bir kuni Elagin unga oq ayiq terisini sovg'a qilib junndi. Bu vaqtida u uyida mehmon kutardi. Po'stin uni hunday quvontirdiki, uyidagi mehmonlarni ham unutdi. U po'stini yerga tashladi-da, hech kimga e'tibor qilmay, ustida heshi bilan o'mbaloq oshib, shunday harakatlarni ko'rsatdiki, hengu har qanday akrobat hasad qilgan bo'lardi. Nimasini ay-qul, ayolmisan ayo1 edi.

Uni g'am-g'ussa, umidsizlik holdan toydirganini, o'sha bizga tumanish Zalesskiy gapirib bergandi. O'n yildan beri bilgan shifokor Leroshevskiy u Lvovga ketishidan oldin uni davolaganda unda sil kasali alomatlari topilgandi. Yana oxirgi paytlarda u tiliy tushkunlikdan, xotira pasayishidan, galliyutsinatsiyadan uzoq chekardi. Xullas, shifokor uning aqli rasoligidan ham avotirda edi. O'z ajali bilan o'imasligiga uni asab kasalidan lavolagan shifokori Shumaxerni ham ishontira olgandi. (Ulan Shopepengauerning ikki tomligini olib, uni diqqat bilan o'qib chiqqan, ajablanarsi shuki, keyin ma'lum bo'lishicha, u o'qig'oni ma'nosiga juda yaxshi tushungan). U hammani o'z

ajali bilan o'lmasligiga ishontirar, shifokor Shumaxer uni aynan shu asab buzilishidan davolagandi. Shifokor Nedzejskiy shunday ko'rsatma berdi:

— G'alatiroq ayol edi. Undagi quvnoqlik, noz-karashma ko'proq uyida mehmon kutgandagina ayon bo'lardi: ba'zan birdan jum bo'lib qolardi, so'ng ko'zlar ola-kula bo'lib, boshimi stolga urardi yoki bo'lmasa narsalarni — bordoq bormi, qadah bormi, yerga ota boshlardi... Bunday vaqtida unga qancha tezroq: «Qani, yana», — deya shoshiltirsangiz, u harakatini shuncha tezroq to'xtatardi.

Va, nihoyat aynan mana shu «g'alatiroq va maftunkor ayol» bilan kornet Aleksandr Mixaylovich Elagin uchrashishdi.

X

Bu uchrashuv qanday sodir bo'ldi? Bular orasidagi yaqinlik qanday dunyoga keldi, ularning bir-birlariga bo'lgan tuyg'ulari, munosabatlari qanday edi? Bu haqda Elaginning o'zi ikki marta hikoya qilib bergandi: birinchisi marta qisqa,uzuq-yuluq, qotililikdan bir necha saat o'tgach, — tergovchiga, ikkinchi marta — so'roqda, birinchisi so'roqdan uch hafta o'tgach.

— Ha, — dedi u, — Sosnovskayaning hayotdan ketishiga men aybdorman, lekin uning o'zinining istagi bilan...

Men u bilan yarim yil avval teatr kassasi oldida poruchik Budberg orqali tanishganman. Uni chin yurakdan sevib

qolgandim, u ham mening his-tuyg'ularimga befarq bo'lmas, hijandim. Ba'zan u meni, men uni sevganimdan ham ortiq deb o'ylardim, ba'zan esa buning aksi bo'ldi. Bundan inniquri, u doim muxislari qurshovida bo'lar, ularga noz-heshmalar qilardi, men esa rashk azobidan adoi tamom bo'lib borardim. Nihoyat, bizning bunday fojali ahvolimizga qoldi bu emas, men tushuntirolmaydigan nimadir sabab... Hina bo'lganda ham qasam ichib aytamanki, men uni rashkdan o'dirganim yo'q...

Aytganimdek, u bilan o'tgan yilning sevral oyida teatr oldidagi kassa yonida tanishganman. Men unikiga borgaman, hina oktyabr oyigacha ko'p emas, oyda ikki marta u yerda hina qullanman, u ham bo'isa kunduz kunlari. Oktyabrdan men unga sevgi izhor etdim, u menga uni o'pishtunga ruxsat berdi. Bu unqodan bir hafta o'tgach, u, men va do'stim Voloshin bilan shahar tishqarisidagi restoranga kechki ovqatga bordikda, u yerdan taqat ikkimiz qaytdik, u xursand, mehribon, ozgina kayfi ham bor edi. Men o'shanda o'zimni shunday jur'atsiz his etdimki, hatto uning qo'llini o'pishga ham qo'rqardim. Keyin u mendan hushkimi so'radi va «Misr kechalari»ni o'qib, dedi: birgina huchuni sevgan aylolingizga bag'ishlash uchun hayotingizdan kuchurmidingiz? Men «ha» deb javob berishga shoshganimda, o sifli jilmaydi. Men uni juda sevib qolgandim, bu sevgi falokat hujumimizdan so'ng, unga muhabbatim, nimani his qilayot-

ganimu dardida ado bo'layotganim, otam unga uylanishimga ruxsat bermasligi, nikhsiz men bilan yashashning ilojsizligi, polyaklar jamiyatni uni artist sifatida rus zobiti bilan shunday ochiqdan-ochiq aloqa qilmastigini bir amallab ayta boshladim. U ham o'z qismatidan, tushunib yetolmagan qalbidan shikoyat qildi, mening izhori dilinga, suket ichidagi savolimga, meni sevadimi, yo'qmi, bularga javobdan o'zini olib qochdi, uning qilgan shikoyatlari esa ikkimiz yaqin bo'llishimiz mumkinligiga menda umid uyg'otdi...

Keyin shu yilning yanvaridan boshlab har kuni uniga boradigan bo'idim. Men unga teatrga, uyiga guldasta yuborardim, sovg'alar berardim... Men unga mandolina, oq ayiq terisi, uzuk va olmos ko'zli bilaguzuk sovg'a qildim, yana bos suyagi shaklida yasalgan to'g'nog'ich ham tuhfa etdim. U ajal ramzli narsalarni xush ko'rardi va u menga bir necha bor mendan avyan xuddi shunday fransuz tilida «Quand meme pour toujours!» so'zlar yozilgan to'g'nog'ich olish orzusida ekanligini ayigandi.

Shu yilning yigirma oltinchi martida u meni kechki ovqatga taklif etdi: ovqatdan so'ng u ilk bor o'zi yaponcha xona deb ataydigan yotoqxonasida menga o'zini bag'ishladi. Keyingi uchrashuvlarimiz ham aynan shu xonada o'tadigan bo'ldi, u kechki ovqatdan so'ng xizmatkorni uqlashga jo'natardi. Keyin u menga o'z yotoqxonasining to'g'ri zinaga olib chiqadigan

tashqari eshigi kalitini berib qo'ydi. Yigirma oltinchi mart asutusiga uning istagi bilan ismi sharifimiz, ilk yaqinligimiz sahil o'yib yoziladigan nikoh uzaqiga buyurtma berdi...

Shuhar tashqarisiga qilgan safarlarimizning birida qishloq ihodlatxonasi yonida joylashgan xoch oldida turib, Xudo huzu-rilla uni mangu sevishim, u mening xotinim ekanligi, to o'lguncha ungu sodiq qolishim haqida ont ichdim. U ma'yus va o'ychan jin turardi. So'ng oddiy, lekin, qat'iy turib: «Seni sevaman!», «Quand meme pour toujours!» – dedi.

Bir kuni mayning boshlarida, unikida kechki ovqat paytida u af'yun kukunimi oldi-da: «O'fish qanday oson-a! Bir shundim kifoya, keyin hammasi tamom!» – dedi. So'ng kuni shampan vinosi solingan qadahga sepib, uni og'ziga kuchli sepib yubordim, qadah eshik tepkisiga urilib, chil-chil hor'idi. Ertasi kuni u menga: «Kecha fojia o'miga, kulgili ish bo'ldi» – dedi. Va: «Nima qilsam ekan, jur'atim yetmaydi, sen ham eplomaysan, qo'lingdan kelmaydi... Qanday shar-mandalik!» – deya qo'shib qo'ydi.

Shundan so'ng biz juda kam ko'rishadigan bo'ldik: endi men kechqurunlari boshqa qabul qilo masligini aytdi. Nega endi! Men bundan jimi bo'layozdim, rosa qynaldim. Bundan 1994-yili u, menga sovuq, maxaraomuz munosabatda bo'la beshligandi, o'zini men bilan xuddi kecha tanishgandek tutar

va taynim yo'qligidan meni tahqirlardi... Birdan yana hammasi o'zgarib qoldi. U sayrga chiqish uchun oldimga kelardi, endi u tilyog'lamalik qilishiغا o'gandi, balki bu uning oldida o'zimni sovuqqon turishni o'zlashtira boshlaganimadir. Oxiri u uchrashib turishimiz uchun xuddi o'zi buyurgandek xilvat ko'chalaridan binda joylashgan, mutlaqo ko'zdan nari, qorong'i, alohida uy yollashimi so'radi... Bu uy qanday qilib tartibga keltilrilganini bilasizmi...

Men o'n oltinchi iyun, soat to'rлarda uyiga borib, unga uy olganimni ayтиб, qo'liga bitta kalitni tutqazdim. U jilmayib turib kalitni qaytararkan: «Bu haqd keymiroq gaplashamiz», — dedi. Shu vaqt eshik qo'ng'irog'i chalinib, qandaydir Shklyarevich degan odam keldi. Men kalitni shosha-pisha cho'ntagimga yashirib, allanimalarmi gapira ketdim. Uydan Shklyarevich bilan birga chiqqan ham edik. Sosnovskaya yo'lakdan turib: «Dushanba kuni keling», — deya qichqirdi-da, menga asta: «Erta ga soat to'rda kel», deb shipshigandi, boshim gir aylanib ketdi...

Ertasiga roppa-rosa soat to'rda yetib keldim. Eshikni oshpazayol ochib, Sosnovskaya meni qabul qiloimasligini ayтиб, mak-tub tutqazganida hayratdan yoqa ushladim. U maktubida o'zini noxush his qilayotganini, onasini ko'rgani dala hovliga borishini ayтган, «endi kech» deb yozgandi. Bundan qonim daynab, birinchi uchragan qandolat do'koniga kirdim-da, «endi kech» deganing nimasи, hoziroq tushuntir, deya zaharxanda

muktub yozib, xat tashuvchidan jo'natdim. Xat tashuvchi uni ijdu yo'qligini ayтиб, maktubni qaytarib olib keldi. Shunda men u bilan aloqani butunlay uzishga qaror qildim. Uyga qaytib, uning uchun balki shunchaki hazil-mazax bo'lib tuyulgan, lekin men uchun esa o'zim bilan narigi dumyoga olib ketishim mumkin bo'lgan, hayotimdagи birdan-bir aziz narsa — nikoh uayagini o'zimga qaytarishini so'rab ta'na-dashnomli yangi maktubimni yozdim: shu bilan bari tugadi, menga o'limdan o'zga yo'l yo'q, demoqchi bo'lgandim. Maktub bilan birga uning mena saqlanayotgan suratini, xattarini, yana mayda-chuyda narsa — qo'lqoplar, to'g'noq'ichlar va shlyapasini ham o'ziga qaytarib yubordim. Xizmatkor kelib, uning uyda yo'qligini, xat ilan joy natilgan marsalarни qorovulga qoldrib kelgannи aytdi. Kechqurun sirkka bordim, u yerda menga uncha tanish bo'lmagan o'sha Shklyarevichni uchratib qoldim, zerikib qolmaslik uchun u bilan birga shampan vinosi ichdik. Birdan Shklyarevich: «Menga qarang, ko'rib turibman, azob chek yapsiz, buning sababini ham bilaman. Ishonavering, u hingga arzimaydi. Buni hammamiz boshimidan o'tkazganimiz, u burnimizdan ip o'tkazib olgandi...» — deb qoldi. Qilich olib, hohini qoq ikkiga bo'lgim keldi-yu, ammo-lekin o'zimdan o'tganni o'zim bilardim, bunday qilish u yoqda tursin, hatto alibuttimizni ham bo'olmasdim, undan aslida ichimda xursandim, chunki handard topilganidan quvonardim, menga nima

bo'lganini bilmadim-u, lekin men unga hech narsa demadim, Sosnovskaya to'g'risida-ku, og'iz ham ochmadim, lekin, uni Starogradskiy ko'chasiga olib borib, uchrashuvimiz uchun o'zim yoqtirib tanlagan uyni ko'rsatdim. Bu uyning kastridan ahmoq bo'lganimdan o'lgedek uyalardim, ham alam qilardi.

U yerdan aravakashni Nevyarovskiy restorani tomon shoshirdim: yomg'ir shivalar, arava uchib borardi, meni yomg'ir ham, qarshindagi meni yondirib kul qilayotgan alanga ham azobardi, undan qo'rqardim. Tunji birlarda men Shklyarevich bilan restoranдан qaytib, endi yechinib turgandim, xizmatkor xat tutqazdi: u meni ko'chada kutardi, tezda tushishimni so'ragandi. U xizmatchi ayol bilan birga kelib, mendan xavotirlanganini, shuning uchun ayolni o'zi bilan olib kelganini aytди. Men ayolni uyiga kuzatib qo'yishni buyurib, o'zim soytunga o'tirdim, biz Starogradskiy tomon jo'nadik. Har doimgidek uning hozirgi xotirjam holati menga ham ko'chdi. Yetib kelganimizda, ancha o'ziga kelib qoldi, uy unga juda yoqdi. Men uni qo'lidan ushlab, ta'na-dashnomalarimni kechirishimi, achchiq ustida berib yuborgan portretini va boshqa buyumlarni qaytarishini so'radim. Biz tez-tez janjallashib turardik, bunda men o'zimni aybdor his etardim va oxirida undan uzr so'rardim. Yarim kechasi soat uchda uni uyiga olib borib qo'yidim. Yo'l-yo'lakay suhbатимиз yana janjalga aylandi. U to'g'riga qarab o'tirardi, yuzi menga ko'rimmasdi, faqat atir isiyu, sovuqdan-sovuq zahar ovozini his etar edim: «Sen erkak emassan, — derdi u, — senda

hatvor degan narsaning o'zi yo'q, men xohlaganimda jig'ingga tegib, yana yupatishim mumkin. Agar men erkak bo'lganimda, bunday ayolini burda-burda qilgan bo'lardim!» Shunda men qelqinib: «Unday bo'lsa uzunginzni qaytarib oling!» — dedim-di, uzukni majburlab qo'lliga taqib qo'ydim. U menga o'girildi: xipolat bo'gandek kulib: «Ertaga kel», — dedi. Men endi nima bo'lganda ham bormasligimni aytдim. U qo'rqa-pisa, uyalib: «Yo'q, sen Starogradskiyga kelasan, kelasan...» dedi. Ilo'ng qu'tiy qilib: «Yo'q, men kelishingni o'tinib so'rayman, men yaqinda chet elga ketaman, men seni so'nggi bor ko'rib, unga muhim gapni aytishim kerak», — deb qo'shib qo'ydi. Va yana yig'lab: «Meni hayron qoldirgani, seni sevaman, sensiz yasholmayman deb o'zingni otishga ham tayorsanu, lekin no'nggi bor ko'ring kelmayapti!» — deya yana qo'shib qo'ydi. Ikhunda men o'zimni qo'lga olib, ertaga qay paytda bo'sh hujjohim kabarni yetkazishimni aydim. Biz yomg'irda turib, uning yo'lagi oldida ajralisharkamiz, yuragim unga bo'igan saygidan va rahm-shafqatdan yorilay derdi. Uyga qaytgach, menikida bemaqol uxlab yotgan Shklyarevichni ko'rib hayron qoldim va undan jirkanib ketdim...

Dushanba, o'n sakkizinchи iyun kuni ertalab unga soat 11:15 ikkidan keyin bo'shligimni aytib xat yubordim. U: «Huroqradiskiда, soat olitda», — deb javob yubordi.

Sosnovskayaning oqsochi Antonina Kovanko, oshpazi Vanda Linevich o'n oltinchida, shanba kuni Sosnovskaya sochini jingalak qilaman, deb spirit lampasini yoqa turib, parishonlikda gugurtmi tungi ko'ylagining etagiga tashlab yuborgan, ko'yak birdan yonib, Sosnovskaya dahshatdan qichqirib, egnini yechib otgan va qo'rquvdan ahvoli yomonalashib, umga doktor charishganimi ayrib ko'rsatma berishgan. So'ng takrorlab:

— Bu yaqinlashib kelayotgan falokatdan dark — deyavering. U baxtiqaro bo'lsa-da, yoqimtoy ayol edi! Uning bolalarcha vahimasi va tungi ko'yikning yonib ketgani menga favqulodda ta'sir qiladi, tashvishlantiradi. Bu arzimas narsa u o'lgandan buyon odamlar orasida gap-so'zga sabab bo'igan, sudda qulqoni qomatga ketirgan, bir-birini inkor etuvchi dallari bilan uzuqligicha qolib ketgan o'sha jumboqli voqeaga aloqasi bordek, uni yoritib berishi mumkindek, nazarmida. So'nggi kunlarigacha mish-mishdan boshi chiqmagan, birgina tilagi uni tushunish, ko'nglini zabt etishlarini istagan, qiziqishlari doim namoyon bo'lib turgan, deyarli hech bir kimsa, jumladan, Elagin ham tu-shunmagan, his etolmagan o'sha haqiqiy Sosnovskayaning menda jonli sezgilar uyg'otishi hayron qolarli hodisa edi.

Yana qaytaraman: inson mulohazasi hayratlanari daramada ojiz, notavon: har doim bo'lganidek, mana hozir yana

bo'idi, odamlar, hatto ozgina bo'lsa-da, ro'y berayotgan fuddalarlarning muhimligini tushunib yetishlari kerak bo'lib qolsa, kifib ko'rnaslikka, eshitib eshitmaslikka olishlari ma'lum gap. Ulonga Elaginning, Sosnovskayaning, umuman, ular o'rtasida bu lib o'tgan, aniq-ravshan ko'rini turgan munosabati shu farajuda haqiqatga xilof ravishda, atayin, noto'g'ri talqin qilishi kerakni? Xuddi qabiblikdan boshqasiga miq etmaslikka keshib olishgandek: bittasi aysh-ishratga berilgan, aroqxo'r, rishchi bir gusar bo'lsa, yana biri o'zining axloqsiz, palaiutish hayoti bilan o'zi ham chalkashib yotgan bir artist ayol bo'lib...

Alovida xonalar, vino, sohishlar, urish-janjal, — mana, u buqdu nimalarni gapirishadi. — Qilichning jarangi undagi olyi tuyg'ulurni so'ndirdi...

Shurob, mana oliv tuyg'u! Elagindek odam uchun sharob degani nima edi o'zi? «Ba'zan azobni his etaman, ba'zan esa jasobi va baland turadigan narsalarga intilaman, umuman, illi ursin, yuragini bekorga zirqiratish nimaga kerak menga! O'yerdudir qulog'imga challingan, lekin, hamon yo'q, ushlab bo'muydigan bir ohangni tutib olgin keladi. Kayfda naftasni engil, bemalol olasan, o'sha tutqich bermas kuy ham o'shanda aniq vu yuqindan eshtila boshaydi. Musiqa, sevgi, kayf — bu-lar seni yo'ldan uradi, ular o'tkir va ortiecha, dunyonni, hayotni illi etishni haddan tashqari murakkablashtirib yuboradi.

— Ayol Elaginni sevmasdi, — deyishardi u haqda. — U Elagindan qo'rqardi, xolos, chunki Elagin o'zimni o'diraman deb unga doim tahdid qilib kelardi, — ya'ni u nafaqat o'z o'limi bilan Sosnovskayaning yuragini og'ritib kelgan, uni katta mojaroning asosiy qahramoniga aylantirmoqchi bo'lgan. Dalil-lar shundan guvoohliz beradiki, Sosnovskaya hatto unga nisbatan nafrat tuyg' usini his etgan. Sosnovskaya o'zi uniki bo'lganmid? Nahotki, bu narsa ishni o'zgartira olsa? U o'zi kimlarga tegishli bo'lmagan! Hatto Elagin Sosnovskaya sevib ijro etgan ishqiy komedyani fojiga aylantirishiga sal qolgan...

Yana:

— Sosnovskaya o'sha kundan-kun avj olib borayotgan dahan-shatli va tiyiqsiz rashkdan o'lgudek qo'rqardi. Bir marotaba Sosnovskayanikida artist Strakun mehmon bo'lgandi. Elagin avval-boshda tinchgina o'tirdi, faqat rashkdan yuzi oqargandi, xolos. So'ng bexos otilib o'rnidan turdi-da, qo'shni xonaga chiqdi. Sosnovskaya ham izma-iz uning ortidan chiqib, qo'llidagi revolverni ko'rib qoldi-da, o'ziga, Sosnovskayaga rahm qilishini so'rab, tiz cho'kib yalindi. Bunday o'yinlar, deyarli tez-tez bo'lib turgan. Sosnovskaya, niroyat, Elagindan butunlay qutulish maqsadida chet elga ketishiga qaror qilgan va u o'limi oldidan bu safarga tayyor bo'lgan — buni anglash nahotki qiyin bo'lsa? Elagin Starograd ko'chasidagi, Sosnovskaya chet elga ketishini bahona qilib, safaroldi uni qabul qila olmaydigan o'sha uy-

ning kalitini olib kelgandi. U kalitni olmadi, Elagin kalitni mujurlab tiqishirmoqchi bo'ldi. Sosnovskaya: Endi kech, uni olishdan hech qanday ma'no yo'q, men jo'nab ketyapman, deya mu'lum qildi. Elagin unga burab-burab shunday xat yozdidi, Sosnovskaya maktubni olaroq, uni murda holda topishidan qo'rqib, yarim kechasi bo'lishiqa qaramay, oyog'ini qo'liga olib unkiga yugurdi.

Mayli, shundoq ham deylik (biroq bu mulohazalar lug'unning tavba-tazarrulariga mutlaqo qarshi), harholda, unlu uchun Elagin Sosnovskayani bunday «avahimali», «had-dan ziyod» rashk qilib, tinch hayotini fojiga aylantirmoqchi bo'lgan ekan? Unga bu nima uchun kerak bo'ldi ekan? Nega endi Elagin rashkdan g'azabi zo'raygan bir paytda uni shunday otib tashlamadi ekan? Nima sababdan «qotil va qurban o'rusiida kurash bo'lmagan? Keyin: «Sosnovskaya goho undan jikanardi ham»... U begonalalar oldida Elaginga har xil haqoratlari uqoblar qo'yib, uni xorlar, hatto bir gal uni maymoq kuchuk bolusligi deb ham chaqirgandi. Ey, Xudoyim, Sosnovskaya shunisi bilan Sosnovskaya-da... Sosnovskaya yana boshqa kimdir indratlanishi haqida Lvov xottilarida shunday yozadi: «U meni holli hum sevadi! Men-chi? Men nimani his qilayapman? Sevgini ham, nafratni ham!» U o'zi Elaginni haqoratlagamidir? Ha, hit marta urishib qolishgandi, ana o'shandan keyin bu hol ular omissida tez-tez takrorlanib turardi, — Sosnovskaya oqsochini

chaqinib, nikoh uzugini yerga uloqtirdi-da, turib baqira ketdi:
«Mana bu matohni o'zingga ola qoll!» Bundan avvalroq nima
ro'y bergandi? Bundan avvalroq Sosnovskaya oshxonaga yu-
gurib borib:

— Men seni chaqiraman-da, mana bu nikoh uzugini yerga
uloqtiraman va uni o'zingga olib qo'yishingni aytaman. Esingda
bo'lsin — bu hazil, xolos. Keyin uni o'zinga yana qaytarasan,
chunki shu uzuk tufayligina men u bilanman, o'sha esi past bi-
qimmati... — dedi.

Sosnovskayani bekorga «yengiltabi» deyishmasdi, kato-
liklar cherkovi ham uni «beadab, buzuq ayol» sifatida nasroniy
urf-odatlari bo'yicha dafn etishni rad etgandi. U butkul erkin
sevgini o'ziga kasb qilib olgan va shunga xizmat qiluvchi ayollar
toifasidan edi. Bu yana qanaqa toifa bo'ldi ekan? Bunday mijozli
jins vakillari yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Qarangki, nimalar
sodir bo'lmaydi: o'sha o'ta murakkab, o'ziga maftun etuvchi
nusxa erkaklar orasida (u yoki bu darajada) tajovuzkorlar ham
uchraydi. Mohiyatan, bundaylar nafaqat ayollar bilan bo'lgan
munosabatda, balki, ular o'z dunyoqarashlariga ko'ra barcha
narsalarga ta'sirchanligi o'tkir bo'lib, butun Jon-tanini berib
bo'lsa-da, aynan shunday ayollar toifasiga intiladi va shov-
shuvli sevgi fojalari qahramoniga aylanadi-qo'yadi. Nimaga?
Bu didning oqsoqligimi yoki yo'ldan ozganlikning sharofatimi,

bulki, bunday ayollarga erishish osonligidandir? Albatta, yo'q,
ning karra yo'q. Shuning uchun ham yo'qli, bunday erkaklar
Binnovskayadek ayollar toifasi bilan yaqin aloqada bo'lish qan-
ehalik azobigiyu ba'zan rostdanam vahimali, hatto halokatli
yukun topishini oldindan sezadilar va aniq ko'ra oladilar. Buni
kiri lib, bilib tursalar-da, baribir, ko'proq, aynan, ana o'shanday
ishtiyorlarga talpinib, o'zlariga balo-qazoni sotib oladilar. U, al-
batta, o'lumi oldidan xat yozayotganda, so'nggi dami kelganiga
o'g'li ishontirmoqchi bo'lib, kulgili bir sahnada rol ijro etgandi.
Aldan, Kundalilikdag'i yozuvilar oz bo'lsa-da, buning aksi ekaniga
lihitntrolmaydi, — u g'oyat siyqasi chiqqan, sodda bitilgan,
qilib ziyorati to'g'risida hech qanday so'z yo'q...

Kundalilikdag'i soddalikni, yasamalikni, qabr ziyoratini hech
kim inkor etmaydi, xuddi u Mariya Vecherova va Mariya
Bishkirksevaga o'xshashligiga ishora qilishni yaxshi ko'rgandek.
Hamma uchun u ayman o'sha xildagi kundalikni tanladi ekan, bal-
ki u shu toifa ayollarga o'xshashni xohlagandir? Unda go'zallik
ham, yoshlik ham, shuhrat, pul, yuzlab muxlislar — hammasi
hur edi-ku. U bulardan ehtiros va zavq bilan foydalanardi.
Uning hayoti muttasil azobga aylanib borardi, har doim
hammu odamlar va barcha narsa u kutgandagidek bo'lib
qilijavermagandan keyin ko'ngilga urgan bu olamni tashlab
ketish ishtiyobi unga tinchlik bermay qo'ygandi. Bu nimaning
keridon? Bu uning boshiga bigan balodan. Nima uchun aynan

shu baloni boshiga sotib oldi, boshqa narsani emas? Bularning barchasi, ularning aytishlaricha, o'zini san'atga fido qilgan bunday ayollar uchun oddiy holmi? Nimaga bu shunchalik jo'n? Nimaga?

XII

Dam olish kuni ertalab, soat sakkizlarda uning yotoqxonasidagi stol qo'ng'iroqchasi jiringladi: u uyg'ondi-da, oqsochini odatdagidan ertaroq chaqirdi. Oqsoch xotin barkashda suyuq shokolad solingen finjon olib kirdi-da, deraza pardasini surib qo'ydi. U o'rinda har doimigidek xo'mraygancha labarini yarim ochib, o'ychan va parishonxotir uni kuzata turib:

— Bilasanmi Tonya, kecha men doktor ketganidan keyin darrov uqlab qoldim. Voi, Xudoymey, shunaqangi qo'rqib ketdim! Elagin kelishi bilanoq o'zimni qushday yengil va yaxshi his qildim. Yarim kechasi uyg'onib, o'mimda tiz cho'kib, bir saat Xudoga iltijo qildim... o'zing oylab ko'r, butunlay yonib ketganindan nima bo'lardi! Ko'zlarimga oq tushgan, lablarim shishib ketgan bo'lardi. Menga qarab bo'lmassi... Aftangorim paxta bilan qoplanardi-qolardi.

U shokoladga qo'l ham tekkizmay, nimalarni uruz xayol surib o'tirdi. Keyin shokoladni ichdi-da, vannada cho'mildi va cho'milish xalatida, sochlari yoyilgancha o'zining ixchamgina

Yozuv stolida motam romiga solingen qog'ozga bir ikki yo'l yordi: u o'zi uchun bunday qog'ozga ancha avval buyurtma berib qo'ygandi. Kiyinib, nomushta qildi-da, jo'nab ketdi: u dala hovlida, onasimikida bo'ldi va uning doimiy ishongan odami aktyor Strakun bilan kech soat o'n ikkilarda qaytdi.

Ikki xursand qaytishdi, — deya hikoya qildi oqsoch kutin. — Ularni yo'lakda kutib oldim-da, Sosnovskayani yonimiga chiqqirib, Elagin u yo'qligida berib yuborgan narsani va xatni unja berdim. Narsalar borasida: «Tezda bularni yashir, Strakun hujdu rangi oqarib ketdi, o'zini yo'qotgancha, Strakunning hujmonlar xonasida o'tirganiga ham qaramay»: «Xudo haqqi, hez foytun keltir!» — deb baqirdi. Men foytun olib kelishga heldim. Uni olib kelganimda u yo'lakda tayyor turardi. Biz bor uchuniz bilan chopdik, u bechora esa yo'l-yo'lakay cho'qinib: Uy Xudoym, ishqiliib tirik bo'lsin-dav», — deya takrorlardi noqul.

U dushamba ertalabdan cho'milish kiyimida daryoga ketdi. Yana kuni unikida Strakun bilan ingliz ayoli tushlik qilishdi (onkiiga har kuni inglizchadan dars bergani kelardi-yu, deyarli qo'sha h nima o'tmasdi). Tushdan keyin ingliz ayoli ketdi. Strakun ha yana yarim soatlар turib, sigaret chekdi, so'ng oyog'iga yapon iuffini ilgancha divanda yotganbekaning tizzasiga boshini qo'yib yordi. Oxiri Strakun ketdi, ketish oldidan Sosnovskaya undan abugun kech soat o'nda kelishini o'tindi.

— Bu juda tez emasmi? — kulib dedi Strakun yo'lakda assini qidira turib.

— Voy, yo'q, iltimos! — dedi u. — Bordi-yu, kelganiningda men bo'imasam, xafa bo'ima, xo'pmi...

Keyin u kaminda qandaydir xat va qog'ozlarni uzoq yoqdi.

So'ng oqsoch xotin bilan hazillashib o'tirib, xirgoyi qilishdi:
— O'zim yonmaganinga yarasha, endi hammasiga o't qo'yaman! Bundan yonib ketganim ming marta yaxshi edi. Yonsam yonib, bir yo'lal kulga aylanay...

Keyin yana dedi:
— Vandaga ayt, kechki ovqatni soat o'nga tayyorlab qo'yisin. Hozir esa men keyyapman...

U soat olti larda qog'ozga o'rالgan revolverga o'xshash nar-sani o'zi bilan olib chiqib ketdi!

U Starogradskiya ketdi, yo'lida shanba kungi voqeadean so'ng etagi yonib ketgan tungi ko'ylagining etagini kestirish uchun tikuvcchi Leshinskynning uyi tomonga buridi, tikuvcchi ning aytishiga qaraganda, o'sha kuni u quvnoq va yoqimtoygina ko'ringan. Sosnovskaya tungi ko'ylagining u yer-bu yerini ko'zdan kechirgan-da, qog'ozga o'ragan va uyidan avvalroq olib chiqqan bo'g'chasiga joylab, ustaxonada chevar qizlar bilan uzoq suhablashib o'tirgan va: «Ey, Xudoyim, men endi ketishim kerak, kech qoldim, mening farishtalarim!» — deya qayta-qayta takrorlagan, oxiri bir xo'rsinib, o'midan dast tur-ganda, quvonch bilan:

Xayr, pani Leshinskaya, xayr, singlijonlarim, fairshtalarim, men bilan gurunglashib o'tirganining uchun rahmat sizlarga, apollar davrasida o'tirish qanday maroqli, hadeb erkaklar bilan qilib qilishib ham jonga tegar ekan, degan.

U yana bir marta ostonada turib, kulib, boshini irg'aganda, thiqib ketgan.

Nega u revolverni o'zi bilan olib oldi?

Revolver o'zi Elaginniki edi. U, Elagin o'zini otib qo'yishidan qo'qib, revolverni o'zida saqlardi. «U bir necha kundan so'ng holt elga ketishi munosabati bilan revolverni o'z egasiga qayta-tilmi niyat qilgandi», — dedi oqlovchi va qo'shib qo'ydi:

Shunday qilib, u mash'um, lekin uning uchun qasddan uytilirilmagan uchrashuvga jo'nadi. U soat yettiida Starograd ko'chusidagi 14-uyuning 1-xonadoniga yetib bordi, — mana, bu wuning eshibi ham yopildi, eshik faqt 19-iyun kuni ertalab qo'yta ochildi, xolos. Tunda u yerda nimalar sodir bo'ldi? Buni filqindan boshqa hech kim bizga hikoya qilib berolmaydi. Uni yuni bir marta eshitib ko'raylik-chi...

XIII

Prokuror bizning xotiramizda yana bir bor jonlantirishni bo'lim topgan, o'sha ayblov bayonnomasi sahifasi bo'lmish va shu bilan o'z niyoysiga yetgan Elaginning hikoyasini sud zalimi wilangan odamlarning barchasi chuqur sukut bilan tingladi:

— Men o'n sakkizinchı iyun, dushanba kuni ertalab unga soat o'n ikkidan keyin bo'sh ekanligimni bildirib, maktub jo'nattdim.

U: «Starogradskiyda soat oltida», — deya javob yubordi.

Men o'n besh daqiqasi kam oltida o'sha yerda edim, o'zim bilan yengil ovqat, ikki shisha shampan vinosi, ikki shisha porter, bordoqcha va bir shisha atir olib bordim. Uni uzoq kutishimga to'g'ri keldi: u soat yettilarda yetib keldi...

Uyga krib, meni parishon holda o'pdı, so'ng keyingi xonaga o'tib, o'zi bilan qo'lida olib kelgan o'rog'iň narsani divanga tashladı. — «Chiqib tur, — dedi u fransuzchatalab, — men yechinishim kerak». Men chiqib ketdim. Yana allamahal bir o'zim yolg'iz o'tirdim. Men mutlaqo hushyor, lekin juda dilgir edim, munosabatimiz niroyalab borayotganimi g'ira-shira his etib turardim... Ustiga-ustak muhit ham g'altairoq bo'lib borardi: xuddi tundagidek, men olov yonida o'tirardim, holbuki, bu qorong'i xonaming gung devorlaridan tashqarida hali yorug'va ajoyib yoz kuni hum surayotganini sezib, bilib turardim... U meni uzoq vaqt yoniga chaqirmadi, men ham uning nima bilan band ekanimi bilolmadim. Eshik orqasida tiq etgan tovush eshitilmasdi. Oxiri: «Endi kiraverishing mumkin...», — deb bargirdi u.

U divanda, bitta tungi ko'ylagining o'zida, paypoqsiz, tuflisiz yalang'och och oyoqlarini ko'ssatib, xo'mraygancha shiftdagi fonusga jim tikilib yotardi. O'zi bilan olib kelgan bo'xcha

o'libilib, unda men o'z revolverimni ko'rdim-da: «Buni nega olib yuribsan?» — deb so'radim. U birozdan so'ng: «o'zim, shunday... Asit, men jo'nab ketayapman... Yaxshisi, sen buni uyingda pinoq, shu yerda saqla...» — deb javob qaytardi. Xayolimdan: «Yo'q, bu bekorga emas!» — degan dahshatl bir fitr o'tdi.

Bundan keyingi suhabatimiz uzoq, lekin zo'rma-zo'raki, sowuqqina o'tdi. Ichinda o'lguaday qo'rqb turardim, — miyamga bitor aqlli gap kelib qolarmikin, deb kutardim, — mana, hozir, fitrimi bir yerga jamlayman-da, oxiri eng muhim qarorimni o'ylaman deb intiq edim, — chunki men bu uch rashuv biz uc-hum so'nggisi ekanimi yoki harholda bizni uzoq muddati aylliq kutayotganimi anglab tursam-da, hech narsa qilomadim, o'zmoni butunlay kuchsiz va ojiz his etardim. U: «Chekking kulu, chekaver...» — dedi. — «Senga yoqmaydi-ku!» — dedim men. — «Endi menga baribir, — dedi u. — Menga shampan qutonidan quy...» Bundan men shunday xursand bo'ldimki, zero bi men uchun najot edi. Biz bir necha daqiqqa ichida bir shisha shampan vinosini bo'shatdik, men uning yoniga o'turdim-da, qo'llariidan o'pa turib, bu ayrliliqni ko'tara olmasligimni aytdim. U sochlarimni to'zg'ita turib, parishon holda: «Ha, ha... Nothing bo'lomasligim, bu qanday baxtsizlik... Barchasi, bari ligua qarshi, yolg'iz Yaratganning o'zigina bizga xayrixoh... Men sening qatbingni, tasavwuringni sevaman...» Bu so'nggi arzulari bilan nima demoqchi bo'ldi, bilmadim. Men yuqoriga

– soyabon tepasiga boqib: «Qara, sen bilan bu yerda xuddi sag'anada turgandekmiz. Qanday sukunat!» – dedim. U bunga ma'yus jilmayib qo'ysi...

Soat o'nlargacha borib u ochiqqanini aytdi. Biz oldingi xonaga o'tdik. U juda kam ovqat yedi, men ham, biz ko'proq ichdik. Birdan ko'zi men olib kelgan yengil ovqatga tushdi-yu, «tentak, yana nimalarни ko'tarib yuribsan! Boshqa bunday qiplina», – dedi. «Bu «bosha» deganining qachon bo'larkin?» – dedim. U bir g'alati qarash qildi-da, so'ng boshini egib, qovog'i ostidan ko'zlarini olaytirib qaradi. «Iso, Maryam, – deb pichirardi u, – biz endi nima qilamiz? Men telbalarcha seni xohlayapman! Yura qol...»

Birmuncha muddatdan so'ng men soatinga qaradim, soat ikki bo'lgandi. «O'-ho', kech bo'lib qolibdi, – dedi u. – Hoziroq uyga ketishim kerak». Ammo u joyidan ham qo'zg'almay, qo'shib qo'ydi: «Bilasanni, bu yerdan juftakni qancha tez rostasak, shuncha yaxshi, lekin joyindan qo'zg'aloymayapman. Xuddi bu yerdan chiqib ketolmaydigandek his etyapman o'zimni. Sen Xudoning xohishi bilan mening yozmishim, qismatimsan...». Hattoki shuni ham tushunishni istamayapman. Ehtimol, u, keyin yozib qoldirgan: «o'layapman, lekin o'z xohishim bilan emas», – degan so'zar bilan bog'iqliq bitor narsa demoqchi bo'lgandir. Bu so'zlar bilan u mening oldimda o'zini kuchsiz, himoyasiz his etgan deb o'ylaysizmi? Memimcha, u boshqa narsani: bizning tolesiz bu uchrashuvimiz – taqdir,

Xudoning istagi, u o'z ixtiyori bilan emas, Xudoning xohishi bilan o'layapman, degan so'zlarini aytmoqchi bo'lgan. Vaholanki, mun o'shunda bu so'zlarge ko'pam e'tibor bermaganman, uning #alatiroqligiga ko'nikib ham qolgandim. Keyin u dabdurustidan: «Qalaming bormi?» – deya so'rab qoldi. Men yana hayron hu'lum: unga qalam nega kerak bo'lib qoldi ekan? Yon dastlagi qalamni olib berishga shoshildim. U tashrif qog'ozimni ham so'radi. Unqa nimalarnidir yozayotganda: «Menga qara, tashrif qog'ozga xat yozish noqulay-ku», – dedim. «Yo'q, bu shunchuki o'zim uchun», – deb javob berdi. – Men o'ylab, ham uslab olaman, meni yolg'iz qoldir». Yozilaverib to'ldirib tash-jungan tashrif qog'ozini ko'kragini qo'ydi-da, ko'zini yundi. Hemmayoq shunday tinchidi-qoldiki, bundan esing og'ib qolishi huch gap emasdi...

Shu alpozda yarim saatdan ko'proq vaqt o'tdi. U birdan ko'zini ochdi-da: «Yodimdan chiqayozibdi, men uzugingni qiyarib bergani kelgandim. Kecha o'zing hammasiga nuqta qiyomoqchi eding-ku», – dedi sovuqqina qilib. U qaddini biroz ko'furdida, uzukni devorga qarab uloqtirdi. «Nahotki, sen meni seviasun? – deyarli qichqirib dedi u. – Tushunolmayman, qanday qilib sen meni bu yorug' olamda yashashimga yo'll qo'yib turaysun! Men ayloman, menda subut yo'q. Men o'limdan qo'remyaman – azob chekishdan qo'rqaman xolos, lekin sen hitin o'q bilan meni, so'ng o'zingni marhumga aylantirishing imunkin. Menga shu yerda ayanchli ahvolimizing dahshatlari

bir haqiqati ayon bo'lgandi, endi qanday yakun topmasin, buni nima bilandir hal etish vaqt kelgandi. Lekin uni o'dirish – yo'q, aslo, bu ish mening qo'llimdan kelmashagini sezib turardim: men his etayotigan narsa boshqa edi: men uchun hal qiluvchi lahzalar yetib kelgandi. Men revolverni oldim-da, tepkisini ko'tardim. U hayqirib: «Nima? Faqat o'zingni otasammi? – deya irg'ib o'rnidan turdi. – Yo'q, Iso nomi bilan qasam ichamanki, bunday qilmaysan!» – dedi va revolverni qo'llimdan yulqib oldi.

Yana o'sha, yurakni o'rtovchi jumjutik. Men cho'nqayib o'tirardim, u esa qimir etmay yotardi. Bir vaqt u o'ziga-o'zi polyakkhalab nimanidir gapirdi-da, keyin: «Uzugimni bu yoqqa ber», – dedi menga. Men unga uzukni uzatdim. «O'zingnikini ham!» – dedi u. Men bu buyruqni ham bajarishga shoshildim. U o'zinikini qo'liga taqdida, menga ham uzugimni taqishimni buyurdi, keyin gapira ketdi: «Men seni hamisha sevganman, hozir ham sevaman. Seni aqldan ozzirdim, azob berdim, nima qilay, fe'llim shunaqa ekan, qismatimiz shunday bo'ldi. Menga yubkamni uzatib yubor-da, qora vino olib kel...» Unga yubkasini uzatdim-da, vino olib kelishga ketdim, qaytganimda yonida zahar solingan shisha idishni ko'rdim. «Menga qara, – dedi u qat'iy ohangda – o'yin-kulgilar shu bilan niroyasiga yetdi. Sen mensiz yashay olasammi?» Men, yo'q deb javob berdim. – «Ha» – dedi u, – men qalbingni, fikrlaringni butunicha o'zimni qilib olganman. Endi o'zingni o'dirish uchun ikkilanmay sanmi? Agar shunday qilolsang, meni ham o'zing bilan olib

ket. Mening ham sensiz yashashimdan ma'no qolmaydi. Meni o'ldinganidan so'ng, o'layotganidan da va niroyat men endi imabud, butunlay seniki ekanimni bilib o'lasan. Endi men senga o'z lab hayotimni so'zlab beraman...» U biroz tin olib, o'ziga keldi, shoshmasdan, bolaligidan boshlab butun hayotini menga hikoya qilib berdi...

XIV

Men hatto qaysi birimiz yozishni awvalroq boshlaganimizni ham yaxshi eslayman... o'shanda qalamni ikkiغا bo'lgandim. Biye yozishni boshladik va hammavaqt jum o'tirib yozdik. Yangishusam, men eng avval otamga xat yozdim... Siz, nima uchun men otam «mening baxtli bo'ilishimni istamayapti» deb ulorga qilgan ta'namni, mening esa biror marta bo'lsa-da, nikohimiza otamning roziligini olishga harrakat qilmaganimni bilmogchimisiz? Qaydam... Baribir ular bu nikohga rozi bo'lmasdilar... Men keyin polkdagi do'starimga xat yozib, ular bilan vidolashganman. Yana kimga deysizmi? Ha, tuzukroq qilib ko'mishlarini ayrib, polk qo'mondoniga xat yozgandim. Domuk, men o'zimni-o'zim o'dirishi minga ishonardim – siz shunmum? Bu yog'ini bilmayman...

U, esimda, shoshmasdan, to'xtab-to'xtab, har tomonini o'yub yozardi; so'zni yozardi-da, xo'mrayib devorga qarab

qo'yardi... Xatlarni uning o'zi yirtib tashlardi, men emas. Yozardi-da, yirtardi, to'g'ri kelgan tomonga itqitardi... Nazarimda, hatto qabr ham o'sha so'nggi soatlarda, o'sha jumjithikda, mana shu sonus ostida yozgan bekorchi maktublarimchilik qo'rinchli bo'lmasa kerak. Men o'sha kecha u menga nimani buyurgan bo'lsa, hammasiga so'zsiz itoat etganman.

U to'satdan: «Etar, bo'ladigan ishni tezroq bo'lgani yaxshi. Menga vinodan uzat, meni duo qil, ey Xudol» – deb qoldi.

Bordoqa vino quyib, unga uzatdim, u qaddini biroz ko'tarib, vinoga bir chimidim kukumni tashladi. U vinoning yarmidan ko'pini ichib, qolganini ichishimi so'radi. Men ichib yubordim. U toqatsizlana boshladi-da, qo'lindan mahkam ushlab: «Endi meni o'idir, o'idir meni! Sevgimiz haqqi, o'idir meni», – deya yalina boshladi.

Buni qanday eplashim mumkin edi? Nazarimda, uni chap qo'sim bilan quchdim, – ha, albatta, chapi bilan – va lablariga yopishdim. U: «Alvido, alvido... Yo'q, yoki bo'lmasa: Assalom, endi bunisi to abadga... Buyerlarda bitor narsaga erisholmadim, demak, endi bari u yerda, arshi a'loda...». Uni mahkam qisib turardim, lekin barmog'im revolverni bosinga shay turardi... Esimda, a 'zoi badanimni qaltiliq bosganini his etardim. U polyakchhalab: «Aleksandr, sevgilim mening» – deyishga ulgurdi, xolos.

Bu soat nechada sodir bo'ldi deysizmi? Uchlarda, shekilli. Undan keyin men yana ikki soat nima ish qildim? Lekin men

ing birdan keyin Lixarev tomonga jo'naganman. Qolgan vaqtida ema uning yonida bo'lganman va o'zim bilmagan holda narislami turtibga sola boshlaganman...

Men nega o'zimni otmadim? Men bu haqda o'ylamasdim. Uning jonsiz jasadini ko'rdim-u, barchasini unutdim. Men undan ko'z uzolmasdim. Keyin hushimni yo'qotgan holda uni va sonni turtibga keltira boshladim... Men sendan keyin o'zimni o'ldiramani, deb bergan va'damni buzishim mumkin emasdi, lekin loqaydlik meni butunlay domiga tortigan edi... Men hozir qo'sh hayotimga ham xuddi shunday loqaydlik bilan qarayman. Anno meni jallod deb o'yashlariga hech chid olmayman. Yo'q, yo'q! Balki men qonun oldida, Xudo huzurida gunohkordirman, lekin zinhor uning oldida emas!



MUSTAFO AL-MANFALUTIY

Musafiro al-Manfalutiy (1876–1924) – mashhur arab ma rifatparvar adabi. U Qohiradagi al-Azhar universitetida tahlisi olgan. Adibning «Mulohazzalar» sarlavhali maqolalar to'plami 1907-yil «Al-Muayyad» gazetasida chop etilganidan so'ng u arab adabiyoti olamida tanila boshlagan.

JAZZ

O'tgan yoz, kunlарининг бирда туш ко'рдим, унда мен го'yo улкан, мутлақо нотамиш бир шахарга тушб qolбман. Shahar ko'chalarida yurib, унда son-sanoqsiz, bir-biriga o'xshamaydиган, turli tillarda so'зflashuvchi odamlарни uchratib-man. Nazаримда, butun yer yuzi shu yerga jam bo'lgan va butun olamning u boshidan-bu bosningacha menga kafidek ko'rниб туркан. Men goh ohista, goh ildam одимлаб, hali u yerga, hali

Bu hikoyani men «Qabrdan tovush» tipidagi amerika novellalarini usulida yozdim. (*Muallif izohi*)

bu yerga borar edim, oxiri umrimda biron marta uchratmagan
mohtrashum, vahimali, juda ulkan bir bino ro'parasidan chiqib-
man. Bino eshigi oldida tumonat odam bo'lib, barchasi qilich
hilan qurollangan, mag'rur qadam tashlayotgan jangchilar tin-
may kirib-chiqib turishardi. Bu o'zi qanaqa bino bo'idiyu nima
sehon bu yerga buncha ko'p odam to'planganini surishtirdim va
tuhondagi larni bilib oldim: bu hukmdorming qasri bo'lib, bugun
jinoymatchilar ustidan hukm e'lon qilinar ekan.

Jurchi, bir soat o'tar-o tmay süd maslahatenləri o zətinlərini egallaganlarını, iştirok etuvchi fuqarolar esa endi tanobiya kirishləri mümkünligini e'lon qildi. Hamma ichkarıqla kirdi, men ham odamlar bilan izma-iz tanobiya kirdim-də, barını durusetroq ko'rish uchun o'mashib o'tirib oldim. Həmisoli o'z mehvarida mustahkam joylashib olgan quyoshdek, tanobiyning qoq o'rtasida, oltin taxtda savlat to'kib o'tirganimdorga ko'zin tushdi. Uning o'ng tarafida xirqa kiygan al-laqanday kimsa, chapida esa yashil riddə boshqasi o'tirardi. Hukmdorming o'ng tarafidagi ruhoniy, chapdagisi esa shu sha-hur hakumi ekanini so'rab, bilib oldim.

Mana, hakam o'z oldidagi oppoq qog'ozlar tomon engash-
di-da, ulardan birini qo'lliga olib: «Jinoyatchiilar olib kirilsin»,
dedi amrona ohangda. Shu zahoti tanobiyning chap taraflis-
dagi turma eshigi sherning bo'kirishini yodga soluvchi tovushda
vahimali g'iyytilab ochildi. Eshikdan darmonsiz oyoqlarini
urang sudrab bosib kelayotgan qari cholni yetaklab, turma-

nazoratchilar kirib kelishi. – «Uning aybi nima?» – so'radi hukmdor. – «U rohiblarga tegishli binoga kirib, u yerdan yetim va qashshoqlarga atalgan bir qop umni o'g'irlagan», – deb javob berdi ruhoniy. Tanobiya yig'ilgan ishtiroychilarning bari o'sha zahoti: – «Yovuz jinoyatchining holiga voy! – deya qattiq qich-qirishdi. – Xudoming dargohiga o'g'irlikka tushishga qanday haqqi bor uning?» So'ng guvoohlarni chaqirishdi, rohiblar hozir bo'lishib, ular ham bir ovozzdan qariyaning aybdor ekanimi tasdiqlashdi. Hukmdor ruhoniya nimamidir shivrladi va: «O'g'ri qatl maydoniga olib borilsin va uning avval o'ng qo'lli, so'ng chap qo'lli, keyin oyoqlari kesilsin, oxirida boshi olinib, yirtiqch quş va hayvonlarga yem qilinsin!», – deva amr etdi. Buni eshitgan qariya tiz cho'kib, hukmdorga nimjon va qalitiroq qo'llarini cho'zib, rahm-shafqat so'rab yalnim-yolvordi, biroq turma nazoratchilari uni gapirturgani qo'ymay, sudrab olib chiqib ketishdi. Keyin ular rang-quти o'chib, holdan toygan, qo'rquvdan dag-dag' titrab turgan o'n sakkiz yoshlik yigitchani oldilariga solib kelishdi-da, uni hukmdorning yoniga olib borishadi. Shunday hukmdor: «U qanday gunoh ish qilgan ekan?» – deb so'radi. Ruhoniy: «U – qotil. Bir kun hokimning odamlaridan biri o'z qishlog'iqa soliq yig'ish uchun ketgan. U mana shu yigitchadan soliq to'lashni talab qilgan, biroq yigitcha, aftadan har qanday uyatni yig'ishtirib qo'ygan, yoki buyruqni bajarishdan bosh tortgan. O'lpon yig'uvchi unga baqirgan, o'spirinning bundan jahli chiqib, xanjarini qindan sug'urgan-da, unga sanchgan va

bu bilan o'lpox yig'uvchining umriga zomin bo'lgan», – deb jasobol berdi. Tanobiyda o'tirganlar: «Qanday dahshat! Qanday qavvelikt! Axir hukmdorning yaqinlarini o'ldirish, uning o'zini maybi qilish bilan barobar-kul!» – deya qichqirishdi. Shunda munhum o'lpox yig'uvchining yordamchilarini keltirishdi, ular bu leon voqeani tasdiqlashdi. Hukmdor bir on yerga boqib tonliq-dh, so'ng ko'zimi yerdan uzib: «Jinoyatchi qatl maydoniga qili boylsin va barcha qon tomirlari yorib tashlanib, tanasi-da bir tomchi ham qon qolmasin!», – deb amr etdi. Buni eshilga yigitcha dahshat ichida qichqirib yubordi, biroq turma janortsinchilari aralashhib, uni sudrab olib chiqib ketishdi. Ko'p qizlar yular go'zal bir qizni olib kelishdi. Peshonasiga bu qizda kuanlar soyaga solganini aymaganda, qiz ko'kda yongan qulduzdek maftunkor edi. Hukmdor: «U qanday jinoyatga qo'l qo'sham?» – deb so'radi. Hakam: «U – fohisha. Qarindoshlaridan yongu kelgan ekan, qizni allaqanday yigitcha bilan yolg'iz tip goni ustidan chiqib qolibdi», – dedi. Shunda o'tirganlar qizning ko'tarib: «Qatl qilinsint! Qatl qilinsint! Toshbo'ron qilin-sin! Uchicha chiqqan buzuq, suyuqyoq!» – deya g'azab bilan qilib qotishdi. Hukmdor: «Unga qarshi guvohlik beradiganlar qilib qotishdi. Qizning qarindoshlaridan biri chiqdi-da, uni nomi?» – dedi. Qizning qarindoshlaridan biri chiqdi-da, uni foch qilib, unga qarshi guvohlik berdi. Hakam o'sha zahoti hujumchoniga qulog'iga allanimalarni shivirladi va u: «Qizni qatl maydoniga olib boringlar va o'sha yerda qip-yalang'och qilib, mudabitarida bir burda etini, suyaklarida esa bir parcha musha-

gini qoldirmay toshbo'ron qilinsin!» – dedi. Bu amru farmonni eshitganlarning barchasi hukmni qo'llab-quvvatlovchi hayqiriqlar ostida adolatlari hukmdorga astoydil tafsirlar o'qidilar. Ular hokimiyatni va hokimning kuch-qudratini rosa ta'rif-tavsiif qilib, ko'klarga ko'tarishdi-da, baland ovozda uni, ruhoniyi va hokimni uzoq olqishlashdi. So'ng hukmdor o'midan turdi, odamlar ham shod va mammun o'rinalidan qo'zg'alib, tarqala boshladi. Men, o'zini himoya qiliш uchun ayblanuvchi so'nggi so'zdan mahrum etilib, guvohlik berish imkoniga faqat uning dashmanlarigina ega bo'lgan va jazo darajasi jinoyatga mutlaqo muvofiq kelmagan bu g'alati sud ishi haqida o'ylab, ma'yus tortib, mungli holda asta tanobiydan chiqdim. Bu odamlar meni chuqur hayratga solgandi, kuch-qudratga ega zot oldida ularning qanchalik ojizligi, itoatkoriли, zo'r berib unga saja qilishlari, uni ulug'lab, ko'klarga ko'tarishlari aqilimi shoshibirib qo'ygandi; u odilona hukm chiqaradimi yoki yo'q, shafqatlimi yoki shafqatsiz – bundan qat'iy nazar, yana unga xayriyohlik bildirib, mavjud hokimiyatni qo'llab-quvvatlagan odamlarga qanday baho berish mumkin? Jazoga hukm etilganlarning aysizligini isbotlay oladigan yoki ularga rahm qiladigan va bu jinoyatni xuddi o'zining boshiga tushgandek qabul qilib, o'zi shunday hakamlarga ro'para kelganda shu olomon ichidan ularni afv etishlarini xohlovchi birgina o'g'ri, yoki birgina qotil, yo'burgina sohisha nahotki topilmasa?

Buzuq ayol, ehtimol multaqaq buzuiq emasdir, qotil deganlari hukki o'z or-nomusini, o'z mulkini himoya qilish uchun shu ishga qo'l urgandir? O'g'ri deganlari, ehtimol, o'z yaqinlarini intlikdan saqlab qolish uchun shunga majbur bo'lgandir?

Hokim jinoyatni tergov qilishda qotilga marhamat ko'ntusini istamadi, nahot uning o'zi umrida biron marta buniy ishga duch kelmagan bo'lsa?

Rohib uyidan o'g'irlangan bir qop un uchun ruhoni na-

muncha kuyib-pishmasa, nahotki, uning qo'llari harom yo'llar hujan topilgan biron ta ham dinorni ushlagagan bo'lsa? Hech hin hujanga o'z gunohini yuvish uchun bir bechoraning gunohidan o'tolmasa?

Sud buzuiq erkak va ayollarni ko'rganda nega o'z g'azabini ilijahni istamaydi, nahotki hayotda biron marta o'zining peshonasi devorga urilmagan bo'lsa?

Fuqaroning qalbini, uning mol-mulkini o'z xohishi bilan ilishni etib, baxt va baxislikni hushiga kelgancha odamlarga tajimlab beradigan bu odamlar kimlar o'zi? Ular gunohidan yoki moyg'ambar yoki farishta emaski. Xudo o'z bandalarining ilishini muhokama qilib, ularning taqdirini bir yoqlik qilishni hunday odamlarga topsinrib qo'ygan bo'lsa? Sud ishini bu taxtida olib borish uchun ularga kim huquq bergan? Hokimiyatni ilish qaysi qonumi kuchga asosan qo'lg'a kiritganlaru qanday qilib o'zlarini bu lavozimning haqiqiy egasi deb hisoblaydilar?

Bu qanaqa hukmdor o'zi? Xalqning yuziga oyoq qo'yib, Kuch va Zo'rlik bilan taxtga erishgan o'z yurtining zolim hukmdori yoki uchiga chiqqan zolim hukmdor avlodni shu emasmi? Mana bu ruhoniy-chi? O'z nafsi yo'lida ojiz ko'ngillaru azoba qolgan yuraklardan foydalanib qoladigan eng tulak olg'ir mana shu emasmi?

Hakamning o'zi-chi? Haqiqatni yolg'on, yolg' onni haqiqat deya taqdim etishda barchadan ustasi farangi shu emasmi?

Zolim hukmdorlar, bosqinchilar va zulmu taaddi ustalar qachon xudojo'ydek marhamatlari, diyonatli odamlardek oqko'ngil bo'lishgan o'zi?

O'znomusini, qadr-qimmatinimoya qilaman debjonholatda boshqa bir odamning umriga zomin bo'gani uchun insanni jinoyatchi - qotilga chiqarib, uni qiy nab o'dirishga mahkum etgan hukmdorni adolatli hukmdor deb ulug'lashga qanday tillari boradi? Odam ochlikdan qiynalib yoki norasidalarini to'ydirish uchun bir burda non o'g'irlasa, uni jinoyatchiga chiqarib, la'nat o'qishbadi. Biroq hakam o'sha bechorani avval mayib qilib, so'ng o'dirishga amr etsa, buni adolatli hukm deb bo'ladimi? Bo'yning azob sirtmog'i tushib, ayolni shayton yo'lidan ozdirgan bo'lsa, axloqsiz va jurkanch deya tamg'a bosishbadi-da, ayblashga tushishbadi. Qip-yalang' och qilib bog'langan va har tomondan yog'ilgan tosh yomg'iri ostida qolgan ayolni ko'rgan odamlar bu manzaradan dimoqlarini chog' qilib, sevinib tomosha qilishlariga nima desa bo'ladit?

Olovni olov o'chirolmagandek, shundayin, og'uga ruju qo'ygan odam ham uni ikinchi marotaba iste'mol qigani bilan sog'ayib qolmaydi; anavinga o'xshab birovning o'ng qo'llini, ko'ng'chap qo'lini kesib tashlash bilan uning dardiga davo topilimgandek, bu olamda yovuzlikni yovuzlik bilan, azob-topishni azob-uququbat bilan yengib bo'lmaydi.

Kech kirduncha timmay o'zim bilan o'zim gaplashdim. Zimyo, ovloq bir joydan yurib borar ekanman, tepandan qush-hanf galusi uchib o'tganini payqadim. Odimlarimni sekinaltdim va shunda meni hamon ta'qib qilib kelayotgan dahshati manzugu ko'zim tushdi. Diqqat bilan qarasam, turproqqa qorishib yotgan g'o'la aslida boshisiz, qo'isiz, oyoqsiz odam tanasi ekan. Hichni uning yonida xuddi boshyalang giryanda ayolddek yast-hanib yotgan qariyaning boshi va oyoq-qo'llarini ham tanidim. Men yunu qip-yalang' och qilib daraxtga bog'langan va xuddi dhruqt bilan birga o'sayolgandek uning shoxlariga chirmashib ketg'an yigitchaga ko'zim tushdi. Uning tomirida bir tomchi nomi qon qolmagandi, jasad esa qo'reqinchli ko'lankaga aylanib qoljundi. Boshi qaysiyu oyog'i qaysi - farqlab bo'lmaydigan qip-qip'il guvalacha-go'sht qiz ekanini ham tanidim. U qonga my-yangan bir uyum toshlar tagida qolib ketgandi. So'ng bu jundalar yonida qon to'la o'ranga ko'zim tushdi va bu o'ra mana shu basti qarolarning qoni bilan to'iganini sahmladim. Ko'z nishimi qora bulut qoplab, atrof qorong'lashdi. Turgan joyimda hujhindan ketdim va shu yorganimcha tun yarmigacha o'zimga

kelolmadim. O'zinga kelganimda, birdan qandayadir jussa men tomonga pusib kelayotganini sezib qoldim. Undan qo'rqib, da-raxt orqasiga berkindim. U men tomonga yaqinlashib keldi-da, shisha chirog'ini yoqdi.

Shunda ustida aftoda kiyim-bosh, sochlari oppoq oqargan kampirga ko'zim tushdi. Kampir asta-asta yurib, jasadlarga birma-bir razm sola boshladi va abjag'i chiqib ketgan qariya jasadi yonida to'xtadi. So'ng o'sha yerda tiz cho'kdi-da, uvvos solib yig'ladi. Keyin murdaning oyoq-qo'llari va boshini bir joyga yig'ib, barini gavdaga birlashitrdi. So'ngra daraxt tagidan chuqur kavlab, vayron-tolqon bo'lib keigan murdani dafn etdi-da, shunday dedi: «Oh, mening qlynoqlarda qolib, nohaqdan-nohaq u dunyoga ravona bo'igan cholganim! Sen Xudodan qo'rqib, men va sho'rpeshona nabiralarining dardu g'amida o'z jomingni ham aymadning. Endi Parvardigorming himoyasi va ko'magida joming tanangni tark etib, jismingni qabr o'z bag'riga oldi. Sen mehribon er, g'amxo'r ota bo'la olding, sen dili bilan tili bir, qalbi pok inson eding. Endi gunohingdan o'tishimi so'rab, Egamning huzuriga bor va bandalariga, hatto o'sha seni qatl etgan zolim hukmdorlarga ham O'zidan insof so'ra. Yana Xudodan bizni tezroq qovushtirishini iltimos qil. Sendan ayrliganimdan beri mening birdan-bir quvонchim sen bilan diydorlashuv onlarini kutib yashash bo'lib qoldi».

Keksa ayolning ko'z yoshlariiga chidab turolmadim, ma'yus ko'rinishi esa yuragimni tilka-pora qilib yubordi. Ayolning

73
lo'zari chin yurakdan aytileyotgan, eri esa sudning navbat-dagi qurbomiga aylangandi, nazarimda. Chol-kampirning hayotiga azburoyi qiziqqanimdan berkinib turgan joyimdan otilib chiqdim-da, kampirning yoniga bordim. Meni ko'rib, u avvali qo'rqib ketdi, so'ng boshimga tushgan musibatlar oldida bu turush ikir-chikirlari nima bo'pti degandek, xotiriam tortdi. Men shosha-pisha: «Qo'rquamg xonim, men o'zi chet ellik-mom, yurtingiz urf-odatlarini ham, bu yerda yashovchilarni ham bilmayman. Men dafn etilgan odamning qabri tepasida biron yordamim tegib qolar», dedim. Men ham o'z ham-dardligimni izhor etmoqchi edim. Malol kelmasa, boshingizdan o'llanurni menga so'zlab bersangiz, degandim, balki sizga hikoya qila ketdi: «Erim hayotida biron marta na o'g'irlikka va na yo'llo'sarlikka qo'l urgan. Aksincha, u yigitlik paytidira ham, balog'at yoshida ham, yolg'iz o'g'li o'sib-ulg'aygunga qadar hum olibasini boqish uchun ter to'kib ishlagan, mehnatdan hisob qachon bo'yin tovlamagan. O'g'limiz ham voyaga yetib o'monqu turgach, otasining yo'lini tutdi. Biroq hali o'g'limizga havva bilan qarab, uning yordamidan quvonib ulgurmasisimizdan, to'satdan u bizni tashlab ketdi. Ajal uning hayotiga zomin bo'lib, bizni esa muhtojlik botqog'iga botirdi. O'g'limidan besh yillar turzand qoldi, to'ng'ich o'g'lining yoshi hali o'nga ham in'linagan. Ularning bobosi yoshini yashab, oshini oshadi, bir yoplidan keksalik azobi, bir yoqdan ayriliq dog'i axiri uning

boshiga yetdi. U kuchdan qoldi. Ahvolimiz og'irlashdi, qivin-chilik va ayrılıq bizni jar yoqasiga olib borib qoyди. Bir kuni biz tongni ochlikda kutib oldik, nabiralarни yupatib, ularga bergulik uvog'imiz ham yo'q edi. G'irt arosatda qolgandik. Agar Yarat-gamming o'zi marhamat ko'rsatmasa, nobud bo'lismiz turgan gap edi. Men qashshoqlar kiradigan ko'chaga kirishga majbur ekanimi tushundim va xayr-sadaqa topish ilinjida odamlar hu-zuriga yo'l oldim. Biroq bir burda non va bir qultum sur topish u yoqda tursin, hech kim menga hatto ochdan o'imaslik yo'lini ham o'rgatmadni. Odamlar meni ko'rsa teskari qarardi, chun-ki egnimda na juldur kiyimim va na q'o'llimda kachkulim bor edi. Dunyo ko'zinga tor bo'lib, uymnga qaytdim, ko'nglimdan kechayotgani yolg'iz O'zigagina ayon edi. Uyga keldimu ochlik uyqu bermay qiyinalib o'tirgan bolalarga va ularning orasida ala-min ichiga sig'dirolmay yig'lab o'tirgan qariyaga ko'zim tushdi. U ushalmas umiddan najor kutib, duoga qo'l oshib iltijo qilar-di. Norasidalarning bunday ko'yga tushgamini ko'rganimdan ko'ra, ajal bilan ro'para bo'iganimda ham o'zimni bunchalik baxtiqaro his etmagan bo'lardim. Bolalar meni ko'rishlari bi-lan o'zlarini menga otib, o'rab olishdi va aqallli biron yegulik olib kelmadimikan, deya yana jovdirab menga tiktilishi. Biroq men g'am-g'ussaga botib, ikkala qo'llimi burnimga tiqb uygaytgandim. Men eringa: — «Odamlar orasida shunday mish-mish gaplar yuribdi, go'yo shahar ibodatxonasida yetim-yesir, g'arib-g'urabolarga atalgan oziq-owqat qo'nib bor emish, ular-

nini barini ruhoni y boshqararmish. O'sha ruhoni y huzuriga bo'lib, ahvolimizni tushuntirsangiz, ozgina ulush so'rasangiz qa-hay bo'larkin? Axir biz xayr-ehsonni o'zimizga emas, norasida yetimlar uchun so'raymiz-ku», — dedim.

Cholimning yuzlari umiddan yorishib keidi. O'midan turib, hussusini oldi-da, unga suyangancha to'g'ri ibodatxonaga yo'l oldi. U yerga borib, ruhoni yga ahvolini aytib, ko'z yosh qildi. Ayrim dindorlar qashshoqlarga ro'para bo'lganda, ularni qan-diy dimog'dorlik bilan qarshi olishsa, ruhoni ham cholimni siddi shunday qo'rslik bilan kutib oldi. «Ibodatxona, — dedi o'rimga, — uni tashlab qo'ymay, vaqt-bevaqt xayr-saxovat bo'nutganlarga muruvvat qo'llini cho'zadi. Nima, sen tinch, son' sonon kun kechirgan damlaringda ibodatxonaga biron-bir hoddung tekkamni? Yo'q! Shunday ekan, bor, yo'lingdan qolma! Shuni yodda tutginki, agar rizq-ro'z ilinjida sen o'tib keladigan darvoza keng ochilgan bo'lsa-yu, u senga tordek ko'rinsa, unda hilib qo'y, jinoyatga yetaklovchi boshqa bir darvoza senga keng oshilgan bo'ladix.

Irin ruhoni yning huzuridan o'zini go'yo oychinging tuzog'iga tushib qolgan qushdek his etib, yorug' dunyosi qorong'i bo'lib, shahvinib qaytib keldi. Ibodatxonha hovlisidan o'tayottib, uning ko'zi burchakda turgan qopga tushgan va nimadir o'sha qopni oshishga uni undagan. Bu qashshoqlik balosi bo'maganda, u sho'rpeshonaming xayoliga bunday fikrlar qayyoqdan ham kelirdi deysiz. Uyatdan o'zini qo'yarga joy topolmay qolgan

cholim qopga qaramaslikka harakat qilgan, biroq choraszizlikda unga yaqinlashib boraverган va qopning oldida qanday paydo bo'lib qolganini o'zi ham bilmagan. U qopning yonida o'tirib olib, o'zi bilan o'zi gaplasha boshlagan: «Bu yegulik un – och-nahorlarning rizqi. Xuddi o'sha och-nahor deganlari men bo'laman. Mendaqasi na shu shaharda va na tevarak-atrofda topiladi. Agar qopdag'i unni qo'iga kiritish jinoyat sanalsa-yu, shu bilan kimmingdir hayotini saqlab qolinsa, unda ruhoni bunday istakkha izn bergen bo'tardi». U qopni yelkasiga orimoqlagancha, og'ir yukdan chayqala-chayqala yurib ketgan. Biroq ibodatxonada ostomasidan bir amallab chiqib olgach, haddan tashqari bu og'ir yukni endi bu yog'iga ko'tarib ketolmasligiga ko'zi yetgan. Qopni tashlab yuboray deganda, och o'tirgan bolalari ko'z oldiga kelgan va ilojsiz goh hassaga, goh devorga tayanib, bazo'r yurib kelgan.

Ko'p o'tmay u kuchdan qolib, ko'kragini qattiq og'riq tur-gan va ko'z oldi qorong'ilashgan. Og'zidan varaqlab qon ketib, butun egnib bulg'anigan. Bechora chol hushdan ketib yiqligan. Tun qorovullarning ko'zi tushmaguncha o'shanday hushsiz yotavergan. Qop joyida yo'qligini ko'rib qolgan soqchilar undan shubhalanishgan. Bu orada ibodatxona hovlisida qopni qidir-qidirga tushishgan, uni topishdan umidini uzgan rohiblar doda sola boshlashgan. Ular yo'qolgan qopni ibodatxona tashqarisidan qidirayotgan paytda yerda cho'zilib yotgan erimning tepasida qaq-qayib turgan soqchilarga duch kelishgan. Bu odamlar qoplarini

darov tanishgan. Bir saat o'tar-o'tmay unli qopni ibodatxonaga yetkazishgan, cholimni esa qamoqqa tiqishgan. Bechoraning tushiga tushgan kulfatarni o'ylab, yurak-ba'g'rim qon bo'lib keyapti... Sho'rlikning joni qynoqlarda uzildi. Sho'rlik nabi-naharingga, menga Xudonning o'zi rahm qilsin!»

Shundan so'ng keksa ayol o'midan turdi-da, kiyimining etapiga ko'z yoshlarini artib, qabrga uzoq tikilib qoldi va: «Alvido, yoshlikdagi do'stim, keksalikkagi suyanchig'im! Rafiqlar ichida eng olyjanobi, tug'ishganlar orasida eng vafodori, alvido endi! Xudonning dargohida qovushguncha abadiy xayr endi!» – deya tug'un yeridan asta uzoqlashdi.

Ayol qorong'ilik qo'yniga singib ham ketgan ediki, yana kimdir ohista, pusib men tomonga yaqinlashayotganini ko'rib qoldim, shartta daraxt panasiga yashirindim va nima bo'lishini kuta boshladim. Shu orada yerga ilk nurlarini taratib, ko'nda oy hum ko'rindi va men achchiq alam bilan yig'layotgan qizga ko'zin tushdi. U biroz vaqt nigoohlari bilan nimalarni izladi vi, oxiri daraxtga chormix qilingan jasadagi ko'zi tushdi. Qiz ikasining jasadi yoniga bordi va tarang tortib bog'langan orq'umchiga qo'llini cho'zib, undagi tugunni yechdi-da, gavdu ni arqondan bo'shatdi; keyin uni yerga yotqizdi va tepasida haykaldek turib qoldi. So'ng «Ligarim, mening akajonim!» deyi uvvos solib yig'lay ketdi, murda tonon engashdi-da, uni quhilqlab o'pib, sochlardan, peshonasidan siladi. Yuragi tilka-juna bo'lgan qiz xirillab, zo'rg'a nafas olardi. Oxiri qizning

tinka-madori quridi va cho'rt kesilgan poyadek yigitchaning yoniga guppa yiqildi. Bu meni tashvishga soldi, u o'llib qolmasaydi degan xavotirda edim. Yoniga borib, u tomon engashdim, qiz tirik edi. Shunda uning yoniga o'turib oldim-da, unga chin dildan achinib, Xudodan o'ziga kelishini yolvorib so'radim. Birozdan so'ng qiz chindan ham o'ziga keldi va meni ko'rib xijolat bo'ldi. Keyin: «Siz kim bo'lasiz va nima uchun yig'layapsiz?» – dedi asta. «Senga va manavi odamga ko'z yosh to'kyapman», – deya javob berdim men. «Ha, – dedi qiz, – chindan ham uning peshonasi sho'r ekan. Uning dardida adoi tamom bo'ldim, janob. U belga quvvat, yurakka darmon edi, undan taralgan hid senga jon bag'ishlardi, hali o'n gulidan bir guli ham ochilmagandi. Uni o'idirgan odamlar qanchalik yovuz ekanliklarini namoyish etishti. Akam hech qachon qotil ham, jinoystachi ham bo'imagan. Uni badnom qilishni rejalashtirgan g'animir o'z shon-shuhratlarini, qadr-qimmatlarini saqlab qolish uchun ular tomonga cho'zilgan qo'llarni chopib tashlab, o'zlarini uchun qasos oldilar. Agar akanga adolat qilib, uning yosh joniga rahm qilihganda edi, u bunday jinoyat ko'chasiغا kirmagan va qo'llini qonga botirmagan bo'lardi». Men: «Xonim, akangizning boshidan o'tganlarini menga so'zlab berolmaysizmi?» – deb iltimos qildim. Qiz rozi bo'ldi va hikoya qila boshladi:

«Butun shaharda itday izg'ib yuradigan o'ponchi bir vaqt-lar bizning qishloqqa ham kelgandi. U uyma-uy kirib-chiqib, niyoyat bizning uyymizga kelganimda men eshik tagida turardim.

O'ponchi menga yeb qo'ygudek tikildi-da, akamning qayerda chonini so'radi va men unga aytdim. Bu odam akamdan zudlik bilan soliq to'lashni talab qildi. Akam hosilini sotib bo'lib to'lashni, ungacha esa sabr qilib turishimi o'tindi. U, akam soliqni oxirigacha to'lab bo'imaguncha meni garovga olib ketishini aytib, uni qo'rqiidi-da, to'laysan deb oyoq tirab turib olib. O'ponchi yordamchilariga ko'zini qisgandi, ular shu zahoti mun o'rub olishdi. Men, hukumat saroyiga garov tariqasida olib kelgan va u yerdan, badnom qilinib, ustiga-ustak homilador hisobli chiqqan qizlarning ayananchli taqdiri haqida ilgarilari ham ishitgandim. Shu bois qo'rqqanimdan akama mahkam yopishib oldim, u esa men bilan o'ponchi o'rtafiga turib oldi va: «Hu qiz bilan seming necha pullik ishing bor? PULLAR meniki, uni men topganman, boshqa odamning bunga aloqasi yo'q. Senga jirovgu odam kerak bo'lsa, qo'lingga pul kelib tushguncha, mun, meni olib keta qol», – dedi. O'ponchi: «Menga boziroq yo pul topib berasan, yo omonat, omonatni ham o'zim tanlaysin. Hu senga ma'qul bo'imasa, mayli, o'z hayotining tikmoqchi mun. Hu senga ma'qul bo'imasa, mayli, o'z hayotining tikmoqchi ekansan, tika qol», – dedi e'tiroz bildirib. Buni eshitigan akamning qoni qaynab, peshonasidan ter chiqib ketdi. Jigarimni bu qudur f'uzab otiga minganini hech ko'rmaqandim. – «Mening qurashidagi qo'llarini bog'lab, qamoqqa olib or nomusim uchun yaxshisi, sen o'z hayotining tika qol», – dedi

shundan so'ne to uning qo'llarini bog'lab, qamoqqa olib

ketmagunlaricha qonga belangan ko'yı joyidan qo'zg'alma yeturaverdi. Akamning qismati mana shu tariqa o'z yakuniga yetgandi. Men, aka-ukalarim ichida eng rahmdili va marhamatlisi, o'ziga xos topilmas tuyg'u sohibi, olижjanob, tirishqoqligi yu jis surligi bilan boshqalarga o'xshamaydigan, yoshlar ichida eng kuchlisi bo'lgan yigit uchun kuyib-yonayapman».

Qiz nikoyasini tugatdi va mendan yordam so'radi: «Iq aqsi akamni yerga topshirib, undan ayrilishimdan avval, uni duthin etishga yordamlashib yuborolmaysizmi? Mening darmonim qurigan, bir o'zim epolmayman». Men daraxt oldiga bordimda, qariyning yonidan, jasad turgan yerning tagidan chuquq qazidim va yigitchani dafn etdim. Marhumming singlisi sukkut saqlab, boshini eggancha qabr yoniga keldi va tiz cho'kdi. Qiz yig'itayaptimi, yo yo'q, bilib bo'masdi, faqat u o'rnidan turgan dan keyingina uning ko'z yoshlariidan nam bo'igan yerga ko'zim tushdi. Keyin qiz menga qo'llini uzatib: «Taqfir, bu yaxshiligini gizni o'la-o'legunimcha umutmayman. Yordanga zor bo'lib turganingda, seni suyaydigan odam topishing amrimahol bo'lgan bir paytda mendan marhamatingizni ayamadigin», – dedi-du o'z yo'lida ravona bo'ldi.

Men libosining so'nggi burmasi ko'zdan yo'qolguncha unigohlarim bilan kuzatib qoldim va yana o'z xayollarima g'irib oldim. Mana, toshbo'ron qilingan qizning murdasi. U hali du'lif etilmagan va qo'rinqinchli bo'lib ketganidan qarashga yuragindov bermasdi. Men: «Hashr kuni Xuddodan ularga rahm-shaf'qu

to'xtatib, o'z marhamatini darig' tutmasligini so'rayman va uni
dat etish uchun bor kuchimni ayamayman», – dedim o'zimga.
Men qarriya va yigitchaning qabri yaqnidan qizga chuqur kav-
ladim va yopinchig'inni murdaming ustiga yopdim-da, uni yerga
topshirdim. Tiz cho'kib, qabr yonida turuvdim hamki, orqada
kindir borligini sezib qoldim. O'girilib qaragandim, qop-qora
thakmonga burkanib olgancha, faqat ikki ko'zinigina ochib
qe'ygan yigitchaga ko'zim tushdi. U: «Siz hozir yonida tiz
cho'kib turgan qabr kimmiki edi, janob?» – deb shoshib so'radi
menden. Men: «Toshbo'ron qilinib, murdasi mana shu yerga
toshlab ketilgan qizniki. Dahshatlari o'lim topgan qizga rahmin
kejib, uning jasadini sen ko'rib turgan mana shu qabrga dafn
etdim», – dedim men. «Taqsim, – dedi yigitcha, – tuproq bizni
wirishdan oldin u bilan vidolashib olishinga ruxsat etsangiz?»
«Mayli, ixtiyoring», – dedim-da, nari ketdim. Yigit qabrga
yoqin kelib tiz cho'kdi va allanimalarni shivirladi, shunda men,
ungen ko'kdagi yulduzlar ham hamdard bo'layotgani, shamol
u suyib-erkalayotgani va yigitcha asta-sekin darddan forig'
hovlyogani haqida o'yadim. Keyin u o'midan turib, qabrga
uproq tushladi va men tomonga o'girildi-da: «Xudoming o'zi
sigan yo'l ko'rsatib, bag'ti tilka-pora bo'lgan bu qizzdan yor-
dumningizni ayamadingiz. Odamlar xazon qilganni siz yashirdin-
jashiliklarigiz Xudodan qaytsin», – dedi. Yigit ketmoqchi
bu qaytbob qilganni himoyangizga oldingiz. Marhumaga qilgan
hamki, men uni to'xtatdim-da: «Nahotki, u chindan ham
bir ligundi, men uni to'xtatdim-da:

adolatsizlik qurbanini bo'lgan bo'lsa?» – deb so'radiim undan. U avval miyig'ida kuldii-da, so'ng xotirjam boqib: «Ha, janob Aks holda mening qabr chekkasida turib ko'z yosh to'kkanimi ko'rmagan bo'lardingiz. Baxtiqaro qiz mening kasrimga qolish shu ko'yga tushdi. Xudo huzuriga borganimda aytmoqchi bo'lgan gapimni sizga ham aytmoqchiman: qizda gunoh yo'q. U shudring tomchisidek musaffo, yong'irda yuvilgan guldan da beg'ubor. U hali go'daklik paytari men unga ko'ngil qo'ygamman. Evaziga o'zini qurban qilib, muhabbatini izhor etdi. Biz o'sidik, sevgimiz ham ulg'ayaverdi va biz bir-birimiz ga sodiq qolishga ont ichdik. Shundan so'ng otasidan qizning qo'llini so'radiim, otasi ham quvонч bilan takifimga rozi bo'ldi. Biroq to'yimizga sanoqli kunklar qolganda, otasi to'satdan vafot etdi. Bizga, to'yni bir yilga kechiktirish kerakligini aytishdi va biz sabr bilan kuta boshlaqidik. Bir yil o'tar-o'tmas qallig'im meros bilan bog'iňq ishlarni bitirish uchun shahar sudiga jo'nab ketdi. U yerda qizga ko'zi tushgan hakamning fe'lî aynib, o'sha zahoti qizning vasisyi bo'lgan amakisiga odam jo'nadi. Bu tilyog'lamu va ochko'z nusxa narigi qing'odqa yaltilrab turgan tillo tangaga ko'zi tushgudek bo'lsa, daryo-daryo qon kechib bo'lsa ham u yerga o'tishdan toymaydiganlar tofasisidan edi. Hakam qizning amakisiga, jiyanga uylanish niyatida ekanini aytgamida, amaki siming og'zi qulog'iga yetib, o'ylanib ham o'tirmay, rozi bo'ldi va bu xushxabarni darrov jiyanga yetkazzi. Qiz uni sovuqdan sovuq kutib oldi va: «Men bir vaqtning o'zida ikkierakkakka qalliq bo'olmayman», – dedi sharitta. Amakisi uning so'zlariga e'libor

ham bermay: «Men kimga tekkin desam, o'shangacha tegasan. bendan hech kim rozilik so'rayotgani yo'q. Kuyov tantashni enga kim qo'yibdi? Kuyovni men tanlayman», – dedi. Oradan kechib necha kun o'tar-o'tmay, to'yga tayyorgarliklar niroyalanib, hoshi va zeb-ziynatlarini yig'ishtirdi-da, tun qorong'isida udan hoshi olib chiqib ketdi. Bundan xabar topgan qizning amakisi, sudni ogohlantirgandi. Sud o'z josusu ayg'oqchilarin oyoqqa eng'uzdi-da, barini qochoq qizni izlab topishga safarbar etdi. Uordan kimdir qizni ko'rib qolgan va uning yoniga borgan. Ulloru ko'zi tushgan qizning o'takasi yorilib, qo'fidagi yukini ham ushlab qochgan.

Ayman o'sha paytda men uyg'a qaytayotgan bo'lganman: meni ko'rgan qiz xuddi Xizirni ko'rgandek hovliqib: «Ular meni qovib kelishyapti! Agar ushlab olisisa, sog' qo'yishmaydi, meni leshib, seni Xudoning o'zi qo'llasini» – deya menga gap qotdi.

Qizning taqdiri meni xavotirga solardi, shu bois uni uyim-ga bohlab keldim va xonalaridan biriga yashirib qo'ydim. Bir int o'tur-o'tmay amakisi hakamning ayg'oqchilarini oldiga solib kirib ketdi va jiyanini topib berishimni so'radi. Men, qilni ko'rmaganman, deb turaverdim, biroq ular gapimga tishonishmadni va jiyani topilguncha qidirishni to'xtatishmadni. «Man, suyuqyoq bu yerda ekan! – baqirdi amakisi. – Mana hunki uning himoyachi – oshnasi!» Men, qizga qo'yilayotgan iyoga uning aloqasi yo'qligimi qanchalik aymay, odamning tili horruydigan qasamlarni ichmay, baribir amakisi gapimni eshi-

tishni xohlamadi va hakamning yordamchilariga qizni ushlashni buyurdi. Men endi aralashmoqchi ham bo'lgandim, daf'atun boshma kelib tushgan zarbdan o'zindan ketib yiqildim. Bil soatlardan keyin o'zinga kelib qarasam, butun badanim o'lib yonyapti. Bir necha kun bezgak tutib yotdim. O'sha mash'um kunda ko'rganlarimning bari ko'z o'ngimda namoyon bo'ldi va badanim jimirlab, yana hushdan ketib yiqlidim.

Xudoning marhamati bilan axiri kecha o'zinga keldini va bugun kechqurun uydan chiqishga tuyassar bo'ldim. Ro'smnolikdan yirroq bu qizning qismati qanday yakun topgani haqida eshitdimu, ko'rib turganingizdek, qizni dafn etib, u bilan vidolashish uchun keldim. Men o'la-o'lgunimcha uni unutmayman va u dunyoda yorim bilan qovushmagunimcha ko'nglim taskin topmaydi.

Yigit shunday dedi-da, cheksiz qynoq va alamda o'z yorigatikilgandek qabrga uzoq tikilib turdi. So'ng yana o'z yo'llidi davom etdi.

Birozdan so'ng botayotgan oya ko'zim tushdi. Ko'p o'tmay oy ko'zdan g'oyib bo'ldi va hamma yoqni zulmat, yurakni o'rtochki sukunat bosdi va atrof ovloq joyga aylandi-qoldi. Men uchta qabr do'ppayib turgan tepalik yoniga bordim va yerga o'tirib, toshga boqqancha tilga kirdim:
«Nahotki, bu keng dunyo adolat va mehrdan xoli bo'lsa? Umavjud bo'igan yer yuzida bir parcha ham joy yo'q ekan, nahot, undan osmonu falak ham mosuvo bo'lsa?

Ochligini qondirishi va oilasini boqishi uchun qariya imchoraga asqotishi mumkin bo'lgan atigi bitta kumush tanjoni ruhoniy xasislik qilib unga bermay jinoyat qildi. Qariyani o'g'irlik qilib gunohga botishiiga ruhoniy majbur etdi va o'g'ri jinoyini oldi, biroq uni shu ishga undagan berahm avliyo ota imkhag'irligi uchun jazosini olmadi. Agar ruhoniy bu qadar jolim bo'maganda, o'g'irlik ham yuz bermasdi.

Miridan o'z or-nomusini afzal bilgan qizni o'g'irflash uchun hukim o'ponchini yubordi. Singlisini himoya qilish uchun aka-hokim o'ylab ham o'tirmay, odam o'dirib gunohga botdi. Buning uchun u jazo oldi.

Uni seymagan qizni o'ziga turmuşha chiqishga majburlab, hukum jinoyat qildi. Bunga ko'nmagan qiz o'limga mahkum qilib, zolum hakam jazosiz qolaverdi.

Shunday qilib, haqiqiy jinoyatchi aybsiza, aybsiz bo'lsa jinoyatchiga aylandi; yana ham aniqrog'i, jinoyatchi aybi yo'qing ustidan hukm chiqaruvchi bo'idi, gunohkor esa uning jinoga tushib qoldi.

Nahotki, shundan so'ng ham osmon uzilib, yerga tushmasa? Nahotki, hech nima sodir bo'magandek yana boyagi-boyagi ko'kdin yulduzlar portlab, yomg'ir yog'aversa?»

Men gunohsizlar qatl etilgan yerga o'girilib qaradimu, jafokashlarning qonidan hosil bo'lgan ko'ni ko'rdim. Razm uchta qurragandim, uning sirtida ko'kda chaqnab turgan yulduzlarining aksi ko'rindi va men osmonga boqdim. Bu Mirrix sayyo-

rasi edi, sayyorra shu yerga dafn etilgan qurbanlarning yuragi
lovultab yonib turgan bir parcha qahr-g'azab o'ti edi go'yo. Bir-
muncha vaqt undan ko'z uzolmadim va hozircha u bilan yerimiz
orasidagi masofa bir mildan oshmasa-da, uni juda sekinlik bi-
lan yüksaklikdan tusha boshlaganini va borgan sari kattalashib
borayotganini ko'rdim. Mirrix sayyorasi daf atan larzaga keldi,
to'satdan jazzolovchi farishta qiyofasiga kirdi. Uning ko'zlarfi va
burnidan o't chaqnadi, qanoatlarini qoqqanda barrini yemirib,
buzib tashladi. Malak borgan sari yerga yaqinlashib kelardi.
Mana, niyoyat u, baxti qaro qurbanlarning qabriga o'z soyasini
solib, pana qilib turgan daraxt uchiga kelib qo'ndi. U qanoatlarini
shunday silkidiki, hatto larzaga kelgan yer ham yorishib ketdi,
so'ng ko'kda xuddi momaqaldoq gumburlagandek tilga kirdi
va: «Mana, nimadan qutulgan bo'lsa, yana o'shang aqytgan
odam bolalar! Mana, yovuzlik, fisq-fujur to'lib-toshsan o'sha
zamin! Hatto ko'kdan tushgan biron sohibga unda pokiza joy
topish mushkul.

Mana, kuchlariga kuch qo'shilib borayotgan zo'ravonlar,
manavilar esa kundan-kunga zaiflashib borayotgan nimjonlar!
Mana, boylar qo'liga tushib qolgan faqirlarga tegishi go'sht,
Birovlar uni og'zidan oldirib, birovlarining burnidan chiqayot-
gani.

Mana ular, xayr-saxovat qo'lini cho'zuvchi homiylarini
uchratolmay, ochlikdan tirraqdek qotib jon berayotgan
yalangoyoqlar. Mana, qayg'u va g'am-g'ussada naiotga muhtoj,
qiynoqdan nobud bo'layotgan baxti kemitik o'sha odamlar.

Muna ular, garchand ado etishlari buyurilgan bo'lsa-da,
Xudoning amriqa itoat etmay kelayotgan hukmdorlar. Adolat
o'matish uchun Xudo qo'llariga tutqazgan shamshirni qiniga
joylab, boshqasida tabiatga zid, qonunga xilof ish tutib yurgan-
ligi nimuga intilayotgan bo'lishsa, o'shang a erishish maqsadida
o'z istak-xohishlariga yo'l ochib, o'z shamshirlarini qo'ldan
iq'yumay kelishayotir.

Muna ular, yeb to'ymas, g'arago'y qozilar. Ular sud ishini
aholotisz tarzda tashkil etmoqdalar. Ular qalqonning narigi
yog'idugilarga zarba berish niyatida qonunni qalqon qilib,
uning panasiga berkinganlar. Qonunning bunday himoyasi
ostida ular mag'lubiyat, azob-uqubat nimaligini bilmay, o'z
muquddalariga erishib kelmoqdalar.

Muna ular, bu yorug' olamga hukmron ruhoniylar. Itoatgo'y
hundalaridan tortib olingan mollar bilan cherkovni to'ldirib,
oni qaroqchilarining g'origa aylantirib yuborganlar. Beva-
juhorulurga xayr-sadaqa qilishga kelganda o'lgudek xasislar.
Muna ular, o'zlariga xush yoqadigan ko'ngildagi niyatlarini
omilga oshirish uchun hech nimadan qaytmaydigan hukmdor
shoriklari; adolatsiz sud ishlariga bosh-qosh, sud bilan og'iz-
burun o'pishayotganlar; talonchilikka xayrirox ruhoniylar!
Hukmdoridan tortib, fuqarosigacha, xo'jayimidan tortib,
uning xizmatkorigacha - bari Xudoning g'azabiga duchor
bo'lg'ay.

Mayli, taxtlar ag'darilib, cherkovlar qulasin, sud deganlari
dom'duraksiz g'oyib bo'lsin; darayu vohalar vayron bo'isin;

erkagu ayol, keksayu yosh, gunohsizu gunohkor, ezzulik va yovuzlik – barisini yer yutsin. Bularning bari Xudoning g'azabi emas, odamlar o'z boshlariiga o'zlarini sotib olayotgan baloqazolar».

U endigina so'zini tugatgan ham ediki, Xudo Nuh payg'ambarga amru farmon yuborgan kun qanday avjaga chiqqan bo'ssa, azobda o'dirigan qurbanlarning qonidan hosil bo'lgan ko'ham xuddi shunday qaynab chiqqamini ko'rdim. So'ng bir yurtdan ikkinchisiga o'tib quyijiib kelayotgan kuchli qon seli butun yer yuzini qopladи. Dalayu mol-hol, saroyu kulba, insonu hayvon, tili boru tili yo'q – dari, yer yuzini qoplagan qizil dengizga g'arq bo'ldilar. To'qin sekinlik bilan ko'tarila-kotarila men o'tirgan tepalikning cho'qisisiga kelib urilganini ko'rdim. Men qattiq qichqirib, uyg'onib ketdim. Bu 1914-yil 28-iyul kunning erta tongi edi. Birdan derazam tagida: «Urush boshlandi» degan hayqiriqni eshitdim.

ROBER MERL

Rober Jan Jorj Merl 1908-yilning 28-avgustida Jazoirda ing ilgan. Uning otasi Feliks Merhabiy tarjimon bo'llib, vafotidan ning omasi farzandlarini olib Fransiyaga ko'chib keladi va oilasi bilan shu yerda yashab qoladi. Rober Merl Partidagi Buyuk Lyudovik litsseyida falsafu va ingliz tili yo'nishida ta'lim oladi va uni bitirib, o'qituvchilik bilan shug'ullanadi. Shu paytlarda ujon Pol Sarir bilan tanishadi. Merlning ilk e'lon qilingan ištihkor Uaylduning ijodiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasi bu'londi.

Yozuvchi ijodida falsafiy va ijtimoiy qarashlar kuchli bo'llib, u munqarvarlik ruhi bilan sug'orilgan. Merl ko'p qirrali ijodkor, u bi qoncha pesa, biografik asarlari, tarixiy romanlar va Fransiya o'moniiga oid 13 jiddlik qadimiy xalq dostonlari, afsonulari muallifi.

Vonvchi 1949-yilda «Jumabiy sohilidagi yakshanba hordig'i-Woek-end a' Zuydcoote» asari uchun Fransiyaning eng olyi adabiy Gonkar mukofotiga sazovor bo'lgan. Rober Merl 2004-yilning shahridan tashqaridagi uyida, 95 yoshida olamdan o'igan.

IZABELLA

I

Gersog Brachchano, ya'ni Paolo Orsini xotinining vaftidan so'ng g'alati hunarlar chiqara boshladi. U Toskan gersogining yigirma bir yoshti qizi Izabella Mediciga uylandi. Bu nikoh boshida kuyov va kelinning ota-onalari turishdi. To'y uzilkesil aniq bo'lgandan so'ng keksa Orsini o'g'lini chaqirtirdi-da, balandparvoz va ta'sirli so'zlar bilan bu nikohning nechog'lik manfaatli ekanimi dالil-isbotlar bilan uning miyasiga quydi. Paolo tishimi-tishiga qo'yib, uning gaplarini oxirigacha tingladi. Nima balo, deb o'yadi u, otam qandaydir yassiko'krak, sariqmashak, miyasiga xurofot in qurban bir rohibani menga xotinlikka olib bermoqchimi deyman. Paolo hamma gapni u qulog'i bilan eshitib, bu qulog'dan chiqarib yubordi-da, keksa Orsiniga boshini egib minnattorchilagini bildirdi, so'ng to'p o'yaganani chiqib ketdi.

Izabellani ko'rishga Paoloni majbur qilishmaguncha u hali qizni ko'rmasgandi va ko'rishga ham orzumand emasdi. Bu paytlarda u, allaqachon oq suyuqyoq Lukresiyaning tuzog'iga ilinib, maislatparastikdan boshi chiqmay qolgandi. Lukresiya endigina o'n besh yoshta to'igan bo'lsa-da, binoyidek aql-farosatiyu xush tabiat bilan gersogni o'ziga rom etgandi. U

Bunun Izabella bilan uchrashuv belgilangan oqshomda, kechki inqut mahali Lukresiyanning huzurida bo'lismi ko'ngliga tugib ip' yigindi va bu rejaga dabdurusidan qo'yilgan to'siqdan qoni qisnab, bo'tajak xotinining yoniga kayfiyatni buzilgan holda kichib hordi. G'azzabini yashirishni epolmaganidanmi yo buni ismungandanmi, xullas, fig'oni falakka chiqqanini berkitib ham i'ttimudi, yerga boqqancha qizning yonida paydo bo'idi, boshini ko'lnib qaradi-yu, qarshisida turgan o'rta bo'yli, ko'hlikkina, suhibchim, ko'zları tiyrak, yigitni yaxshiroq bilish ilinjida unga qayrona tikiilib turgan sohibjamol qizni ko'rib, hayratdan tong qolib qoldi. Yigit bosh egib salom berdi. Qiz ham, gatchand uning nigohlari buning aksini aytib turgan bo'lsa-da, baribir yigitning hurmatini joyiga qo'ydi – unga ta'zim bajo qildi. Bu ishvadan yigitning yuragi «quz» etib ketdi va u bir zumga Lukresiyani unutdi.

Muharam janob, – deb so'z boshladi Izabella, ularni niyaliga yolg'iz qoldirishgandan so'ng namoyishkorona samimiylik bilan, – tan olib aytishimiz tuyg'ularimizni nazar-pisand qilmay, so'yaldi. Ota-onalarimiz kerakki, ikkimizni ham pichoqiziz qizni qovushtirishmoqchi, aytin-chi, bunday nikoh biz-imizni qovushtirishmoqchi, – tan olib aytishimiz tuyg'ularimizni nazar-pisand qilmay, ham hozir qila olarmikan? Hamonki, o'zga ilojimiz yo'q ekan, ko'reveramiz-da. Menga kelsak, hayotingizni buzish niyatim yo'q to'ydun so'ng meni o'zingiza qarashli yer-mulkka jo'natib jidorib, bu dunyoda mendek qiz borligini unutib yuborsangiz

ham sizdan zarracha ranjimasdim, aksincha, bundan o'zimni baxtiyor his etgan bo'lardim...

Shunday kayfiyatda, biron marta ham adashmay-netmay, odob-axloq doirasida Izabella Medichi suhbatdoshiga teshib yuborgudek tikelgancha, rosa o'n daqqa gapirdi. Gersogning og'zi lang ochilib qolgandi. U Italiyaning eng xushbichim yigilari safidan joy olgani uchun ham shunday zebo qiz undan umrbod yiroqda yashash istagini bildirganidan judayam hayron qolgandi.

— Oyimqiz, — dedi yigit, niroyat tilga kirib, — odam bo'lajak tur mush o'rtog'iga ham shunday deydimi! Meni endi ko'rib tur-

gan bo'sangiz-u, darrow qochib qolishni o'yayapsizmi?

Izabella «masroniyalarga xos itoago'ylik»ni dam-badam tilga olib, yana o'zining uzundan-uzoq nutqini boshladi. Gersog oxiri qiz uni kalaka qilayotganini payqab qoldi. Uch rashmnaslaridan avval bu nikohga xushi yo'qligini, hozir esa fikri o'zgarganini va qizning yonida bo'lishdan baxtiyor ekamini u takallufsiz, aql-hushini bir joyga qo'yib, aytilb qo'ya qoldi.

— Yo'g'-ey, — dedi Izabella ochiqdan-ochiq uni masxaralab, — rostdan-a? Nahotki, Lukresiya xonim bilan birga bo'lishdan ko'ra, men bilan subbat qurishni afzal ko'rsangiz?

Darhol o'tradagi xafqarchilikni yumshatish maqsadida, o'z haziliga o'zi birinchli bo'sib keldi-da, subbatdoshiga yoqimli qarash qilib, uning qo'liga suyandi.

Ilk uchrashuv anchagacha cho'zildi. Paolo hayratining shoki yo'q edi: Izabella asizodalardan bo'lsa-da, aslida ham o'muyaklar ichida kuymalanib yuruvchi qandaydir suyuqyoq ijoddan aqli anche ziyrak chiqib qolgandi.

Unashtrirganlar suhbatlashayotgan xonaga uni yollagan gashuddiy g'alamis — keksa Orsimiga borini oqizmay-tomizmay yetkazib turuvchi ayg'oqchi yashirinib olgandi. Ishlar o'zi istaqandek tus olayotganidan xabar topgan Orsinining og'zi qurog'ida edi. Paoloning battol fe'lidan boxabar bo'lgan qariya, hol-nasabi uchun manfaatl bunday nikohdan quruq qolishdan cho'chir, o'g'li yosh gersoginyani va qiz orqali uning oitasinifanitib qo'yishdan xavotirda edi. Qariya Orsimini bir necha yillardan beri og'ir dard azoblab kelardi, shu tufayli u butunlay holdan toyib qolgandi; otaming birdan-bir armoni mana shu nukoni ko'rib qolish edi. Izabella o'g'liming aql-hushini olib qo'yanganish hosil qilgan qariya chuqur mammuniyat hisobi tuydi-da, o'zining bosh kotibi va sinashta bo'igan vakiliga: «Indi o'slam armonim yo'q», — dedi va oradan bir hafta o'tar-qilmy dunyodan o'tdi.

Izabella Paologa o'g'il hadya etish baxtiga mayassar bo'ldi. Bolqaga Virjinio deb ism qo'yishdi va Izbellalarning akasi, Toskan jinsosi Franchesko Medichi chaqaloqning cho'qintirgan itasi bo'ldi. Francesko singlisi Izbellalaga boshqacha mehr qo'yandi va hamisha qizga qattiqqo'llik bilan munosabatda bo'lib kelardi. Bir kuni Izabella jilmayganicha eri Brachchanoga

agar Franchesko gersog unwonini ular turmush qurmaslardan avval olganimda, akasi biron nimani bahona qilib ulearning to'yini to'xtatishi va singlisini cherkova haydal solgan bo'lishi mumkinligini aytilib qoldi.

Er-xotinining o'n sakkiz yillik turmushlari mobaynida Brachchanoning gersoginiyaga muhabbati shunday kuchli bo'ldiki, hech bir ayloning gersogni uzoq muddat ushlab turishga qurbi yetmasdi. Biroq gersog askar edi, u olis yurtlarda jangda bo'lardi. Izabella o'zini tashlab ketilgan aylodeldek his etardi. Erining xiyonatlaridan xabar topganida alamini ichiga yutardi. Bir kuni Paolo sakkiz oylik harbiy safardan qaytgach, rashk o'tida yongan Izabella erini sovuq kutib oldi va og'ziga kelgan har xil picthing gaplarga Paoloni ko'mib tashladi. Xudo uni aql-farosatdan qismagandi.

— Menga qarang, xonim! — dedi izzat-nafsi og'rigan gersog. — Menga bo'lmag'ur ayblarni taqashni bas qiling! Nahotki, siz meni yo'l boyida tasodifan duch kelib qolgan qandaydir qishloq qizidan qizg'ansangiz? Nima, ochdan o'lay deb turganima, sizningcha, o'z nasibamdan voz kechishim kerakmi?

— Men bo'sam, janob, — mag'rur e'tiroz bildirdi Izabella, — duch kelgan yerdan qornimi to'yg'azishdan ko'ra, ochdan o'lishni afzal ko'rgan bo'lardim.

Bu javob gersogga qattiq botdi. U lom-mim demay ran-gi-qutti o'chgancha xonadan chiqdi-da, otga minib, shu ba-

duz ketgancha bir ylgacha qorasini ham ko'rsatmadı. Agar ittasingning ustomonligidan unga zarracha yuqqanida edi, u hironu xizmatkorha gersoginyani kuzatishni topshirardi-da, erining suratidan bo'sa olmaguncha, uxlagani yotmasligidan darak lipjan bo'lardi. Odam bo'yи baravar qilib ishlangan bu surat devorga osilmagandi, balki yerga qo'yib, chekkasidan devorga mahkamlangandi, shunning uchun u xuddi xotinining xonasiga kich kelayotgandek taassurot uyg'otardi. Har kuni kechqurun Izabella tungi ko'yakda yalang'och yelkalariga sochini yoyib, erining suratiga yopisingancha, bor ovozi bilan oh-voh qilib kore yosh to'kardi. Uning bo'yи uncha baland bo'lmagan bois tundagi odamming labiga labini tekkizish uchun oyoq uchida turib cho'zilishiga to'g'ri kelardi.

Gersog Izabella bilan 1576-yilning bahorida yana uchrashdi. Xotinimning mendan ko'ngli qolgan, deb uni umutish uchun hechiora nimalar qilmadi. U o'z surati yoniga o'tirib oldi-da, hujjori boricha unga qaramaslikka harakat qildi va gersoginyaning hummatini joyiga qo'yib, bir-ikki og'iz gapirdi. Izabella bu manzuni kayolda butunkay boshhqacha tasavvur qilgandi. Ushbu uchrashtuvdan ilgariroq Brachchano Lukresiya bilan ilgarigi eski shohularini boshlab yuborgani va ikki kun avval kechki ovqatni u bilan birga qilgani Izabellaning qulog'iga yetib kelgandi. Huni eshitgan gersoginya battar qayg'uqa botdi. Xizmatkor haikalardan biriming aytishicha, Lukresiya Izabelladan biroz kichik bo'lib, ortadagi arzimagan bu tafovut ham uning nazzi-

da alohida ahamiyatga ega edi. Izabellaning yoshi endi o'ttizdan osongan, hali o'n gulidan bir guli ochilmagan bo'lsa-da, lekin men qarib, so'lib, jozibamni yo'qoqganman deb o'zini ishontirishiga urinardi.

Unga tinchlik bermay qo'ygan o'y-xayollandan Izabella karavotga suyangancha jum, hissiz qotib turardi. Brachchanomning xayoliga boshqa fikr kelgandi. Muhabbatini gersogning suratiga qarab qayta-qayta izhor etishdan char-chamagan Izabella, endi o'sha rasmning asl nusxasi yonida o'ng'aysiz bir holatda suket saqlab o'tirardi. Uning xayoli Lukresiyada edi va u gersogni haqorat qilib yuborishdan cho'chib, gap boshashga yuragi dov bermayotgandi. Endi ayol barcha ko'ngisizliklarga duechor qilgan o'zining fahm-farosatiga ishonmay qo'ygandi. Kishiga azob berishdan nari-ga o'tmaydigan shuncha samimiylikdan toqati toq bo'lgan Izabella o'mridan qo'zg'aldi. Brachchano uni bu taxlit tex kuzatib qo'yishayotganidan juda ranjidi va ketishga tarad-dudlanib, Izabellaning qo'lidan beparvogina o'pdida, teskari o'girildi. Eshik oldiga yetganida, suratga ko'zi tushdi. O'n yil avval, hali gersoginya uni sevgan paytarda o'zinning qanday bo'lganini alam bilan esladi. Gersog birdan to'xtadi-da, suratga sinchiklab razm soldi va suratdagi kulib turgan, samimiy bu yiginting endi bu sho'r peshona erkakka g'ijinib qarayotganini his eidi. U gersoginyaga o'girildi-da:

— Suratim bu yerda ko'p joyni egallabdi, uni bu yerdan olib ketishlarini aytaman, — dedi ro'yxush bermay.

U xiyol burilgancha yerdan ko'z uzmay biroz kutdi. Ayoldan uzocho chiqmagach, unga nazar ham tashlamay, chiqdiyu-ketdi. Kotini o'zi istaganda ham og'iz ochishga majoli qolmagandi: Izabella karavotga suyangancha jum, hissiz qotib turardi.

Irtasiga gersog jo'nab ketdi. Izabella uni bir talay mulozimlar hurohligidida saroydan chiqayotganini derazadan kuzata turib, gersogni go'yo so'nggi bor ko'rayotgandek bir hisni tuydi. U nikkiz yil avval gersog unga hadya qilgan olmos bezakli ixchamginga sunjarni oldi-da, yuragiga sanchishiqa bir baxya qoldi. Oysha uning qo'lidan tutib qoldi. Izabellani o'g'lidan ajratganlardan heki u shu qizga bog'lanib qolgandi. Akasi Virjinioni saroyning ishonchli xizmatkorlariga topshirgandi. Hali o'n besh yoshga ham to'lmagan mavr qizining gersoginyarning qo'lidan xanjarni torib olishga kuchi yetmasdi, shunday bo'lsa-da, qizcha xonimni yana bir bema'mi urinishdan to'xtatib qolish uchun uni tishlab, yundulab joni boricha harakat qildi. Oysha birdan noqqulay o'g'rligandi, tig' uning yuziga tegib yorib yubordi, qizginaning yuzidun qon tirqirab oqa boshladi. Gersoginya qo'rqqanidan qilqirib yubordi. U xizmatkorni o'dirib qo'ydim degan xayol bilan xanjarni itqidi-da, mushidekkina cho'rini bag'riga bosdi, uning tirik ekamini ko'rganidan so'ng sal-pal erkin nafas ola

boshladi. Bu ko'rigilklar undagi bor g'am-anduhlarni ham tur-
qatib yubordi va Oyshanning jarohatini yaxshilab yuvib-tozalab
bo'lganidan so'tng o'im to'g'risidagi bema'n ni xayollarga boshqa
berilmaydigan bo'idi.

Besh yildan beri gersoginyaning uyida bo'y-basti, aft-angori,
hatto fe'l-atvori bilan ham quyib qo'ygandek gersogining o'ziga
o'xhash, uning uzoq qarindoshlaridan Troilo Orsimi degan kim-
sa eshik og'asi bo'lib xizmat qilardi. Bu odamning gersogidan
yagona farqi, o'ziga topshirilgan vazifani sidqidildan, halol addo
etishida edi, gersogdek baxtli bo'ib tug'ilish nasib etmagach,
nimayam qilsin. Izabella eri yo'q paytlarda o'zi boshqarishiga
to'g'ri keladigan hovli-joyda o'gudek zerikardi, vaholanki,
vaqtini chog' o'tkazish uchun abjirlik, kuch talab etuvchi
ko'ngilochar o'yinlar uning uchun muhayyo edi, u soatlاب
ot chopardi, tirmashib qoyalarga ham chiqardi, so'ng qizib
keganidan tog'ning muzdekkina soyiga o'zini tashlab, hovurini
bosib ham olardi. Troilo Orsimi yonidan jilmay unga hamrohlilik
qilardi. Bu saroy xizmatkori unga ko'ngil qo'ygandi va Izabella
bularini garchi sezmasa-da, Orsimi vazifasidan foydalab,
gersoginya o'zini yolg'iz his etmasligi uchun ayolga ancha-mun-
cha mayda xizmatlar ko'rsatib turardi. Troiloning tuyg'ularini
Izabella mutlaqo payqamasdi; u bor-yo'g'i xizmatkor edi, xolos,
Izabella unga o'zining sodiq iti yoki otiga qaragandek qarardi.
Ayl sekin-asta uni o'ziga yaqinlashtirisha jur'at etib, dam-

hadam uning qo'liga suyanar, uni o'z xonasida qarshi olib,
uning oldida yechinardi ham...

Troilo bir paytlar gersogining qo'shinida xizmat qilgandi, xiz-
mat qilganda ham mardarcha jang qilib, o'ng qo'lidan yaralan-
gandi, shu-shu u butunlay yaroqsiz bo'lib qolgandi. Bu maj-
rolik uni jangovar qahramonliklardan voz kechishga majbur
qildi. Shundan so'ng gersog Orsinining gardamiga xo'salkni
topshurish vazifasini yuklab qo'ygandi, garchand bu ish uning
ko'nglidagidek bo'lmasa-da, biroq u o'ziga topshirilgan ishni
suhqdildan ado etishga o'rganib ketgandi. Gersoginya Orsimini
o'siga yuqinlashishga izn berganda, boshda halovatning avj pal-
losga erishganini his etdi-yu, biroq keyinchalik bundan qattiq
ko'ngli qoldi. Bir tarafdan ehtirosdan esi og'ay derdi, boshqa
tomondu sevgan ayloning unga jonsiz buyumdek munosabatda
ham unti iztirobga solardi.

* * *

Brachehano jo'nab ketgandan so'ng ikki oy o'tib, gersoginya
Troiloni chaqirishni buyurdidi. Ertalab kun odatdagidan issiq,
yarm yulang'och Izabella Oyshanning yonida sochini taratib
etardi. Xizmatkor kelganida ayol boshini ham ko'tarmay,
o'lib qolgan to'timing ahvolini surishtira ketdi. Troilo bir lahma
ihlon qoldi. U bir vaqtning o'zida ham xohish, ham g'azab o'tida
qiyuyog'an uning go'zal yelkalaridan ko'z uzolmay qoldi. «Bu
qiyuyog'an uning go'zal yelkalaridan ko'z uzolmay qoldi. «Bu

ayollar tap tortmay mening yonimda yechinaveradi?». «Erkak emas» degan so'zdan uning battar fig'oni falakka chiqsa-da, baribir tishimi-tishiga borsdi.

— Shunday qilib, Troilo, to'ti... — dedi gersoginya sabrsizlik bilan o'sha-o'sha boshini ko'tarmay.

— Shunday qilib, xonim, — cho'rt kesib dedi Troilo, — to'tilaringizga qarash uchun endi saroydan boshqa xizmatkor yollaysiz. Ertadan boshlab men sizning xizmatkorinig emas man.

Bunday ohang gersoginyani hayron qoldirdi, chunki Troilo unga har doim o'ta odob bilan murojaat etib kelardi. Aylol boshami ko'tardi, ikki oy avval Brachchanoning surati qo'yilgan joyda Troilo Orsini devorga suyanib turardi. U qo'llarini ko'kragiga chalishitirib, g'azabi nigohini ayolga qadagandi. Gersoginya seskanib tushdi. Bu naq gersogning nigoji edi.

— Troilo, nima gap o'zi? — dedi xizmatkorning shartakiligidan o'ziga kelolmay ayol. — Sizni xafa qilishdini deyman?

— Ha, xonim, — dedi muloyim ovozda Troilo hamon ayoldan darg'azab ko'zlarini uzmay, — meni ayovsiz tahoqirlashdi.

U qalitirab turgan qo'llari bilan Izabellanining o'zini ko'rsatdi. — Hali memmi, Troilo? — azbaroyi hayratdan qichqirib yubordi gersoginya. — Hali memmi sizni tahoqirlagan? Nima qilib tahqirlabman?

— Mana, xonim, nima qilib, — dedi u qo'li bilan ayolning yarim yalang' och tanasini ko'rsatib.

Chap nimada ekanligini daf'atan Izabella tushummadid. Tushungundun so'ng yuzi cho'g'day qizarib ketdi. Troiloling birgina ihorasi unga jonsiz buyumdek qarashlarini chippakka chiqarib yuborgundi. U o'zini chetdan yarim yalang' och, buning ustiga oraklarning ko'z oldida kishining g'ashini keltirradigan qiyofada kivid. Sharm-hayo, g'azab va nafrat bir bo'lib uning ko'nglini shunaqungi alg ov-dalg' ov qilib yubordiki, sal bo'imsa hushdin ketayozdi.

— Yaramas! — qichqirgancha sapchib o'rnidan turib ketdi Izhella. — Hali sen o'z bekangga ko'z olaytiradigan bo'ldingmi!

— Xizmatkor bo'la turib-a?

U yugurib to'shagi yoniga keldi-da, yostiq tagiga yashirib qo'yuan xanjarni olib, Troiloga tashlandi. Troilo bor bo'yicha quiddini rostladi-da, o'sha-o'sha qo'llimi qovushtirgancha tek qilib turaverdi. Xizmatkor hali bu darajada gersogga o'xshab hemugundi.

— Ivachcha! — dedi ayol teskari qarab, jahd bilan xanjarni konaning narigi burchagiga utoqtiarkan. — Yo'qol! Bundan keyin qorangni ko'rmay!

— Shunday bo'lgach, men bu dargohdan hoziroq ketaman,

— qo'yuvqina dedi Troilo.

— Ittuga! — baqirdi gersoginya nima deyavotganini o'zi ham anglamay. — O'zing «ertaga» dedingmi, demak faqat ertaga ketoson! Agar itoat etmasang, seni qamab qo'yishlarini buyura-

man!

Troilo aylolga g'lati qaradi.

— Men nima ham derdim! — dedi u mutlaqo xotirjam ohangda.

— Ixtiyor sизда. Ertaga bo'lsa, ertaga-da.

U ta'zim qildi-da, chiqib ketdi. G'azabdan ko'zlar yongun gersoginya qattiq tugilgan mushtumlarini tishlagancha xonaningu u yog'idan-bu yog'iga borib-kelardi. Bu telbalikdan uzoq vaqt xalos bo'lomnadi.

— Nega jahling chiqiyapti? — daf'atan so'radi Oysha mavritan-cha taomilga ko'ra unga «esen» deya murojaat etib, — u erkak bo'lsa, sen esa ko'zga yaqin ayol bo'lsang.

— Eshik og'asi! — qichqirdi gersoginya. — Mening xizmatkorim!

Davom ettrishga endi ayloning holi qolmagandi. Boshqa so'z ham topolmayogandi.

— U axir erkak bo'lsa, — takrorladi Oysha unga ma'noli ko'z tashlab.

Bu nigoh gersoginyani taajubga soldi. U o'ta ziyrak ayol edi, shu bois Orsini ikkalasi o'rtasidagi mujmal munosabati fahmlamasligi mumkin emasdi. O'zimi sarkashlikdan tiyolmay, evaziga topgan huzur-halovat uchun o'zini la'natlardi. Mening badanimni tomosha qilganidan qanchalik huzurlanayotganini bilmas darajada ovsar emasman-ku.

— Oh, qabohat! — dedi gersoginya baland ovozda yana xonaning u burchidan bu burchiga borib kelarkan. — Uning erkakligini go'yo bilmagandek o'zimni go'llikka soldim... Borib

turgan tanozu eng past suyuqoyoq ham bunday... — davom etdi ayol zo'r hayajon bilan va gapi oxiriga yetmadi. — Orsini shundey olyhimmat asilzodalaridan bo'lsa, buning nimasi ajabla-niroll...

Ayol birdan Orsini oqlayotganini fahmlab goldi va uning qo'polligi o'zini ko'pam haqoratlamaganini xavotir aralish sezib qoldi.

— Haqoratlangan emishman, biroq kimming oldida? — dedi va hirdan kulib yubordi. — O'zimni-o'zim aldashdan nima soyda? Men o'zi kimman — gersoginya Brachchanomi yo tashlab ketilgan ayol? Ustiga-ustak endi yosh emasman, — qo'shib qo'ydi u, oynada unga hafta mobaynidha tinchlik bermay kelayotgan alunga boqarkan.

Yuzidagi ajinga ko'zi tushishi bilanoq uning kayfiyatı tushib ketdi. O'ringa o'zini tashlabi-da, yuzini yostiqqa burkadi.

Nima bo'pit! — dedi u keechqurun biroz o'zini bosib olgach. Men to'g'ri yo'l tutdim. Orsini ertaga jo'nab ketishi birdan-bir to'g'ri yo'l... Qanaqasiga! — baqirib yubordi u yana o'sha zahoti. Demak, u ham meni tashlab ketar ekan-da?

«U hum-a?» degan so'zni tilga olganida, qattiq uyat yuragini vitob yubordi. Ayol birdan Orsini gersogga tenglashtirib xato qilayotganini payqab qoldi.

Xizmatkor! — dedi u ovozini chiqarib, «Xizmatkor» so'zi unchumucha bo'lsa-da, sho'rlik gersoginya istasa qo'1 siltashi

mumkin bo'lgan ular orasidagi bordan-bir yagona mustahkan
to'siq edi. Shaffatsiz g'am-g'ussa uni azoblashdan charchamas-
di. Gersoginya Orsini jo'nab ketgandan keyingi hayotini ko'z
oldiga keltirdi-da, undan yuz o'girgan gersogdan so'ng ayol-
ni o'z g'amxo'rliklari bilan qo'llab-quvvatlab turgan yagona
inson ekanligini tushunib yetdi. U beixtiyor qachonlardir
Brachchanoning surati turgan joyga nazar tashladi va suratni

u yerdan olib ketishgani yodiga tushdi. So'ng anche vaqtgacha
karaxt bir holda o'z to'shagida qimirlamay o'tirdi.

— Ketsa ketaversin! — dedi u nihoyat boshini ko'tarib. —
Or-nomusli ayol shunday yo'l tutadi... Or-nomusli... — tezda
takrorladi u alammok kulgi bilan. — Erimni ushlab qolish uchun
o'sha or-nomus deganlari menga nima qilib berdi?

Kech soat o'n birlarda gersoginyaning yoniga chopar keldi.
U gersogni kuzatish maqsadida gersoginya tomonidan tayinlan-
gan odam bo'lib, shu topda yangi mujda bilan tashrif buyurgan-
di: Brachchano mavritan qaroqchilariga qarshi flotni safarga
hozirlayapti ekan. Uning o'zi Venesiya bo'lib, Lukresiya ham
unga ergashib o'sha yerga ketgan. Brachchano oqshomlarini
ayol bilan birga o'tkazarkan.

— Oysha, — qichqirdi gersoginya, — Troilani chaqir bu yerga!
Zudlik bilan huzurimga kelsin! Bu mening amrim!

Bir payt rang-quti o'chgan, ammo xotirjam holda Orsini
kirib keldi. Ayol hamon ayg'oqchi keltirgan chaquv mak-

tubini titroqli qo'lida ushlab turgancha unga nazar tashladi.
Ilo'ng Izabella maktubni g'ijmladi-da, burchakka uloqtirdi va
Orsining yoniga keldi.

— Junob, — dedi gersoginya, xizmatkorga deyarli yopishib, —
men oldingizda gunohkorman va bu aybimni yuvishga tayyor-
momin...

II

Itki oy o'tgach, Izabella akasining Florensiyadagi qasriga
jo'nab keldi. Akasi bir yildan beri uni chaqirgani-chaqirgan edi,
garchi Franchesko unda mehrdan ko'ra ko'proq qo'rquiv his-
sini uyg'otsa-da, o'z akasiga itoat etishdan uzoq vaqt o'zini olib
qo'chihsining iloji yo'q edi; o'sha paytlar akasiga deyarlik eridek
qilhamutga egalik qilish nasib etgandi.

Ayolning sayohatidan asl maqsadi Franchesko saryoyida xiz-
mat qiluvchi o'n to'rt yoshi o'g'i Virjinio bilan ko'rishish edi.
Troilo Orsini esa bu safarda unga xizmatkor sifatida hamrohilik
qilardi, biroq gersoginya negadir Oyshani nomalum sabablarga
kor'a o'zi bilan olib kelmagandi. Ehtimol, bu hol mavritanlik
qizni bevaqt ajaldan yoki, jilla qursa azob-uqubatdan saqlab
qolgan bo'lsa, ajab emasdi.

Vluchesko Brachchanoning izzatini joyiga qo'ygan-
deki, Izabellani ham qora sarupoda, dabdabali mulozimlar

hamrohligidä, otga minib, alohida hurmat-entiron bilan kutib olishga chiqdi. Shunga qaramay, ular zo'rg'a yolg'iz qolishdi va aka ta'rifga sig'mas qahrii nigoh bilan singlisiga yeb q'o'yudek tikildi-da:

— Mabodo Brachchano haqida mening qulog'imga chalma-yotgan uzunquloq gaplar rost bo'lsa, bundan o'n sakkiz yil buren gapimga kirib, cherkovga ketganimizda oqlona yo'l tutgan bo'irdingiz, — dedi.

Bularning bari gersoginyani ranjitish niyatida oldindan o'ylab qo'yilgan uzundan-uzoq nutqning debochasi edi. U gapni ayolning tashqi ko'rinishiga istezholi tahnin o'qishdan boshladi, so'ng gersoginya o'zini qiyonoqda qolqandek his etib azobchekishi uchun ularni nafrat to'la nigoji bilan kuzatgancha singlisini had-dan ziyod litfitoga ko'rib tashadi. Francheskoning jag'i bir zum timmas, qop-qora kiyimga burkanib olib, bukchaygancha aylining atrofida parvona edi, to'g'iriroq'i, u yoqdan-bu yoqqa timmay borib kelar va akasining har bir harakati zamirida allaqanday vahimali, yovvuz nimadir bor edi. Sho'rik gersoginya ko'z ochib-yumguncha burda-burda qilishga shay turgan yiriqichlar ichiga tushib qolgandek his etardi o'zini. Nihoyat Franchesko yo'liga tushib ostonaga yelganda mutlaqo beparvolik bilan gersoginya o'g'ilini ko'rolmasligini ma'lum qildi: o'g'il va yana bir qancha saroy a'yonlari kechagina Brachchano uchun Venesiya yaga pul olib ketishgandi. Gersoginya o'z xonasiga qaytgamidan so'ng

Ushu zahoti Troilo Orsiniga odam jo'natdi. U saroy hovlisida lebellaning buyumlari ortilgan aravani bo'shatishga ko'z-qulonq bo'lib turgandi: Orsimi o'z ishining jonkuyari, chaqqon hir hisson sifatida ayman gersoginyaning qimmatli yuqlarini qasr-niñ ayol uchun ajratilgan joyiga tashiyoygan bir paytda zaru-niñ yuzasidan bo'lsa-da, birroyga chiqib ketish ham uni ranjiddi. Troilo Izabellaning ayni yig'lab turgani ustiga kelib qoldi; ayol Florensiyaga yaqnilashib qolgan bir paytda, o'g'li Virjinio aka-sining buyrug'i bilan Venesiyaga yo'l olgandi. Francheskoning bu nuyrangi Orsinini ozmuncha iztirobga solmadi. Gersoginya hizbroyi akasini humrat qileganidan uning taklifi qabul qilishdi shoshqaloqlikka yo'l qo'ymadimikan, deb o'ya toldi Orsimi.

Gersoginya o'z yotoqxonasidan birgina parda bilan to'sib qo'yilgan alohida xonaga chiqib ketdi va oqsochlar uni yechin-tiñi boshlashdi. Orsimi ayloga ergashardi-yu, birroq, u yerdan suroy hovlisi ko'rinnmasligi ma'lum bo'igach, yotoqxonaga qaytdi-du, yana gersoginya bilan subbatini davom ettidi va bir vaqtning o'zida yuk tushirayotgan xizmatkorlardan ham xabardor bo'llib turdi.

Orsiniga yuragini bo'shatgan gersoginyaning qo'rquvlarini turqadi. Bu orada oqsochlar uni cho'miltirishdi, buning shunday rohatlandidi, hatto u yo'qqa chiqqan umidlarini ham deyarli unutdi. So'nggi ikki yil davomida o'z mazmunini yo'qotgan bu hayot, yooqimli yaqinlikdan so'ne qayta o'z o'miga

tushgandek bo'ldi. Brachchano bilan bo'ladigan kamdan-kam uchrashuvlar va Orsimining uning yonida bo'lishi oxir-oqibat gersoginyaning butun jon-tani bilan berilib ketgan halovat tuyg'usini his etishga sabab bo'ldi. Mana, ikki oydirki, ular bir-birlaridan ayrılmay, odob-axloq qoidalalarining hech bir taomiliga amal ham qilmay eng namunali er-xotinlardek yashab kelishardi. O'zaro munosabatning oddiyligi gersoginyaga ulkan zavq bag'ishlardi. Umrida birinchchi marotaba bu mag'rur ayol deyarli muloyim bo'lismaga va qushchadek chug'urlab so'lashga jur'at eta olgandi.

Negaki bu safar Orsini faqat ahyon-ahyonda, qisqa, lo'nda javob qaytarardi. Oxiri Izabella parda ortidan turib:

– Nima bilan bandsiz? Gapimni eshitmayapsizmi deyman? – dedi.

– Men yuqingizni nazorat qilish bilan bandman.

Gersoginya kulib yubordi-da, tegajog'lik qilib:

– Juda serhafsalasiz-da! Bilasizmi, men sizni juda qo'pol odam deb bilaman! – dedi.

– Xonim, men ovozingizni ham, so'zlarigizni ham yaxshi eshityapman, – dedi Orsini yoqimli ohangda. – Ovozingizni eshitsam xursand bo'laman, biroq boshqa payt bo'lganda so'zlarigizni javobsiz qoldirmasdim.

– Qanday surbetlik! Boshqacha aytganda, men aljirayotgan ekanman-da?

– Men bunday demadim!

– Qulog'im sida! – kulib e'tiroz bildirdi gersoginya. – Rostini bytsam, ovozingizga unchalik ham ilhaq emasman, yonimda ekaningizni his etib tursam bo'lgani.

Shu on Orsini oynadan boshini chiqarib qaragandi, yuk tushirayotgan xizmatkorlardan birining tezda u yoq-bu yoqqa ko'z tashlab, o'girilib, qo'yninga nimanidir yashirgamini ko'rib qoldi. U bu isjni shunday epchilik bilan uddaladiki, Orsini hatto ko'zhariqa ishommadidi. Ko'rganlari haqiqat ekaniga ishnoch hosil qilish uchun u shoshib gersoginyaning xonasiga chiqib u yerdan hovliga tushdi.

Gilamlar uning qadam tovushlarini yutib, Izabella Troiloring ketg'uni sezmay qoldi.

– Ommatli Troilo, – davom etdi dimog'i chog' ayol kimsasiz konuga murojaat etarkan, – mabodo siz... shoshmang, o'shanda siz mug'rur turib nima dedingiz? – Ha, «ayovsiz kamstitingiz», shu men shu tobdha hech bir mubolag'asiz sizga ko'rinsam-chi? Pokiza qo'llaringiz bilan yuzlaringizni berkitishga shoshibling, o'shu sizning xayolingizni band etgan yuklardan ko'zingizni uzung, yo'qsa, hozir ko'z-o'ngingizda namoyon bo'ladigan manzara yana sizni tahqirlashi mumkin. Ana, xolos! – davom etdi aylkulib. – Aytadigan gapingiz yo'qmi? Siz meni ko'rmay turib halitdan raujidingiz chog'i? Nahotki, mening go'zalligimni ituvvur etish ham sizning izzat-nafsingiz uchun qo'rqnichli bo'lad!

U qo'li bilan pardani surdi-da, nafislikdan namiqib, yonib turgan katta-katta moviy ko'zlarini o'ynatgancha, kulib, deyarli ochiq-sochiq holda xonaga kirib keldi. Biroq, bir-ikki qadam yurar-yurmas turgan joyida qotdi-qoldi: ro'parasida qop-qora libosga burkangan, katta boshini bir yonga engashtirgancha Franchesko Medichi ayloga teshib yuborgudek tikilib turardi. Us singlisining xonasi yonidan tasodifan o'tib keta turib ayoqning eshigi ochiqligini ko'rgan va kirgan, barcha gaplarini eshitgan ham edi.

Izabella endi tamom bo'ldim, deb o'ylagan bo'lsa-da, Francheskoning ayloga yeb qo'ygudek tikilib qarashi oldida ajal ham unchilik qo'rjinchi tuyulmayotgandi. Francheskoning yuzi nafrat va qo'msovning aql bovar qilmas qorishuvidan tirishib-burishib ketgandi.

Bir necha daqqa shu zaylda o'tdi. Akasi qayerda va quy holada Izabellamning ustidan chiqib qolgan bo'lsa, ayol o'sha yerda va o'sha holatda haykaldek qotib turardi. Franchesko ham qimir etmayotgandi. Faqat uning ko'zlarini bejo boqardi. Gersoginyaning badani bo'ylab yugurgan sayin u ko'zlar tobara qonga to'lib borardi. Izabella uning nigohida uqigan aralash-quralash bo'lib ketgan adovat va shahvoniy hirlar shu qadar qo'rjinchi ediki, Franchesko xanjarni qinidan sug'urib olganida gersoginya beixtiyor o'zini yengil his etdi. Akasining qo'li va nigohi go'yo qarama-qarshi buyruqqa bo'yusungandek, Izabellaga yeb yuborgudek boqdi-da, xanjarni juda ohistalik

tillan sug'urdi. U garchand ayloga yaqin turgan bo'lsa-da, Izabellaga xanjari sanchish uchun oldinga bir qadam ham homadi. Qo'llari qurolni arang tutib turar va yovuz, hirs to'la nighini Izabelladan uzmay, xirillab nafas olandi.

Ko'ksi bilan o'zini tig'ga tashlagandek, gersoginya unga penhvoz chiqdi. Birdan Francheskoning nighidagi nur ham so'ndi. Akasi xanjarning damidan tutgancha, sop tomoni bilan Izabellaga uzaqtadi. Keyin ko'zlarini yerga olgancha, pastki lablari titrab, Izabellaga teskari qarab turaverdi.

Izabella xanjarni qo'liga olishi bilan Franchesko shiddat bilan chiqib ketdi. Bu vaqt ichida u churq etib og'iz ochmadi.

Izabella xanjarni to'shagiga tashladi-da, yugurib deraza yoni-ga bordi va ovozinинг boricha qichqirib Troiloni chaqirdi. Biroq u, o'g'ri bilan andarmon bo'lib, shovqin-suron ko'tarayotgan xizmatkorlar to'dasi orasida qolib ketgan, hech nimani eshit-muyotgandi. Gersoginya mushkul ahvolda qolgandi: Orsinining o'i undan bir necha qadam narida hali egarlog'liq turar, qasr darvozasi esa lang ochiq edi. Orsinining hali qochib qutulishga imkonibor edi.

Oxiri Troilo boshini ko'tarib derazaga qaragandi, ko'zi Izabellaga tushdi. Ayol, «Qoching!» deb shunday dahshatli qichqirdiki, hovlidagi to's-to' polon ham taqqa to'xtadi. Qasr darvozalari muqarrar o'sha zahoti harakatga keldi. Francheskoning soqchilari har tarafdan xizmatkor tomon odimlay boshladilar. Orsini barcha sir oshkor bo'lganini,

endi uni ushlab, qynoqqa solishlarini, pajmurda tanasini axlatxonaga uloqturishlarini darrov fahmladi. O'janing endi qo'idan chiqmasligiga battamom ishongan soqchilarining Orsin tomonga shoshilmay, bafurja kelayotganlarini kuzatib turardi. So'ng xizmatkor nigholini yana gersoginya tomonga o'girdi. Gersoginya ikkala qo'li bilan deraza tepasia yopishgancha, Troiloga ta'zim qildi. Troilo ham uning ta'zimiga ta'zim bilan javob berdi.

Soqchilar boshlig'i Orsinining yoniga keldi. Izabella uning gapimi eshitmadni, biroq Orsini soqchilar boshlig'iga qanday qilib qilchimi va xanjarni topshirganini ko'rdi. Ikkita soqchi zudlik bilan ikki yondon kelib turib oldi, biroq unga tegmadir. Orsini soqchilar o'rtaida xuddi postda turgandek qaddini g'oz tutib turardi. Soqchilar boshlig'i allaqanday buyruq berdi. Izabella butun guruh joyidan qo'zg'alib, hovli bilan qasning shimoliy qanoti tomon ketayotganini ko'rdi. Chap tomondag'i soqchingning to'satdan oyog'i tolib, bezovtalandi, Orsini g'ijinib unga o'girildi-da, aftidan tanbeh berdi shekili, u darrov o'zini o'nglab oldi. «Eh, Troilo! – haloliling boshimizga yetdi», dedi gersoginya ohista ovoz chiqarib! Bosnga tushgan musibatlarga tashqaridan nazar solsang, umidsizlik o'zining so'nggi nuqtasini yetganiga amin bo'lasan.

Kechga yaqin Izabella devor orqasida qandaydir show-qin ko'tarilganini, dukur-dukur va taraqa-turuq ovoz-lar kelayotganini, yerdan go'yo og'ir nimanidir sudrab

tortuyotganlarini eshitdi. Ayol eshkini ochdi. Ikkii soqchi ayolga e'tibor ham bermay, oyboltalarini qirib tozalashardi.

Ayol o'z xonasiga qaytdi. Bu orada qo'shni binodagi te'polon hamon davom etardi. Daf'atan eshitilgan qichqiriqdan gersoginyanining yuragi orqasiga tortib ketdi. Ayol Orsinining ovozini darrov tanidi.

Franceskoning buyrug'i bilan soqchilar asirni yechintirishiuyotgan paytda, gersog uning o'ng qo'li qisman falaj bo'lib qolganini payqadi va uni jallodga ko'rsatti.

IKKI SOAT DAVOMIDA O'QTIN-O'QTIN YANA XUDDI SHUNDAY DAHSHULI DOD-FARYODLAR ESHITILIB TURDI VA SHUNDA GERSOGINYA YANA OSHKINI OCHDI-DA, SOQCHILARDAN BIRIGA UZNIQ-YULUQ Qilib:

– Akamni bu yoqqa chaqir! – dedi.

Soqchingning paysalga solayotganini payqagan gersoginya:
– Agar jomingdan umiding bo'lsa, akamni bu yoqqa chaqir,
– dedi buyruq ohangjida.

Francesko atrofiga olazarak ko'z tashladi-da, ijdam odimlar bilan karavot oldiga keldi va xanjarni olib, uni qiniga yashirdi. Uning yonida qilch yo'q edi, shu bois ham Izabellanining yoniga qurolsiz kira turib, ayolda uning Joniga qasd qilish istagi lug'ilib qolishidan cho'chidi. Ayni damda akasi gersoginyanining ko'ziga shunday yomon ko'rinib ketdiki, o'zining nodonligidan pushuymon yedi.

– Orsinidan nima istaysiz? – dedi gersoginya o'zini vazmin tulishga urinib.

– Jinoyatini bo'yniga olsin-da, mana bu iqromomaga imzo cheksin.

– Afidan hali bunga erishmagan ko'rinasiz.

– Ha, hali erishganmcha yo'q, – dedi Franchesko.

Akasi tishlarini ko'rsatib ishsaydi-da:

– Shoshayotgan joyimiz yo'q, – deya qo'shib qo'ydi.

Gersoginyaning indamaganini ko'rib, so'zida davom etdi:

– Bu baqir-chaqirlardan oromingiz buzilmaydi deb umid qilaman.

– Bularni menga eshitirish uchun ozmuncha chirrandingizni, dedi gersoginya cheksiz nafrat ila. – Yanglishmasam, zindon shinoliy qanonda joylashgan.

Lahzalik sukutdan so'ng:

– Orsimning qarindosh-urug'hari, uni shu ko'ya solib azob- layotgamingizni bilib qolishsa, ular sizni ayab o'tirishmas deb o'ylayman, – dedi Izabella.

– Biroq Orsinilar xonadoni mendan minnatdor bo'ladi.

Gersoginya bir necha qadam tashlab, keyin to'xtadi va akasiga tukilib qaradi.

– Iqrornomaga agar men imzo cheksam, unda Orsimini qiyashni bas qilasizmi?

Francesko g'azabini zo'rg'a bosib, boshini egdi va qo'lini orqaqa qilib:

– Gap bitta, – dedi past ovozda.

Ayol unga nazar soldi. Basharasidan munofiqlik ufurib turigan bu nusxa, nahotki, so'zda turish degan narsani ham bilsa, degan o'y miyasidan lip etib o'didi.

– Men imzo chekkan iqromoma nima bo'ladi?

Eringiz Brachchano sizni sevib, o'z ojiziğini namoyon etib bo'ygan. Shu bois ham dalil-isbotsiz u menga ishonmaydi.

Brachchano hamon ayolni sevishimi eshitgan gersoginya buning hayron bo'lib, sarosimalanib qoldi. So'ng:

– Xizmatkorlar, ehtimol, hammasini yetkazib ulgurishgan di, – dedi u.

Xizmatkorlar oyog'ini «kavush»ingiz bilan bir bossangiz kifoya, istagan gapingizni gapitirishga ularni majbur qilish qiyin emas. Biroq Brachchano bunday dalil-isbotlarga boy'bornaydi.

Izabella jum turardi.

Xo'sh, – dedi Francesko, – endi nima qilamiz?

Ayol unga qaradi.

Siz nima deb o'ylaysiz? – so'radi ayol g'alati qiyofada, – shu topda pop meni jon berayotgan odam deya hisoblashi mumkinmi?

Shubhasiz. Baribir sizning o'chamli umringiz qoldi. Izabella ibodat uchun xizmat qiluvchi o'rindiq yoniga bordida, uz cho'kdi va yuzini kaftari bilan berkitdi.

Ayolning ibodat qilishiga Francesko xalaqit qilmadi. U xudojo'y edi va har kuni tongda diniy marosimda qatnashini kanda qilmassi, shunday bo'lsa-da, qo'l urayotgan jinoyaturlidan vijdoni qiyalmassi, ozgina gunohlari esa ba'zan qolbini qutqarib qolishga uni majbur qillardi.

Ko'p o'tmay Izabella o'midan turdi-da, akasining ko'ziga tik qaradi.

– Agar iqrornomaga imzo cheksam, Orsimini qiyashni bas qilishga so'z berdingiz-a?

– Ha, xuddi shunday, so'z berdim.

– Menga hozir, mana shu lahzaning o'zida so'z berdingiz.

– Inkor etmayman. Nega buncha ijiklaysiz?

Ayol o'rindiq tepasida osilib turgan Iso suratiga qaradi-da:

– Basharti so'zingizdan qaytsangiz, sizni jahannanga ravona qilishini hozir Yaratgandan so'radi, – dedi ayol so'zlarini chertib-chertib.

Francheskonning rangi quv o'chdi. O'sha paytda xurofiy afsonalarga ko'ra, o'layotganning duosi alohida ta'sir kuchga ega edi.

– Men siza so'z beraman, – dedi u zo'rg'a.

Ayol stolga o'tirdi-da, qog'ozga naridan-beri bir necha satr qoraladi va uni akasiga uzatdi.

Franchesko varaqqa ko'z yogurturib chiqli va uni qo'yning berkitti-da, esnik tomon yo'l oldi. U ostonada toxtadi va sovuqning qilib:

– Iqrornomaga bekor imzo chekdingiz, – dedi – Orsimi shundoq ham o'zini mardonan tutdi: u olsa ham churq etmasdi.

– Shunday qilishiga ishonardim.

– Shunday ekan, jonningizga jabr qilib nima zarur edi sizza?

Ayol uni boshdan-oyoq uzoq nazardan o'tkazdi-da, ohista daldi.

– Sizdek akalar bo'lgan bu dunyonin tashlab ketsam, o'zimni hissiyor his etaman, ishonavering.

Bu so'zlar Franceskoga qattiq botdi. Undagi bor xususiyatlari yashirib turgan hissizlik niqobi go'yo birdan tushib ketgandek edi. Uning basharasi tirishi, oski lablari titray tishlidi, og'iz ochishga ham madori qolmadı. «Nahotki, bu tura ham biron nimani his etishga qodir bo'lsa?» – xayoldan o'tkazdi gersoginya ajablanib. Akasi bilan bo'lgan uchrashev dan so'ng aylonning olgan taassurotlari shundan iborat edi, solon. U singlisiga ortiq bir so'z demay chiqib ketdi.

Franchesko o'lguday charchagandi. U past ovozda jalodga mahbusni bo'shatishni va Brachchano yetib kelguncha uni dorustroq sharoitida saqlab turishni buyurdi. U paytlar Italiyada singlisining axloqsizligi uchun akasi uning eridan kam tahqiqiga iehramusa-da, biroq or-nomus qoidalari uzil-kesil hukm chiqatishni uyloning tan mahramiga havola etgandi. Basharti eri, unning ikkovidan ham o'ch olmasa yoki o'ch olishni istamasa, unda bu ishni oxiriga yetkazish va isnodni qon bilan yuvish aka ning zimmasisga tushardi.

O'z ibodatxonasiga lattadek bo'shashib kirib kelgan Francesko o'zini bir ozgina qo'yib berdi: bir necha soat ilgari bo'llib o'tgan voqeadan afsuslandi; Izbellanining yotoqxonasida

III

bo'lganini bildirmay, yaxshisi, yo'lida davom etgani ma'qul bo'larmidi. Biroq shu zahoti o'zining ojizligidan qo'rqib ketdi. «Qanday qilib, – o'yladi u, – o'z ko'zim bilan ko'rganlarimni ko'rmadim deb munofiqlik qilishim mumkin?» Miyasiga mah-kam o'mashib qolgan, xonaga kirish ilmijda pardani salgina ko'tarib qarayotgan Izabellanining chiroyli chehrasi ko'z oldidan ketmasdi. «Yo'q, yo'q! – dedi u bu dudmal vahimadan qo'llari bilan yuzimi berkitib tiz cho'karkan. – Xudoym! Mayli, o'sha o'laversin! Mayli, o'laversin! Bari tezroq tugay qolsin bu mash-mashalar!»

U ibodatdan so'ng o'zini ancha xotirjam his etdi va Brachchanoga o'zi yoqtirgan o'git-nasihat usuli tarzida uzundan-uzoq maktub yozdi. Xatga Izabellanining tavbasi va xizmatkorlardan olingan ko'rsatmalar ham tirkaldi. Pirovardida, bu xabarni munosib tarzda qat'iyat bilan qabul qilishini va or-nomus uchun javobgarlikni o'z zimmasiغا olgan shaxs sifatida o'ch olishni kechiktirmaslikni kuyoviga uqtirdi. Uzunquloq gaplarga qaraganda, baridan bizning voqiffigimiz, aifidan, zamondoshlarimizni hayratda qoldiribdi degan xabarni ham o'z maslahatida bildirib o'tgandi. «Yodigizda bo'lsin, – deb yoz-di Francesko, – erkakka zulm o'kazish gersoginyani hayot-dan mahrum etadi, o'zingizni aslzodalardek, nasroniyalarga xos munosib tutishni unutmang» («gicogdatevi d yesseg gentiromo ye sgistiano»).

Chopar Medichching maktubini topshirayotganda otga minib o'lgan Brachchano muloziminar orasida senat yig'ilishiqa kirish iqtisida turardi. Uning butun diqqat-e'tibori gersoginnyaning levba-tuzarrusi bilan band bo'lgani uchun shosha-pisha, noridun-beri xotinining akasi yuborgan xatga ko'z yugurturdi-da, Izabellanining nega Florensiyada ekamiga tushunolmadı. U miqdimudi, hatto senatni ogohhanturib qo'yishga bironita odam ham jo'natmay, es-hushidan ayrligan telbadek Venesiyadan otilib chiqdi-da, o'z yer-mulk'i tomon eltuvcchi yo'idan shiddat bilan ot choptirib ketdi. Unga hamrohlilik qiluvchi a'yonlarning esa bir-hilriga qarab-qarab qo'yishdan o'zga choraltari qolmagandi. Hunday o'qday uchib ketishdan muddao ne ekamini so'rashga bironasi jazm etolmadi. U esa otning yag'riniga engashgancha, jag'ini mahkam qisib, ikki ko'zini yo'idan uzmay yelday uchib berardi.

Manzil uzoq edi. Ottar bir necha bor almashtirildi. Gersog hoch kimga qaramas va churq ham etmasdi. O'sha paytlarda byttilshicha, u «fosh etmaguncha» churq etmaslikka o'ziga so'z bergandi.¹

O'sha yotoqxona derazasidan uning oddan tushganini ko'rdi va alt-angoridan uning baridan xabardor ekamini ham fahm-lidi. Gersog hovlidan chopib o'tdi va zinadan uning qadam

¹ O'z nomusи uchun o'ch olmaydi. – *Izoh muallifini*.

tovushlari eshitildi. Gersoginya eri bilan bo'ladigan uchrashuvni kutib, xona o'tasida g'oz turardi.

Gersog xanjarni mahkam qisgancha, darg'azab alpozda yu-gurib kirdi-da, past ovoza:

— Jirkanch maxluq, bekangni chaqir buyoqqa, — deb o'shqirdi.

— U Florensiyada, — xotirjam javob qildi Oysha.

Brachchano otda yeldek uchib borarkan, ko'z oldidan nuqul o'sha bir xil manzara ketmasdi: yugurib xotinining yoniga kira-di, ikkala qo'lli bilan ko'ylagiga chang solib, yirtadi, so'ng siyansiga xanjar sanchadi. Buni qancha ko'p o'ylagani bilan manzara tussizlanib qolayotgani yo'q edi. Taassurotlar har safar o'sha-o'sha, jonlangancha xotiradan sira nari ketmasdi. Mana, u telbalaracha ot chopturib kelayotganda o'ylagan intiqomdan laz-zatlanish oni yetib keldi. Garchand xotinini qo'liga tushirishga aniq ishonsa-da, faqat shu yerda va shu topda chovut solishga shunday ishtiyorq bilan shaylangan ediki, asti qo'yaverasiz. Afuski, xumorbosti uchun chovut solishga tirk jonning o'zi yo'q edi.

— Ey sen, qorayaloq fohisha! — o'shqirdi u Oyshaga tash-lanib. — Ikkovingning tiling bir senlarning! Birinchi bo'lib seni bo'g'izlayman!

— Pastkash! — qichqirdi Oysha o'z nasl-nasabiga xos mag'rurlik bilan. — Ayol kishiga teng bo'lilh sizdek jangchi uchun uyat emasmi?

O'shu zahoti Oysha yovvoyi mushukdek abjiilik va sherdek dovyuraklik bilan unga tashlandi-da, uni tepib, tishlab, timdah, humlasini qaytara ketdi. Ayollarga hirs qo'ygan gersog esa hu-junga o'zini noqulay his etardi. U zo'rg'a ko'zini ehtiyyotlab qoldi va kulgi bo'lganini sezdi. Oysha axiri uning qo'ilidan tilhab oldi va u xanjarni qo'ilidan tushirib yubordi; endi gersog Oyshoni tomog'idan bo'g'ishga harakat qilib, astoydil olisha ketdi. Kurash uning g'azabini bosgandi. Gersog o'z g'animining kuch-quvvatidan hayratda, jasurligiga esa uni maftun etgandi, ayolning opchil harakkatlari, xushbo'y isi, badanidagi yilirab turgan mujon-marjon ter tomchilaridan esa hayajonini bosolmasdi. Uning ko'yaklari aftoda bo'lib ketgandi. Gersogning ko'zi uning dirkilla turgan bug'doyrang siynalariga tushdi. Oxiri u qizning gavdasi va ikkala qo'llini birgina chap qo'lli bilan mah-kam qisdi-da, o'ng qo'llini uning bo'yiniga olib bordi.

— Xo'sh, nimani kutyapsan? — mag'rur turib dedi Oysha jitebzo bilan. — O'ldir!

— Shallaqi qorayaloq! — bo'kirdi Brachchano, go'yo uni tish-lab olmoqchidek, oppoq tishlarini tijiyatirib.

U qizni yerga irg'itdi-da, qo'llini qo'yib yubormay bor bo'yil bilan uning ustiga yotib oldi va o'z og'irligi bilan uni eza boshladi.

Gersog turayolganda, Oysha uning xanjarini sezdirmay oldi-

— Endi o'ldiraver. Men o'zimni baxтиyor his etayapman! — dedi.

Shu lahzada gersog o'ziga-o'zi haddan tashqari kulgill ko'riniб ketdi. Oyshanning ko'zida portlab turgan mehr gersogni o'ziga bo'ган hurmatini saqlab qolishga majbur qildi. Bu kuchli sadoqatni qadrlash va uni anglash uchun gersogda farosat yetarli edi. U xajarni qiniga sola turib, mavr qizining bosini siladi-da, muloyimlik bilan:

— Oysha, bor gapni yashirmay menga aytil ber, — dedi.

Gersog kuch ishlatiб qizdan bir og'iz ham gap ololmasdi. Muloyimlik Oyshanning qarshiliga barham berdi. U bor gapni miridan-sirigacha, yashirmay, samimiyat ila so'zlab berdi. Gersogni kimdir go'yo azoblayotgandek edi. U boshini changal-lagancha ingrab, xonaning u yog'idan-bu yog'iga borib ketardi. Oysha surat haqida gapirib berganda esa gersogning ko'zlaridan yosh otlib chiq qoshladi. «Bariga aybdor o'zim, — dedi u ma'yus. — Nima bo'lganda ham u baribir o'lishi kerrak».

Gersog Medichiga choper jo'nati. U Orsinining ta'zirini berib, bir yoqli qilishni butunlay qaymag'asiga havola etdi-da, xotinining kelishini talab qildi. Maktubni olgan Francheskomfig'oni fatakka chiqdi: qachonlardir uning qo'l ostida urushda bo'ган ikki turma nazoratchisi yordamida Orsini fursat g'animanda qo'chib qolgandi va u bilan birga yashiringandi.

Gersoginya ko'п sonli qurollangan oltiq askarlar to'dasi hamrohligida hamma tomoni berk aravada Brachchano saroyiga

yetib keldi. Gersoginyaning jo'nashidан ikki kun avval uning iuhoniysi orqali Orsini bo'yнiga olishga uni zo'rlamaganlarini va gersoginyani qutqarish uchun chora izlab topishini ma'lum qilishga ulgurgandi. Gersoginya ham xuddi shu yo'l bilan Oraunga o'zboshimchalik qilmasligini, hozircha unga hech bir kuvf yo'qligini aytil, uni ishontirgandi. Gersoginya unga o'zini etiyot qilishini va Fransiyadan boshpana topishini buyurdi. Orsini unga ishondi va itoat etdi. U chegaradan o'tib oldi va bir nochu kundan so'ng Parijga yetib keldi.

Gersoginya uyga qaytgan kun Brachchano Venesiya sonatidan bunday o'zboshimcha harakatning sababini tushun-tiib berishini niroyatda achchiq tarzda so'rab yozilgan chaqiruv muktubini oldi. Urzli sababsiz, hatto ogohlantirishsiz to'satdan Venesiya dan jo'nab ketishi bilan senatni haqoratlagandi va senatni xon deb gumon qilishiga ham oz qolgandi. Brachchano uzenaq qaytib borishga va senatni xotirjam qilishga oshiqardi. U niyati jiddiy ekamni va undan voz kechishini xayoliqa ham keltirmayotganini aytil, senatni ishontirdi-da, niyatini amalga oshirish uchun yeng shimarib g'ayrat bilan kirishib ketdi. Bir oy o'tib, flor mavr harbiy safariga taylor bo'gach, uyga qaytib, ishlurini tartibga ketitish uchun senatdan ruxsat so'radi.

Gersog o'z qasriga 1576-yilning 7-avgustida yetib keldi. Franchesko gersoginyaga xajarni uzatgan ondanoq aylol umming sunoqli kunlari qolganini bilardi va Brachchano darg'azab venesiyaliklarni tinchitgunga qadar u kechiktirishning boisi

nimada ekanini tinmay o'ylar ekan, hayrati ortardi. Oqshom tushgach, gersog bir soatdan so'ng gersoginyarning yonida hozir bo'lishini xabar qilganida, ayol yanada hayratlangandi.

Gersoginya, endi gersog meni ko'rishni umuman istamasa kerak va o'mnga yaqinlaridan birontasini jo'natar degan xayolda edi, negaki, aslizodalik nasabi ayolni jallod qo'lliga borib tushishdan himoya qillardi. Gersogning o'zi kelishi uni hamon hayratga solardi. Uning tashrifi ayoilning o'limidan darak bersa-da, u o'im to'g'risida o'yamasdi. Ayoilning fikri-zikri erimi ko'rish edi.

Bu orada gersoginyaning tuyg'ularida g'alati o'zgarish sodir bo'ldi. Orsinini xavf-xatar chetlab o'tganidan buyon ayol uni eslamay qo'ygandi va bir-birlari bilan yaqin bo'lgan ikki oylik davr ham gersoginyaning yodidan o'chib ketgandi. Uning kelaiagi bo'm-bo'sh, hoziri esa o'lmini kutish bilan o'tmoqda edi; shu bois ayol o'z o'tmishi bilan yashardi, va - ajab sawdo! Aynan o'sha uzoq o'tmish bilan u gersogga bo'lgan ilk muhabbatini qaytadan boshidan kechirmoqda edi.

Hech bir kelin o'z to'yiga Izabella singari so'nggi uchrashuvga taraddud ko'rgandek tayyorgarflik ko'rmasdi. Ayoilning turmagini Oysha qayta-qayta o'zgartirardi. Hech biri uning didiga o'tirishmasdi. Ko'ylik tanlashda ham birini bayramonamas deb, yana birini esa rangi yorqin emas deya bahona qilardi. Oysha yonida o'tirib, qimmatbaho taqinchoqlarini taqqani-

da eun gersoginya yanada go'zal va xursand ko'rinish ketdiki, buni ko'rib turgan Oysha: nahotki, qo'rqi mayotgan bo'lsangiz? deb so'rashga jur'at etdi. «Qo'rqqanda qandoq, - dedi ayol maftunkor ma'nodorlik bilan - u menga yaxshiroq tikilmay turib, meni o'dirib qo'yishidan qo'rqa yapman».

Ayol uzoq o'ylab, turmakning ham, taqinchoqlarning ham, ko'ylyakning ham hozir vaqt-soati emas degan xulosaga keldi. Haridan birakay voz kechdi.

Nihoyat u go'zal yelkalarini ko'z-ko'z qilishga imkon beruvchi tungi ko'ylyakda to'xtadi va uzun sochlari yelkalarini yoyib yubordi. Brachchano gersoginyaning sochlari yelkalarini bilan bitin bo'lib yoyilib turgan paytda krib keldi va ostonada turgancha lang qotib qoldi. Unga «yxashiroq qaramay» turib uni o'dirib qo'yishidan endi Izabella qo'rqnmasa ham bo'lardi. Gersogning ni gapirishga va na joyidan qimirlashga majoli qolgandi.

Qachonlardir u mavr yurishidan qaytganida, asosan qizil fungli gilamlar va qalin matolar olib kelgandi. Izabella ular bilan devorlarni, yerni bezatib tashlagandi, shu bois xona qush o'yusidek osoyishta va shinam edi. Yotoqxonasini xushbo'y islar bilan to'ldirib tashlash va uni gullar bilan bezash gersoginyanning joni dili edi. Birgalidagi uzoq yillik turmushlari mobaynida gersog bu qadron xonaga ming marotaba qadam ranjida qilgan va xotini o'rim-o'rim qalin sochlarni yoygani ustiga krib ham qolardi. U mana shu labzalarning, mana shu xushbo'y

ifoming va shu sukunatning shaydosi edi. Shu bilan birga, ton yorishguncha baridan abadiy judo bo'lishini bilsa-da, boshidan

o'tkazgan quvonchu sevinchlarga u yana bir bor qayta olgandi.

Gersogning to'satdan miyasiqa urilgan, Izabella xuddi shu yerda Orsiniga o'zini bag'ishlagan degan fikr uni allaqachon tark etib ulgurgan, g'a zab va qat'iyat yana o'z joyida qaror topgandi. U oldinga bir qadam tashhadi-da, xanjarini sug'urdı. Bundan ortig'iga o'zida kuch topilmadi. Gersogning joyidun qo'zg'alolmay turganini ko'rigan gersogning shoshilmay unga peshvoz chiqdi. U tavba-tazzarruga berilgan odamdek ko'zini yerdan olmasdi, gersog esa uni hech qachon bunday itoatkor holda ko'rmagandi.

— Janob, — dedi ayol unga yaqin borib, — men oldingizda gunohkorman.

Shunda ayol Orsiniga o'zini bag'ishlagan tunda xuddi shu so'zlarini unga ham aytganini esladi. O'z xotiralaridan o'zi yerga kirib borayotgan gersoginya erimng oyog'iga yiqilib, tizzalarini mahkam quchdi.

— O'ldiring meni! — qichqirdi u g'a заби ошиб. — O'ldiring!

Men shunga loyiqman.

Brachchano hayratdan tili aylanmay qolgandi. U, ayol uning boshdan kechirgan sarguzashtlarini yuziga solib, uni haqratlarga ko'mib tashlar, yoki bundan ham battari, takab burligiga borib, miq etmasa kerak deb o'ylagandi. Bu mag'nur ayol itoatkor go'dakdek uning oyoqlari tagida yotardi.

Ayohing chin yurakdan pushaymonligi gersogning ko'nglini huzib yubordigina emas, uni o'z qilmishlariga bir nazar tashlash uchun orqaga o'girilib qarashga ham majbur etgandi. Eriga xiyonat qilg'an bevafotay o'llim jazosi berishga majburlovchi infodatarning adolatsiz ekamini u yaxshi tushunardi. «Men-chi, inshohki, mening undan kechirim so'rashim lozim bo'lmasa?» deb o'yaldi mushkul ahvolda qolgan gersog. — Unga ayb qo'yishga mendek odamning nima haqqi bor?»

Xonim, — dedi u hayajonlanib,uzuq-yuluq ovozda, — axir, men ham siddan...

U gapini davom ettirolmadi — tomog'iga nimadir tiqlgandek bo'ldi va ko'ziga yosh to'idi. Gersog engashdi-da, xotining yelkasiidan quchib, uni turg'azishga urindi.

— Izabella, — dedi gersog tiroq ovozda, — oldingizda qanchalik gunohkor bo'lmay, qasam ichib aytamanki, ko'ngiliga siz-dan o'zgani hech qachon yo'latmagaganman.

Kutilmagan cheksiz bu baxidan ayloning yuragi tars yorilay dedi. «Demak u faqat meni sevgan!» — quvonch bilan xavoldan o'tkazdi ayol. U birdan yengil tortdi-yu, bir qanot qoqqancha huzur-hatovatning eng yuqori cho'q qisiga borib qo'ngandek tuyulib ketdi unga. Ayol boshini Brachchanoning ko'krigiga qo'ydi-da, bag'riga mahkam yopishdi. «U meni hali ham sevidio, — dedi u o'zicha va baxting shiddati girdobi go'yo uni ilholib allaqayerlarga olib ketgandek bo'ldi. Shu topda u hech bir kuch sarflamay samolarga parvoz qiladi-da, yoqimli shamol uning yuzlarini silab o'ta boshlaydi.

– U meni hali ham sevadi, – dedi ayol shivirlab, huzur bilan gersogning nimchasiga lablarini bosarkan. – Demak, men bu dunyoni baxtli ayol bo'sib tark etaman.

– Adolatdan yiroq bu urf-o'datlarimiz bilan mening necha pullik ishim bor! – birdan ovozining boricha qichqirdi Brachchano, go'yo gersoginyaning fikriga javob qaytargandek. Yuqori tibaqadagiitar menga nafratni munosib ko'rmaganlari uchun seni o'idirolmayman-ku! Biz Italyadan butunlay bosh olib, Fransiya ga ko'chib ketamiz...

Gersoginya erining og'zini qo'li bilan berkidi-da, so'ng oyoq uchida ko'tarilib, lablarini uning lablariga ohista tekkizi.

– Azizim, baribir meni o'ldirishingiz kerak, – dedi ayol xotirjam, qat'iy ohangda va undan nari ketdi.

– Izabella! – qichqrib xitob qildi Brachchano.

– Menga quloq soling, – dedi ayol yoqimli jitmayib. – Mendan-da muhimroq narsalar hayotingizda talaygina, agar men tufayli bularning baridan voz kechgudek bo'lsangiz, bir umr azobda qolasiz. Nahotki, o'zingiza shunday qismatni ravokor'sangiz, Paolol Or-nomussiz, shon-shubratsiz, jangu jadalsiz hayotni-ya?! Nahotki, barni birgina ayloga almashsangiz!

Gersoginya to'xtab qoldi. U: «Sizga bevafolik qilgan ayloga», – demoqchi bo'lgandi-yu, biroq jur'ati yetmadi. Brachchano xonaga kirib kelgan daqiqadan boshlab u Orsinidan nafralanardi. Uning yagona istagi: Orsinimi boshqa tilga olmaslik,

«haqda o'ylamaslik va u bilan bog'liq barcha xotiralarmi o'z hayoti bilan qo'shib butunlay yo'q qilish edi.

– Ertaga, – dedi iztirobda qolgan gersoginya, – kampir bo'sib qoladigan ayol uchun-a?!

«Men bir kun emas-bir kun baribir qarib, badbashara ayolli aylanaman», – o'yladı u, ho'ngrab yig'lashdan o'zini zo'rg'a tyib. – O'shanda u meni yomon ko'rib qoladi. Paolo o'z ornomusini bekorga fido qilgani qoladi».

Eshik taqilladi.

– Nima gap? – baqirdi gersog cho'chib tushib.

– Bu men, – Oyshanning ovozi eshitildi. – Gersog Medichi janoblaridan chopar keldi. U maktub keltiribdi. Brachchano eshkni ochdi va Oysha maktub bilan kichkina gina qutichani unga topshirdi. Gersog muhni buzib maktubni o'chdi-da, yuz ifodasini o'zgartirmay unga ko'z yugurtirdi va o'qib bo'lgach, gersoginyaga g'lati qarab qoldi.

Xonim, – dedi u ayoilning yuziga diqqat bilan boqarkan, – gap shundaki, akangizing menga xabar berishicha, Orsiniparida nomalum kimsa tomonidan tunda pulta miltiqdan otib ketilgan.

– Harholda, – davom etdi u gersoginyadan ko'z uzmay, – hu haqda Franchesko shunday deb yozadi. Bilasiz-ku, u harbir so'zni chertib-chertib gapiradiganlar toifasidan ekanini. U yuna shuni qo'shimcha sifatida ma'lum qiladiki, uning simutkorlaridan ikki kishi tasodifan voqeа sodir bo'lgan joyda

bo'lgan va Orsimining o'limga isbot sifatida uzugini o'zlar bilan olib kelishgan. O'sha uzuq mana bu qutida, - u qutini gersoginyaga uzatdi. - Malol kelmasa uni ochsangiz va bu uzuq chindan ham unga tegishlimi yo yoqligini menga aysangiz?

Bu qadar kuyinib aytigan gaplardan so'ng ham uning baxtsizlikdan darak beruvchi vahimasi gersoginyani sarosimaga solib qo'ygandi. Nima qilayorganiga deyarli aqli yetmay qolgan ayol quitchani ochdi-da, parishxon holda ichidagi narsaga boqd. Shu paytda ayol bu xizmatkorning qachonlardir o'zining hayo. tida tutgan o'rni qanday bo'lganini butunlay unutgandi.

- Ha, bu Orsimining uzugi, - dedi ayol butunlay beparvo ohangda.

Nima qilib bo'lsa-da ayol o'z hayajonini oshkor qilib qo'yishidan umidvor bo'lgan gersogni bu ohang boshi berk ko'chaga kiritib qo'ygandi.

«Demak, u Orsimini sevmagan ekan-da», - deb o'yaldi gersog kallasiga kelgan bu fikrdan cho'chib. Biroq uning rashki to'g'ri kelgan joydan o'z nafsini qondirib ketaverardi. Orsimi sevmagani uchun gersoginyaning gunohi unga yanada og'irroq tuyulib ketdi. «Bu qanaqasi bo'ldi, - xayoldan o'tkazzi u to'. saidan qattiq g'azablanib, - ko'ngil qo'y may turib xizmatkorga o'zni bag'ishlash!»

Gersog shu qadar diyonatli va samimiy odam ediki, bu tuyg'ularning bari birin-srin unda aks etib borardi va Izabella uning fikridagi eng nozik farqni ham osongina ilg'ab olardi.

- Nuna qilamiz! - dedi ayol eshitrib. - Ko'rniib turibdi, siz meni hach qachon kechira olmaysiz. Shunday bo'lgach, o'lim emi to'g'ri chora.

Brachchano qaltray boshladi. Ikkilanishning azobi unga o'z hol mini o'tkazardi. xotinini o'dirishga uning qo'li bormasdi, jumolidan ham o'tolmasdi.

Shunisi ham borki, - dedi gersoginya, o'ng qo'li bi-les spittchani olib, Brachchanoga ko'rsatarkan, - balki endi iushongandirsiz, agar men ojizlik qilib, siz bilan Fransiyaga qo'shib ketishga zozi bo'lganimda, shunday kunlar mening ham boshiniga tushgan bo'ldil!

- Unda Francheskonio'z qo'llarim bilan bo'g'ib o'dirardimi! - dedi genug va hushkiyona ibaqirib.

Nahotki, - e'tiroz bildirdi Izabella, - u sizni ayab o'tiradi dib o'ylasangiz? Meni gundon qilganidan so'ng sizni tirik qoldiniga hech kimming ko'zi yetmaydi.

Winchchano sarosimada xonaning u boshidan-bu boshiga botonqt borib-kelardi. Uning miyasiga har xil telba-teskari filhor kelardi. Francheskonin ta'zirini berish uchun uning yogni ko'pam shoshmaydi. U Francheskoga qarshi bo'lgan uning burchi dusshmanlarini oyoqqa turg'azadi. U Italiyanini qo'nga kiritdi va odamlarni, hukumatni Izbellani kechirishga majbur etdi. Izbellani afv etishni va taxni u bilan baham ko'rishni hali salqining o'zi undan yolvorib so'raydi.

– Xom xayollatingizga ko'pam erk beravermang, Paolo,
– dedi gersoginya uning quchog'iqa o'zini otib, – biroq biz
ikkovimiz ham o'z tabaqalarimizning qulimiz. U bizni o'zi
istagan ko'yiga solishi mumkin. Sizzdan yagona va arzimagan
o'tinchim bor edi.

– Qani! – zo'rg'a shivirradi Brachchano.

– Tonggacha yashashinga ruxsat bersangiz.

Brachchano unga qaradi-da, ko'zlaridan tirqirab yosh oqii
boshladi va zo'rg'a:

– Mayli, bu muruvvutdan sizni bebabra etolmayman, – dedi
u nihoyat, bu so'zlar bilan endi gersoginyaning taqdiri bir yoqlik
bo'lganini payqamay.

U birdan yengil nafas ola boshladi. Gersogni bu o'tinchga
ko'ndira olishiga ko'zi yetmayorganidan aylol tashvihsda edi.
«Endi, – o'yładi u rohatlanib, Brachchanoning yuzlарidan tin-
imsiz bo'sa olarkan, – meni keksalik ham, badbasharalik ham,
gersogining nafrati ham ta'qib etolmaydi. Uning qo'llarida
o'sha-o'sha go'zal va aziz ayolligimcha jon beraman. Erim meni
to abad sevadi».

Tun haddan tashqari iztirobli ishqiy quvonchlarga boy
bo'ldi. Gersog goh otashin sevgidan mast bo'lar, goh rashk
o'tida qovrilardi. «Nahot, – o'yładi u, suyuqli yorini bag'riga
bosa turib, – Orsini ham Izabellani shunday bag'riga bosgan
bo'lsa?» Izabella rostdan ham Orsinini sevmagannikan? Yoki
meni chalg'itish uchun o'zini beparvollikka solib, mug'ombirlik

qilayaptimi?.. «Izabella uning barcha fikrlarini ko'z qarashlari-
din uqib olardi. Shu tobdha gersogning nigohlari ajib bir tarz-
da qotib qolgandi. Ayolning jonini tong yorishguncha saqlab
qolishga so'z bermaganida, gersog buni pavsalga solib o'tir-
modi – uni allaqachon bir yoqlik qilishi munkinligini Izabella
bir ikki marta xayolidan o'tkazzi.

Gersoginya farzandining otasiga benihoya mehribonlik bilan
labnumum hadya etdi-da, bejirim qo'llarini erining qo'llarini ustiga
qo'ydi va birdan xanjarning sopni shiddat bilan siltab, uni o'z
ko'krungga sanchdi. Qon tizillab oqa boshladi. Izabella chuqr
nih tordi-da, shoshmaygina, xuddi uyquga ketayotgandek,
hoshimi yostiqqa qo'ydi. Gersog xotimini o'dirib qo'yaniga
shubba qilishi uchun uning harakatlari go'yo atayin qilingandek
shu qadur xotirjam edi. Biroq Izabellaning rubsiz chehrasi to'zib
yog'an sochlari orasida qimirlamay qotib qolgandi. Bir lahzadan
so'ne persog engashdi-da, ayolni o'pdı. Ayolning lablari souvuq
vi jonisiz edi.



UCH

MUSOFIR

Tomas Hardi (1840–1928) – o'igan asrning oxirlarida yashab o'igan mashhur ingliz realist-yozuvchisi. XIX asrning 70–80-yillarda Angliyada bo'sib o'igan chiqur ijtimoiy o'zgarishlar Hardi ijodida ham o'z aksini topgan.

Hardining dehqonlar, mayda fermerlar hayotiga ma'lum dars jada, alohida e'tibor bilan qarashiga sabab, u umming ko'p qismini Angliyaning qishloq joylaridan birida o'kazgan va bu mayzubitan yaxshi tanish edi. Hardining adabiy faoliyati uning vatani Dorsetshir grafligida kechgan.

Hardi o'zining ajoyib hikoyalaridan biri «Ich musofir»da o'zi sevgan mavzu, patriarchal-dehqonlar va Angliya burjuaziyasini o'rasiidagi murosoasiz ziddiyatlarni tadqiq etadi. Dehqon va cho'ponlarning tinch, osoyishita hayotiga bosirib kirdigan jallod, ingliz patriarchal qishloqlarini xarob qilgan kapitalistik Angliyaning o'ta shafqatsizligini o'zida mujassam etgan obrazdir.

We'zi janubiy va janubi-g'arbiy grafiylarga qarashli bo'lgan, miqarini o't, cho'butalari bosib ketgan bo'rt tepaliklar, avom ilida «tizma tog'lari» yoki «saylovlardan iborat bo'lgan bu boshindiklar asrlar davomida o'zgarmay, o'sha keng maydonni qallab yotgan Angliya dalasining ozgina yerlarini band etganidi solos. Agar har joy-har joyda bitta-yarimta uyga ko'zingiz tushan, bilingki, u ham birontta cho'pon-cho'liqniki bo'sib dilqedi.

Hundum elliq yil ilgari xuddi shunday tepaliklardan birida q'shunday bir uy bor edi, balki o'sha uy hozir ham turgan bo'lsa, alyahmis. Graflik tasarrufidagi bu yerlar markazdan besh milgina naridu bo'lsa ham ovloqqina joy edi. Shaharning yaqinligi hu yerga deyarli sezilmashi. Qor, yong'ir timinsiz yog'adigan kunduk, tumani, namgarchilik oyolarida besh mil o'nqir-cho'nqir we'li bosib o'tishning o'zi bo'lmasi. Bordi-yu, bu yerlarni limon yoki Navuxodonosordek¹ darveshlar o'zlariga makon tilib olasalar bormi, o'zlarini mutlaqo tanho sezishi aniq edi; inholikning havaskorlari bo'lmish shoir, saylasuf, rassom va

¹ Timon Afinalik – Shekspirning shu nomdagi fojiasi qahramoni hayotining so'nggi kunlarini uzlatda o'kazgan. Navuxodonosor – Asuriy va Vavilon shohi (604–501 yy. Eski era), riroyat qilinishicha, u jinnorga oylib, bir necha yil o'monda yashagan emish.

boshqa «o'ylaganlari hikmatu so'yaganlari go'zallik» bo'lgan shaxslarga bu yerlar hatto kun ochiq paytlarda ham yoqishi dargumon edi.

Ovloqdagi bu uylar odatda biron-bir qadimgi tuproq devorlardan yoki tuproq qo'rg'onidan, bir to'da daraxtlaru, hech bo'limganda buta devorlarning qoldiqlaridan pana qilish maqsadida quriardi. Lekin bu uyni himoya qilish to'g'risida negadir hech kim bosh qotirmagandi. Shunday qilib, bu uy balo-qazolar domiga qarovsiz tashlab qo'yilgan va tobora xarobaga aylanib qolmoqda edi. Chetdagi bu uyni «Hayer Krousteyrs¹⁸²» deb atashardi.

Uyning bu yerga qurilishiga shu yaqin oradagi ikki so'qmoqning to'g'ri burchak shaklida kesishgani sabab bo'lgandi, hozir o'sha burchak va u joylashgan yerga hademay besh yil bo'tadi. To'g'ri, bu yerlarda bir shamol tursa, juda qattiq esardi, bir yong'ir yog'sa chelaklab quyardi, lekin qishining o'zgaruvchani havosi, pastda yashovchilarning aytishlari ga qarraganda, unchalik ham vahimali bo'lnasdi. Zaxi jarning zaxidek jon-joningdan o'tib ketmasdi, sovug'mi ham unchalik deb bo'imasdi. Uyni ijara qolgalar cho'pon oilasi bunday sharoitda kasaldan boshi chiqmasa kerak deb o'ylab, hamdardlik bildirishganlarida, ular, umuman olganda, avvalgi, qo'shi

¹⁸² So'zma-so'z: «Yuqori qarg'a o'monchasi» degani (ingl.).

yingning daryosi sohilidagi shinangina uyda yashaganlaridan ko'ra, harholda bu yerda «bo'g'ilib qolishu, namgarchilikdan kunoq aziyat» chekishlarini aytishdi.

182...-yil 28-martga o'tar kechasi xuddi o'shanday ham-durdlik bildirishga arziyidigan tunlardan biri bo'lgandi. Kuchli qiyalma yomg'ir Senlak va Kres¹ urushidagi jangchilarning quronayzalari kabi tepalik yonbag'iflariga, devorlaru buta g'ovlonga zarb bilan kelib urilardi. Boshpanasiz qolgan qo'y va mollar shamolga orqa o'girib olardi, tikani butalarning nozik shoxluriga mahkam yopishib olishga uringan qushlarning hur-puyib, tepaga ko'tarilgan dumlari bamisolni bo'rondan teskari o'girilib qolgan shamsiyani eslatardi. Uyning yon sirti butunlay iwl bo'lgandi, ustiga-ustak shamol ham tomdan oqib tushayot-jan yong'ir suvini yana shu tomonga qarab itqitardi. Harholda cho'pon qachondir hamdardlikka muhtoj bo'lgandir, lekin, aslo shu bugungi kechada emas. Negaki, bu «quvnoqqina qishloq nomi» ikkinchi qizimi cho'qintirishi munosabati bilan yozildi-g'uni dasturxoniga ancha-muncha odamni taklif qilib qo'ygandi. Mehmmonlar yomg'irdan avvalroq kelib, uyning eng shinam vi katta xonasiga joylashib olishgandi.

¹⁸³ Enlak - Janubiy-Sharqiy Angliya tepaligi, 1060-y. uning yonginasida futil Vilgel'm ingizilar ustidan g'alaba qozongan. K'res - Shimoliy Fransiyadagi qishloq, 1346-yil ingizlar fransuzlar uchun g'alaba qozongan joy.

Agar kimdir voqealarga boy bo'gan bu kechaga soat sakki:
larda kirib kelganida, albatta, bunday ob-havoda bundan
shinamroq, bundan qulayroq boshpanani topish amrimaholligi
haqida gapirishi turgan gap edi. Kamining ustiga cho'ponning
ishlatalaverib, siyqlanib ketgan juda ko'p tayoqlari bezak qilib
ilib qo'yilgandi, boz ustiga gajaksimon ilgakli bu xilmu^{xii}
tayoqlar – eng qadimgi nusxasidan tortib, oilaviy bibliyadagi
patriarxal rasmlarda uchraydiganlarigacha va so'nggi qo'y yan-
markasida katta muvaffaqiyat qozongan yangilarining bu yerdu
borligi xonodon sohibining kasb-korini bildirib turardi. Faqot
yakshanba kunlari, bayram, oilaviy tantanalardagina ishlati-
ladigan, ustini qoplagan yog'idan ko'ra binoz yo'g' onroq pilkli
bir nechta sham xonani yoritib turardi. Shamlar butun xonaga
qo'yib chiqilgandi va ikkitasi kamini tokchasida turardi. Sham-
lar bu yerga bekorga qo'yilmagandi, faqat mehmonlar kelishi
munosabati bilan paydo bo'lardi, xolos.

Kamin to'ridagi o'tin, uning oldirog'ida esa maydalangan
shox-shabbalar xuddi «ovsarning kulgusini eslatgandek» chasi.
Chusir qilib yonardi.

Xonaga o'n to'q qiz nafer odam yig'ilgandi. Och rang-
dagi har xil ko'ylak kiygan besh nafer ayol devor yonidagi
oromkursida o'tirardi; qizlarning tortinchoqlaridan tortib, sho'^x
shaddodlarigacha bari deraza tokchasiqa joylashib olishgandi;
to'rtta erkak, shu jumladan, buta devor ekish, uni parvarish-

hish bilan shug'ullanuvchi Charli Jeyk, cherkov qo'shiqchisi Ill-
ja Nyu, qo'shni sut fermasining egasi – cho'ponning qaynotasi
Jin Pitcher esa uzun sandiq ustiga chiqib olib, yalpayib o'tirib
oliqgandi; burchakda, oshxona jovoni yoniga joylashib olgan
qiz bilan yigit qizarib-bo'zarib, bir umrik ahd-paymon haqida
biim tuzishardi; yaqinda unaشتirib qo'yilgan ellik yoshlardagi
qurib bo'ydoq bo'lsa, qallig'ini qo'idan chiqarishdan qo'rqib, un-
ing izidan qolmay u yoqqa pitirlab ko'chib yurar-
di. Mehmonlar har qanaqa odob-axloq qoidalarini bir chega
yig'ishitirib qo'yib, xursandchilik qilishardi. O'zaro hurmatga
ho'llan mustahkam ishonch bu odamlarda o'zlarini mutlaqo
otkin tutishlariga imkoniyat tug'dirardi. Viqor bilan chinakam
yomonlikni namoyon etib, jamoat orasida odob saqlash ularning
ko'plariga odat bo'lib qolgandi, chunki mashhuriyka intilish,
o'z usidi ishlash, odaldan tashqari bo'lgan biron nimaga qo'i
ishiga esa ularda xohish yo'q edi, buning sababi bizning kun-
larimizdu bunday istak odamlarni shodlikdan, oliyjanoblikdan
qizib qo'yardi, ijtimoiy zimapoyalarning eng yuqorisini va eng pas-
tihu turuvchilar bundan mustasno edilar.

Cho'pon Fennel qo'shni vodiyyagini sut fermasi xo'jaynimining
qiziga uylamib, boyib ketgandi, oila qurgandan so'ng esa
ko'puylarini nazarda tutib, qiz ham quruq kelmay, o'zi bi-
lin ellik giney olib kelgandi. Oilaviy bayramni yaxshi o'kkazish
maqoddida bu tejamkor ayol mehmonlarni kutib olish taraddu-

dida yelib-yugurib, ko'p ovora bo'ldi. Agar mehmonlar shun day suhbatlashish o'tirishsa yaxshiku-ya; lekin oromkursiga yoki sandiqcha ustiga yalpayib yotib olissha bormi, ana unda erkak larning nafsi hakalak otib, ichishni qo'msab qolishini ko'rasi uyni ham yutib yuboray deyishadi. Raqs kechasi boshqachi qulaylikka ega; lekin ishkall tomomi ham borki, u kechani yo'qu chiqarishi mumkin – dasturxonadagi «yaxshi ichimliklar» qolib, «noz-ne'matlarga» qiron kelish ehtiymoli bor, ehtirosli harakatlar bilan ishtahalar ochilib ketib, butun boshli omborni ham shipshiydam qilishlari hech gap emas. Cho'pon Fennelning xotini boshini qotirib, eng qulay yo'lini topdi-da, bir qarorga keldi, biroz o'yin-kulgi bo'ladi, so'ng biroz subbat, yana biroz qo'shiq, lekin minba'd bularning birontasiga mukkadan ketishlariga aslo yo'1 qo'yib bo'lmaydi. O'ylab qo'ygan rejalarini hech kimga bildirmay, ichida pinhon saqlardi, chunki erining hotamtoylig qilib, bor noz-ne'matni to'kib tashlashidan o'lgudek xavotirdi edi.

O'sha yerlik o'n ikki yoshli skripkachi bola jigi va rili – raq⁸ kuyuni maroq bilan dadil chalardi. Uning barmoqlari hali kich kina bo'lganidan yuqori pardalarga chiqolmasdi, ularga yetishi uchun esa qo'lini zo'r berib qayitirardi va yana pastki pardalur tonon sijitardi, shu bois kuy ham bir oz zaifroq yangrardi. Sout yettilarga borib, yosh yigitning skripkasi yurakni tig'lagandek chiyillab yubordi, cherkov qo'shiqchisi Ilya Nyu sevgan musiqui

shobi serpentni ehtiyyotdan o'zi bilan olib kelgandi, serpent o'zing yo'g'on ovozi bilan skripkaga jo'r bo'ldi. Shu zahoti hommu ruqsga tushib ketdi, missis Fennel birinchchi raqs o'n besh thiqiqadan oshmasligimi musiqachillardan sekin iltimos qildi.

Iekin Ilya va skripkachi bola ziyoftadagi o'z rollaridan mag'urlanib, uy bekasining iltimosini ham yoddan chiqaril yuborgandilar. Bundan tashqari, raqoslardan biri qandaydi o'n yetti yoshli Oliver Jaylz o'titz uch yoshli och malla soninchani sevib qolib, musiqachillardan holdan toygunlaricha chalishlarini ittimos qildi-da, uyalmay-netmay yangi pul qistirildi. Missis Fennel mehmonlarning terlab-pishib ketgan yuzlanini ko'rdi-yu, xonaning boshqa tomoniga o'tdi-da, skripkachi ning tursagiga turtdi va serpentning og'zini yopmoqchi bo'ldi. Muqiqachilar bunga e'tibor ham bermadilar. Missis Fennel mehmondo'st mezbon sifatida obro'sini saqlash uchun endi hech nimoni o'zgartirilmasligiga aqli yetib, chetga chiqib qo'y'a qoldi. Haps qizigandan qizidi, berilib ketgan mehmonlar bir burchakda tinchgina turgan soatni ham tepib, shovqin-suron ko'tarib, oyuqlarini yerga urib, bamisolai sayyoralar o'z o'qi atrofida yilongundek, xonada goh oldinga, goh orqaga, bir yaqinlashib, hir uzoqlashib, saat millari siferblatni bir aylanib chiqquncha yon o'yinadilar.

Cho'pon Fennelning uyida bazmi jamshid bo'layotgan bir mihaldii uning devori orqasida, tunda, ziyoftning tugashiga

bahona bo'ladigan bir woqeal sodir bo'ldi. Ayjiga mingan jazavva dan missis Fenneining fig'oni falkakka chiqib turgan bir payda shahar tomondan kelaverishda qandaydir bir musofir yollig'iz o'zi Hayer Krousteys tepaligiga chiqib kela bo'shladi. Bu kim sa chala-yarim o't bosib ketgan cho'pon uyinini z yonginasidan o'tuvchi so'qmoqdan yomg'ir ostida bir daqqa b'am to'xtamay yurib borardi.

To'l'in oy yaqinlashardi; yomg'irli buutlar osmonni bish tekisda qoplab olgan bo'lsa-da, atrof kaftagidek ko'rinishi turardi. Yo'lovchining tik va egiluvchan qomatini g'ira-shina yorug'da ham ko'rish mumkin edi, qadam bosishi d adil bo'lsa-da, chaqqon-chaqqon harakat qiliш yoshidan o'tib qolgani bilinib turardi, biroq kerak bo'lganida hali tez yuriшga ham qodir edi. Ko'rimishidan qirqalar atrofida edi. Uning bo'yisi aslida besh futu sakiz-to'qqiz dyuym atrofida bo'lsa-da, lekin armiyaga oluvchilar yoki odamni bir ko'rishda ayrib beruvchilar yo'lovezhini qotmadan kelgani uchun ham novcha ko'rimishini darrov payqashardi.

U bir tekisda, borar joyining tayini yo'q odamdek ehtiyojkorlik bilan asta qadam tashlardi; u qora syurtuk yoki biron-bir qora kiyim kiymasa-da, uning o'sha shahar bichimida gi qora ko'yak kiyuvchilar tofasiga mansubligi ko'nib turardi. To'g'ri, u faqat paxmoq kiyim kiyardi, etiga ham qalpoqli mix urilgandi, lekin haqiqatan ham u loy kechib yurishga o'rganib qolgan dehqonga o'xshab qadam bosmasdi.

U cho'ponning hovlisiga yaqinlashganida yomg'ir kuchaydi, yilqo'yxashshi, shiddat bilan sharillab quyib yubordi desak, to'g'ri bo'ldi. Katta bo'lmagan qo'rg'onnинг eng chetidagi imoratlari shamol va yomg'irdan sal bo'lsa-da uni pana qilib turardi, yo'lovchi shu yerda to'xtashga qaror qildi. Cho'ponning barcha so'jalik binolaridan ko'ra ko'proq tashlandiq cho'chqaxonasi ko'zga tashlanardi, molxona to'sib qo'yilagan kichik boyning ko'rinish turadigan yeriga qurilgandi: bu joylarda surʼilik binolarini uyning orqasiga yashirish odat emasdi. Undugi nam shiferring xira tusi yo'lovchining e'tiborini tortdi. U so'qmoqdan burildi-da, o'zini molxona ayvonchasi panasiga olib.

Nhu usnoda uy tomondan shamolning zo'ridan kucha-yib horiyotgan yomg'irning shovqin-suroniga jo'r bo'lib, sorpetning yo'g'on va skripkaming uncha baland bo'lmagan ovodi quoqqa chalindi, yomg'ir esa chizzorni, ayniqa, polizdag'i kurni barglarini aymamay savalardi, so'qmoq tomondan g'inarindu zo'rg'a ko'zga chalinayotgan asalari uyalariga bamisolini qoqqandek kelib urlardi, uy devori tagiga qator terilgan koniyulki va chelaklarga esa tomdan tushayotgan suv shariflati quylardi. Tepalikdagi boshqa qo'rg'onchalar kabi Hayer Krousteys tepaligida ham suv tanqisligidan xo'jalik yuritish minukul bo'lib qolgandi, shu bois ham har bir tomchi yomg'ir ilividan unumli soydalanish maqsadida uydag'i bor idish-ivonglani suv omboriga aylantirib olishgandi. Qurg'oqchilik

paytlarida esa uy bekalari kir, idish-tovoq yuvishlari uchun o'z uddaburonliklarini namoyon etib, suvni qanchalik tejaganliklari haqida qiziq-qiziq voqealarni so'zlab berish mumkin edi. Kuzda suvga taqchillik bo'lmasi, lekin barakali qo'r-qut to'plash uchun ko'kdan tushgan rizzq-ro'zni yig'ib olmasa bo'lmasdi.

Nihoyat serpentning ovozi o'chib, uy jum-jit bo'lib qoldi.

Xayolga botgan yo'lovchi to'satdan cho'kkan jimlikdan hushyor tortdi va oxiri bir to'xtamga kelib, cho'chqaxonadan chiqdi-da, yo'lakdan uy tomonga qarab yurdi. Yo'lovchi uyg'ya yaqinlashgach, avval yapaloq toshga cho'kkaladi, so'ng oldida turgan idishlardan biriga engashib, yutoqib suv icha boshladi. Chanqog'i bosilgach, qaddini rostladi va eshikni taqillatgani qo'llini ko'tardi, lekin taqillatmay eshikkta tikilib qoldi. Taxto ning quyoshdan qoraygan sirtida e'tiborni tortuvchi biron nima yo'q edi, lekin yo'lovchi bu eshik orqasida qanday sir yashiringan ekan va uyga karsa, nima sodir bo'ishi haqida o'ylab, uy ichiga kirmoqchi ham bo'lgandi.

U ikkilanib, atrofqa alangladi. Atrofda hech zoq' yo'q edi. Uturgan bog' yo'hakchasi tepalikdan shillid qurtning iziday yutti-rab, qiyalab tushgandi; quduucha tepasidagi ayvonchasi (aytarli doim qurib yotardi), quduqning qopqog'i, bog' eshigining tepasidagi xari – bir xilda nam va yaltiroq bo'lib, xuddi lak bilan bo'yalgandek tovlaniib turardi, uzoqlikda pastdag, vodiyida keng yoyilib ketgan oq rang daryoning yaylovlarga toshib chiqqani.

Agar Yabukining kassali to'g'risidagi xabar bir yil avval kelganida bormi, Nabuo hech ikkilanmay xatni yirtib tashlash gan bo'lardi. Nabuo kishiga ruhan azob beruvchi hissiyotlarni jilovlashga qodir, jasur inson bo'lib voyaga yetgandi. Masako o'g'lining xizmatga kirishiда muammo tug'ilmasin deya hujjatimolga qarshi Yabukini oilavy ro'yxatdan o'chirmay turgandi, o'zi ham erining oilaga qaytishidan umidvor edi. Nabuo universitetni tugatiboq xizmatni boshlab yubordi. Masako

o'g'lining talabalik paytlarida yoq qizlar bilan inoq ekanini bishdi. Ayni payda Nabuo universitet kutubxonasida ishlaydigan o'shu qizlardan biri bilan har haftada uchrashib turardi. U hafta o'shini intiqib kuttar, bir qarasang muloyim bo'lib qolardi. Bularning barini ko'zlin qochirmay kuzatib turgan Masako o'g'lining endi ko'p nomalurga aqli yetadigan bo'lib qolganimi bildi. Vaqt-soati kelib, hatto o'g'li ham o'z onasidan uzoqlashishiga to'g'ri kelarkan, n'eb ollasini tashlab ketgan otasidan begona bo'lish to'g'risida jipiymasa ham bo'ladı. Xatni o'qib chiqqach, Nabuoning boshi jangib qoldi.

— Xo'sh, onajonim nima qilmoechilar ekan?

— Illasanni o'g'llim, otang atrofiidagi do'stu yorlarini o'z tashvishlari bilan bezorjon qita-qila, oxiri idek o'lib ketmasaydi daryuman. Bundan keyin otangning do'stariga o'g'irligi tushmasligi uchun nimadir qilishimiz kerak.

— Men otamning g'amini yeyavotganim yo'q. U bilan hatto oldi, heidi qilgim ham yo'q, lekin u, baribir oilamiz a'zosini, men hozir shunday ahvolga tushib qolganki... Uni bu ahvolda e'tiborsiz tushlab qo'yolmaymiz.

Masako o'g'lining bunday jo'yalli fiqr yuritishidan xursand bo'ldi.

— Ona-bola Yabuki bilan bog'liq ishlarning bariga qo'l silib ketishlari mumkin edi, lekin qondoshlik rishtalari bunday

bepisandlikka izn bermaydi, ular Yabukini Yaponiyaga olib kelib davolatishga qaror qilishi. Yabuki Dzyokiti olasidun erishganlarining baridan voz kechib, chet elga jo'navorqandi mana, hash-pash deguncha yetti yil ham o'tib ketibdi, xo'sh, u shu paytgacha nimaga erishdi? Nabuo metir Kureda bilan suj yozisish turardi, u navbatdagi mehnat ta'tilini oldi-yu. Parijia jo'nab ketdi.

Bir kuni Masako o'g'li yo'qligidan foydalananib, suratlар saroyning xo'jayini Kosega qo'ng'iroq qildi. Kose ushbu

oilaning ko'p yillik qadrondi bo'lib, u ham Yabukining betobligi haqida oilasiga xabar bergandi. Masako hech ikkilamay!

— Yabukidan hech darak bormi, u sizlarni ortiqcha tashvishga qo'ymayaptimi? — deb so'radi.

— Yo'g'e, aksinchha, Yabuki-san bir yil deganda bitta yo'lkita surat jo'natdi, xolos. Ba'zan musofir yurtlarida tirikchiligi qanday o'tayotgan ekan deya tashvishlanib qolaman. Men uni bir-ikki yil ichida o'z shaxsiy ko'rgazmasi bilan namoyishda qur-nashar deb umid qilgandim...

Masako xayr-ma'zur qilib, go'shakni ildi. U bu yaqin orada erining biron-bir ishga qo'l urganini eslomasdi, endi bo'lsa ko'rgazma emish — bari bekorchi gap. U arzimas, befoyda ishlari uchun o'z oilasidan kechib ketgan Yabukini o'ylab, ich-ichidin ozillardи. Masako eri jo'nab ketgandan so'ng qanchadan-qancha tunlarni bedor, g'am-hasratda, uni qo'msab o'tkazzi, endi esa

uddi oralarida hech nima bo'lmagandek, uning hali erishishi dargumon yutuqlariga ilhaq, oilaga qaytishini kutib, undan umid uzmay yashashi kerak ekan... Yabukisiz o'tgan yetti yillik uni uning injay orzusini chilparchin qilganda ham umid uzmay, u shu orzuni yangitdan tiklamoqchi bo'lib turganida, qarab-jiddi, o'sha omadsiz rassomning kuni bitib turibdi, axir, bunga qanday qilib ko'zyosh to'kmay bo'ladi? Bularning bari nima bilan tugashidan qat'iy nazar, Yabuki Nabuoning otasi bo'lib qilayordi.

Nabuo bu paytda muzlab yotgan qishki Parijining yangi yil bayrami shovqin-suronlari endigina bosilgan dahasida sayr qilib yirardi. Masako Parija qisqa kuz faslda kelgandi, u Monso nijohnoning barglari sarg'ayib ketgan daraxtlariga tikilar kan, o'zini ulduzday nomalum qing'oq tomon suzib ketayotgandek his etordi. Mehmoxona oldidagi katta ko'cha yo'lovchilardan devorli soli bo'lib, hammayoq suv quygandek jum-jit, xuddi xizmatini o'tugan daba shu bugun dam olishga chiqqandek edi. Asta, shoshmay o'tib borsang, Zafar arkinning xuddi o'zidan chiqqan-qolasan. Daha muylulishidan burisang — qarshingda gavium Elisey maydoni. Masako betartib olomonga qo'shilib ketordan, Zafar arkinning ko'rkam old tomonini ko'rishga shohribib, bir necha bor o'girilib qaradi. Bunday serhasham bo'li manzi yana qayerda bor? Qiziq, bu go'zal manzaraga Yaponiyaning ko'zi tushgamida nima derdi?. Balki u, siyqasi chiqqan

fikr deya ustimdan kulg'an bo'armidi... Zafar arkiga Nabuoni ko'zi tushmagan ham bo'isa kerak.

Nabuo otasini ko'rgani kelganida o'zini shunday tutdi, uning kasalidan xuddi Parijga kelib xabar topgandek. Metr Kureda bemordan o'z mehribonchiligidini ayamadi. O'g'li kelganini ko'rgan Yabuki o'ziga kelolmay, unga tikilguncha qotib qolgandi. Nabuo otasidan yotsirardi, Yabuki esa vaqtning shiddatidan lolu hayron, o'g'lining aslzoda bo'lib voyagu yetganimi ko'rib, unga qarab to'ymasdi. Ota-bola uzoq o'turib diredlashishdi. Yabuki jarrohlikdan yaxshi chiqqanini, hozir alvoli durustligini va xavotirga o'rin yo'qilgini aytib, uni xotirjum qildi. Yabukiga tinchlik bermay, uni birin-ketin tug'ilayotgan g'oyalar kelgusidagi ishlarni davom ettrishga undardi. U texnoq tuzalib, kasalkomadan chiqish payiga tushib qolgandi. Yana u jarrohlikdan so'ng xotirjam tortganini, oyoqqa turishi bilinoq o'sha Parij atrofidagi o'zi bir vaqtlar asliyatga qarab nisn ishlagan yerlarini Nabuoga jon-jon deb ko'rsatishini aytди. U joylarga ketaverishda, yo'lda ajoyib o'mnon, hozirda sotishiga mo'ljallab qo'yilgan qadimgi qasr bor. Rosa arzon, bordi-yu yashash niyatting bo'isa, ta'mortalab, agar barcha qulayliklarni ko'ngling tusasa, unda chuv tushishing aniq. Shu boisdan ham yurak yutib, u yerlarga hech kim borishga botinolmaydi. Bu 'zin shunday oyog'ingiz tagidan bug'u chiqib qolishi ham mumkin, lekin u sizga ziyon yetkazmaydi. O'mnon qalın, agar quyoni

hotishiga to'g'ri kelib qolsangiz bormi, u yerda chiqib bo'psiz, sulloq, ijod uchun rosa bop joy-da. U kulib qo'ydi. Nabuo gapmaydi, otasining gaplariga qulog soldi. Uazi vodiyisini aymaydanni, xuddi jannatning o'zi. To'g'ri, bunday yerlarda ijodkor yuzakilikka berilib ketishi hech gap emas. Sisley manzuri esingdadir. Uazidan uncha uzoq bo'imagan yerda Dyupr yodgorligi, qishloqdan sal narda esa bir uycha bor, – uni senga ilhatta ko'rsataman, – unda Dome yashagan. Bu uyni unga koro topib bergen va shu yerda vaqtincha yashashni takif etjondida, u uzoq o'ylab o'tirmay ko'chib o'tgandan so'ng shu yerlarda yashhab, yana shu joylarda vaft etgandi. Bir kuni seni u yerga ham olib boraman. Yana har yili o'zim bilan molbertni alvolib, tabiat qo'yninga chiqqanima, qo'shami qishloqqa ham i'ttuman, keyin o'z peyzajlarimni o'sha joyda yarataman. Bu Van Gogning qabridan uncha uzoq bo'imagan yer. U yerlarning manzarasi juda go'zal. Qani endi, o'lganimda meni ham o'sha yerlarga dafn etishsa. U yerda mozor bor. Aytgancha, Nabuo bu yerlarda yana qancha qolmoqchi?

Otasi bilan bo'lgan bu suhabat Nabuoni hang-mang qilib qo'ygandi. Uning bu holati, xuddi ota-bola o'ttasida hech bir gap o'tmagandek, otasining unga bo'lgan samimiy munosabatidan hayratlanishmi yoki Yabukining o'z ijodiga bo'lgan ehtiromi halli so'nmaganimi ko'rib, lolu hayron qolgandanmikan? Balki hu uning so'nggi urinishidir? Unga odamning rahmi keladi – buchora, sog'ayishimi qanchalik sabrsizlik bilan kutib yasha-

yapti. Bularning barini o'z ko'zi bilan ko'rgan Nabuo butunluy o'zini yo'qotib qo'ygandi.

Nabuo Parija juda oz fursat bo'lgan bo'lsa-da, deyarli bu tun vaqtini otasi bilan kasalkonada o'tkazdi. Yabuki o'g'li bilan ko'rishgandan so'ng o'zini ancha yengil his eta boshladi. «Ota, balki Yaponiyaga qaytarsizz?» – deb so'ramoqchi bo'ldi yu, lekin Nabuo tilini tishlab qoldi. Qanday yo'i tutishni uning o'zi ham bilmasdi, otasini o'zi bilan olib ketsamikan? Otasi Fransiya tabiatiga shunchalik shaydo ekan, balki umrhol shu yerlarda qolgani ma'qildir. Biroq uning bu qaroridan yana atrofidagi do'stlari aziyat chekishi mumkin. Nabuo o'z burchini bajarib bo'lgandi. Otasi bilan xayr-xo'sh qildi-da. Yaponiyu jo'nab ketdi. Nima bo'lganda ham ona yurti Yaponiyani bil shabadasi Yabuki qalbini bir siyallab o'igan, o'g'li Nabuoni tashrif esa unga o'z ta'sirini o'tkazgan bo'lsa, ne ajab. Nabuo kelib-ketganidan so'ng Yabuki do'stlarining Yaponiyaga jo'mub ketish haqida qilgan taklifga indamay rozi bo'ldi. Yaponiyuda sog'ayib, o'ziga kelganidan so'ng yana qaytib kelishi mumkinligini aytib, do'stlari uni ishonchitishgandi. Yabukining o'zi ham kasalmi yolg'izlikda yengib o'tish mushkulligini boshidan o'tkazgani uchun ham buni yaxshi tushunardi.

Yabukini kasalkonadan samolyotgacha «tez yordam» mushnasida olib borishdi va yuqorigi o'rindiqa olib chiqib qo'yishdi. Narsalari ham unchaliq ko'p emasdi. O'zi bilan olib kelgani bir dona surat va palatasida osig'liq turgan bo'zga chizilgan man-

gora bor edi, xolos. Yana qolgan mayda-chuydalarini alohida jo'matishlarini so'ragandi.

Parija yetib kelgan Masako eriga qaytib kelish nasib etmagon shuhar ko'chalarida bemaqsad, shunchaki sayr qilib yuradi. Elisey maydonidagi yo'kkalar, ayvon va qahvaxonalar ko'chalarida adashib qolmaslik uchun o'g'li Nabuo chizib bergan xaritaga qarab aytanardi, lekin yuragida oddiy qiziqishdan bo'lak hech vaqo yo'q edi. Elisey maydoni taxminan timzaga o'xshab, 9-dahagacha cho'zilgan bo'lib, bu yo'lni Minako ko'z ochib-yumguncha bosib o'tdi. Favoralar bilan heqatdan Ron-Puen maydonidan u yog'iga chinorli xiyobon davom eturdi. Masako o'tkinchilar onda-sonda sayr qiladigan hu'siyobonni chizgan yapon rassomini eslatdi. U «Totuvlik» maydoni yaqinlashganda, holdan toyib, yuqoriqodagi tosh sinalaridan biriga o'tirib, dam olishga qaror qildi. Manzara, huyinboy bu yerdan ham go'zal ko'rinsa kerak. Zinadan unga jisuvvoz chiqqan yosh yapon qiz va yigitlar tushib kelishardi.

Bu yerda nima bor?

Bu yer impressionistlar¹ muzeyi.

Ulin tezda ko'zdan g'oyib bo'llishdi. Masako nafasini tooshish uchun yuqoriroqdagi zina maydonchasiiga ko'tarildi, o'sib ketgan maysalar yonida to'xtab, yoshligimi, eri unga

¹ Impressionistlar – tasviri san'atda o'ziga xos bir oqim tarafdori.

ko'rsatgan rasmlarni esga oldi. Bu qanday bedodlikki, qayoqqa qarama – rasm. U yana qayerga ham borsin. Zina tepasida turib endi yotoqqa qanday qaytishni o'yldi. Zafar arki ko'chaning oxiridan qo'qqayib ko'rini turardi. Mehamonxona unga olisdek tuyildi. Bir o'zi taksiga o'tirgisi kelmadi. Musofir yurtining hatto ko'chalarini ham senga begona, u birdan bemaqsad, shunchaki sayr qilib yurganini anglab qoldi.

Metr Kuredanining ustaxonasi Parijning 14-dahasida joylashgandi.

Masako mehmonxona darbonidan taksi topib berishini so'radi, haydovchiga manzilni aytgandi, u ham paysalga solmuy to'ppa-to'g'ri Kuredanining uyiga eltilib qo'ya qoldi. Temir eshil, uning ortidagi hovlida esa ikki qavatlari uy qad ko'targandi, uyning old tononi o'yilib, ichkariga rasmxona qurilgandi. Metning xotini unga peshvoz chiqib kutib oldi, so'ng xonadun Kuredanining o'zi boshini chiqarib qaradi. Masako Yabukidum besh-olti yosh katta bo'gan Kuredani ko'rib, vaqt oqar suvdek qanchalar tez o'tib ketganimi xayolidan o'tkazdi. Kuredanining sochlariiga oq oralagan, lekin yuzi, bo'y-basti o'sha-o'sha edi.

— Ustoz, siz o'zgarmabsiz.

— Ha, endi yosh emasmiz-u, lekin hali kuchdan qol-ganimizcha ham yo'q. Qisqasi, mo'ysafid bo'lib qoldik. Endi qadam qo'yadigan o'n yilligindan xavotirdaman...

Uxushmuomala, to'g'riso'z, irodali, ayni zamonda oliyjanob inson ham edi. Bundaylar yolg'on gapirishni bilmaydi. Uning

qoldi iqitidor mahsuli deya tan olingandi. Bunday odamning oldida Yabuki o'zini bexavotir sezgani aniq, deya xayolidan o'tkazdi. Masako. Kuredanining xotini yaponcha choy damladi. It sonin Kuredalar shuncha uzoq yo'l bosib kelgan Masakodan minnatdor bo'lishdi va Yabukining vafoti munosabati bilan unga bildirishgan ta'ziyalari boshqalarnidan ko'ra qattiqroq beldi.

Uni De Goll aeroportidan samolyotga o'tqazib kutilayotganimda, rostini aytasam, mening bunga hech yuragim ihopmudi. Sal avvalroq buning aksi bo'lgandi, ya'ni uni terroq jo'natib yuborishga oshiqib, eson-omon samolyotga yetkazib borishni o'ylab, rosa tashvishlangandim, odamning le'l-atvoriga ham ishonib bo'lmas ekan. Bedavo dardga chalijan odam ko'zlaringga mo'itillab, sendan najot kutib tursa, bunga qunday chiday olasan? Shularning barini bafurja o'ylab ke'ldik-da, uni uyiga, o'z yaqinlari yoniga jo'natib yuborishga qivor qildik. Jarrohlilik amaliyotidan so'ng u asta-sekin tuzala boshladi, o'z-o'zidan umid ham uyg'ondi, bunday paytlarda qonday qilib jo'nash haqida og'iz ochish mumkin? Xullas, bir amollob uni jo'nab ketishga ko'ndirdik. Ketish oldidan esa suiddi burchimizni qoyilmaqom qilib bajargandek o'zimizni yengil his etdik, lekin yurakkagi xijilik bizga timchiлик bermasdi. Havan, Yabukini Parija olib qololmay, uning so'ngi tilagi in do etolmaganimiz biz uchun bir umrlik armonga aylanib qolmasaydi, deb o'layman, — dedi samimiy ohangda Kureda.

— Nahotki Yabuki Yaponiyaga qaytishni sira istamagan bo'lsa?

— Yo'q, unday emas, menimcha u o'g'lini ko'reganidan keyin o'zini qo'yarga joy topolmay qolgandi, tag'in o'zi biladi.

— U Yaponiyada davolaniib, oyoqqa turganidan so'ng Parti ga qaytmoqchi edi. Yonimda o'zini yaxshi his etayotgandek tuyulardi. Nima qilsam churq etmasdi, menga o'zining navbat dagi hamshirasidek qarardi. Ba'zan menga o'z ishi Partidagi vakkalchilikda o'tgan hayoti haqida gapirib berardi, vaqt o'tishi bilan hatto o'sha, ko'ngilga urgan xotiralar unga ardoqlı bo'lib qolgandi. Vaqt o'gan sayin ahvoli og'irlashdi, xayoli parishon bo'la boshladi. Yaponiyani Parijdan ajratolmay, o'zicha fransuz chalab nimalarnidir g'o'idrab qo'yardi. Gohida o'zini palata devoriga osig'liq manzara-rasm ichiga kirib ketgudek bo'llib tikildi. Umrining so'nggi damigacha uning yonida bo'ganimiz yaxshi bo'ldi deb o'layman. Agar g'arib va musofirlikda o'llib ketganida, unda o'zini butunlay bizdan ajralib qolgandek his et-gan bo'ldi.

Metr Kuredanining hayaioni yuzidan bilmib turardi. Bir kuni Yabukining ko'ngli yapon milliy taomlaridan suyuqqina gu-ruch bo'iqasmini tusab qolganiida, Kuredanining xotini unga o'shu bo'iqani tayyorlab bergenini miriqib so'zlab berdi. Yetti yil Fransiyada yashab qo'ygan bo'lsa ham baribir ko'ngli o'z yurtining taomlarini qo'msab qolardi. Tobim qochsa men ham, shor'vila emas, aynan o'zimizing yapon bo'iqasini xohlاب qolaman.

Nabob Yabukining o'shanda mendan birinchi marotaba ni-mundir ilmos qilishi edi. Menimcha, u peshonasiga bitilgan qilmatni o'z xohishi bilan o'zgartirganidan pushaymonligi haqidagi o'yugan.

Kureduuning xotini Masakoning ko'nglidagini gapirgandi. Bir kuni kechki payt Yabukining birdan nafasi bo'g'ilib, birozdan o'ng yana o'ziga keldi, lekin bu voqeadan ikki-uch kun avval u Nabuoni zoriqib kutgandi va sabri chidamay Masakodan o'g'liga telefon qilishi so'ragandi. Nabuo kelganiida o'z rasmlari hujdu to'lib-toshib gapirib bergandi.

Quy tomondan qaramang, o'z umrini yashab bo'lgan, intobaxloq doirasidan chiqmay ishlangan rasmardan men voz kechdim. Endi erkin ijod qilmoqchiman. Qanday istasam, shunday ishlayman. Qurdim yetgancha xo'ib ishladim. Endi o'z usluhini topgandekman. Nima bo'lganda ham men tezda jo nab ketahim zarur. Bo'imsa, rasmlarin meni unutib yuborishi imunkin. Tezroq jo'nasak bo'lmaydim? Men qachon uchib keta nihaman?

— Shu yerda ham ishlasa bo'ladi-ku. Balki o'sha rasmlarni shu yerga olib kelarmiz?

Unda asliyattin nima qilamiz? Uazini bu yerga olib kelib bo'lmuydi-ku... U o'zini o'ldirmoqchi bo'lgan o'sha dalani bo'rolmaymiz. — Otash bo'lib yonayotgan Yabuki ko'zlarini jis'ig'u ochdi. Nabuo undan:

U deganingiz kim? — deb so'radi.

— Kelasi safar seni u yerga olib boraman. — Yoshliginda Vlaminckdan¹ tafsil olgan Noai menga rasmdan ustozlik qilgan. Noai Van Gogga topinardi, uni o'z otasidan ham ko'proq yaxshi ko'rishini aytardi. Bu so'zlar keyinchalik tarix zarvurraq lariga muhrlanib qoldi. Xullas, u Fransiyada o'z otasidan ko'tu ko'proq yaxshi ko'radian rassom vafot etgan qishloq bor. U yerlarning tabiatи oddiy, dabdabasiz, tinch va osoyishta. O'shu yerlarga sen bilan birga boraylik-a, o'g'lim. Qani endi hokimlik tomонидан o'sha tomонlarda biron ta'dbir uyuştirilsa, unda borishimiz osonroq bo'lardi. U yerda o'ita asr oxirlariga oid ajoyib cherkov bor. Bu cherkov ne-ne taloto'plarga guvoh bo'l-madi, deysan. Ustoz dafn marosimini o'kazib, cherkov eshlid dan chiqib kelayotgan odamlarga duch kelib qolgan va mening ham kun-soatim bitibdi, deb xayolidan o'kazgan-da, cherkov tashqarisidagi dalaga chiqib, o'zimi otib qo'ygan.

Yabuki xuddi o'tgan hayotidan bir parchani hikoya qilib berayotgандек то'xtovsiz gapirardi. Uning eti suyagiga yopishgan yuzi bujmayib, qip-qizil bo'lib ketса ham gapdan o'zini hech to'xtatilmayotgandi.

— Otam uchun shunchalik qadrli bo'lgan o'sha joylarni biz ham ko'rsak bo'larmidi... — dedi Nabuo.

Nabuo otasiga ancha o'rganib qolgandi. Ota-bola boshqa boshqa dunyoda yashasalar-da, Nabuo uning ahmoqoni

iqlariiga bosh qo'shishni istamasdi, lekin borgan sari yaqin-holib kelayotgan ajal soyasi bunday loqayd qarab turishga izm bermasdi. Nabuo onasi bilan yolg'iz qolgan kezlarida:

— Quni endi, yana biror o'n kun yashasa... — derdi.

Masako titrab ketdi. Bemor o'n kunga ham yetib bormadi, uning ruhi allaqachonq u tirikligida qo'msagan yerlarda kezib yurordi, ko'p o'tmay uning ko'zları abadiy yumildi. Kasalxona bog'chasidagi olcha kurtaklari nish urib qolgandi.

Vafotidan so'ng o'kaziladigan ko'rgazma nima bo'lyapti?

so'ladi metr Kureda.

Er-xotin Kuredalarning jonbozliklari bilan Parijdan yig'ib olib, jo'natilgan Yabukining barcha ishlari Yaponiyaga kelib ushugandan so'ng to'g'ri Masakoming torgina uyini butunlay qilladi-qo'ydi. Uning o'zi bu rasmlarga hali tuzukroq nazar bolgani ham yo'q. Masako rasmi ochdi-da, uni ko'rish uchun hiroz orqaga tisariilgan edi, javonga borib urildi. Yabukidan o'lab ishlari meros qoldi, lekin uning o'zi bu merosni kimga iishongan bo'lardi? Ko'rgazma to'g'risida Kose rasmlar saroyi bilan kelishib, ko'rgazmani shu yilning kuzida o'kazadigan bo'ldi. Yabukining e'zozli ustozni bo'lgan metr Odzakini ko'rgazmaga taklif etib, o'z fikr-mulohazaralini yozib berishini ilmos qilishmoqchi. Yabukining ishlariга Masakoming aqli yetindi. U awval-boshda ustozlariga havas qilib ularga ergashdi va o'z yo'lini topolmay, qotib qolgan uslubda ishladi, oxirgi man-

¹ Moris de Vlaminck (1867-1958) – fransuz manzarachi rassomi.

zaralarida mayinlik, nafislik, tavakkalchilik, o'ziga xos o'jarlik bilan qorishib, uyg'unlashib ketgandi; umumiyl jilvadorlikning ko'pi to'q rangda edi. Masako nazariy qarashlari tarafidolaridan bo'igan metr Odzakining bunga qanday munosabat bildirishi dan xavotirlanardi. Harholda Odzaki Yabukining rasmlarini ko'rib, o'zini tushunganday qilib ko'rsatganida edi, uning ijodiga birmuncha qiziqish uyg'otish mumkin bo'lardi. Balki bo'lib o'tayotgan bu voqealar marhumming istak-xohishiga zidir.

Metr Kureda:

— Shaxsiy ko'rgazma, albatta, o'ziga xos uslubni talab qila di... — dedi xayolga cho'mib.

Masako metr Kuredanining ko'rgazma manfaati uchun so'zga chiqishini xohlardi. Qani endi metr Kureda o'z rolini qoyilmaqom qilib bajarganida edi, unda Masako jon-jon deb ishga kirishgan bo'larmidi.

Hovlida archa guliga o'xshash binafsharang gullar ochilish yotardi. Kuredanining xotimi bir pasga chiqib ketganidun foydalangan Masako gullarga suqlanib tikildi.

— Ustoz, iltimos, ayting-chi... Yabukining rasmlariga nimur deysiz? Hali rasmlarni ochib, uni bafurja ko'rishga ulgurolganim yo'q... Agar ko'rgazmada uning ishlarini tan olishmasa, unda nima bo'ladi? Rassomning bu taxlit yashab, ijodi ayni qizigun pallada dunyoni tark etishiga achinmay bo'ladimi? Men uni hatto o'z kasbidan qizg'andim, bularning bari unga nisbatan

indolutsizlik emasmi. Yabuki sevgan ishini deb oilasidan voz kechdi, Shu qurbanliklar evaziga uning ijodida bironqa ilohiy uchqun ko'rindimi?

Masako metr Kuredanining til uchida qilgan tasallisiga zor emudi. Kureda esa buni sezgandi.

— U faqat biringina ishida gullarni, ya'ni oq gladioluslarni tasvirlagandi. Men, ba'zan mana shu rasmdan olgan ilk tussurotimni eslayman. Ixchamgina guldonga bir talyay gullar pola-partish solib tashlangan, gullar esa idishga sig'may, biri epilgan, biri singan, ba'zilari yer bilan bitta bo'lib yotardi, bu tussunga o'xshamasdi, unda jonli nimadir bordek, manzaradan ko'z uzołmasdingiz. Orqadagi qora rang och havo rang bilan qorishib ketgandi. Sap-sariq guldondon nur taralib turibdi. «Van Gogda ham xuddi shunday «Gullar» degan surat bor», — dedim unga bir kuni.

Buni qarang-a, demak, Van Gogdek rassom ham menga taqlid qilgan ekan-da, — deya Yabuki beg'angina javob qaytarildi. — Yana bitta manzara bor. Unda daryo va ko'prik-tasvir-hongundi. Rassom ko'prika chiqiladigan tomondan qarab turardi, unga ulkan va beso'najay to'simlar qalab tashlangan, kishida suiddi bu yerni quturgan buqa ostin-ustin qilib tashlagandek tussurot uyg'otardi. Chapda va o'ngda esa sokningina oqib turgan soy tasvirlangandi. Xuddi mutanosobilikdan bexabar bolalar rasmidek. Buni ko'rdim-u, nafasim bo'g'zinga tiqi-luyozdi. Menga, bu ishni u qo'lli bilan emas, yuragi bilan bun-

yod etgandek tuyuldi. Daryoni tinch va sokin ko'rish mumkin bo'lganda, nega endi ko'priq ustabuzarmonlik mahsuli bo'lishi kerak ekan. Basharti men undan bu haqda so'ranganimda edi, bilaman, u hech ikkilanmay: «Ko'priq – bu men», deb javoh bergen bo'lardi. Daryo o'z izni bilan yashagandek, ko'priq ham xuddi shunday, daryo osha o'z hayotini yashayveradi. Hech razm solganmisiz? – uning ishlariida o'ziga xos joziba bor edi. Masalan, keng ko'prikkha ingichka, deyarli ko'zga chalimmas qizil chiziq tortilgan. Bu yorug¹ olami rassom Yabuki shunday tasavvur etardi. Menimcha, u shunday yashaganki, tabiatni o'zi istagancha chizib, yana uni asl qiyofasini buzmagan holda ko'ra olgan va shu orqali tabiatga mos manzara yaratna olgan.

Metr Kureda bu gaplarni chin yurakdan gapirgani shundoq bilinib turardi, shu bois shubhalaridan xoli bu samimiy suhabat oxirigacha shunday davom etdi.

Masako o'zini yengil his etdi.

– Meni ham bitta rasm qiziqitrib qolgan. Eng dag'al bo'zga ishlangan bu rasnda cherkov tasvirlangandi; diqqat bilan rizm solinsa, cherkov ajal minorasidek viqr bilan qad ko'tarib turibdi go'yo. Rassomming o'zi esa xuddi mathumlar yoki avlyolar bilan suhbat qurayotgandek. Men o'zimni san'at borasida hech vaqoga aqlim yetmasa kerak deb o'ylagandim, lekin endi tushunishimcha, rasm semi o'z go'zalligi bilan sehray olmus ekan, unda uni rasm demasa ham bo'larkan. Odam ko'rganida

hayratdan yoqa ushlaydigan yoki bo'imsa ko'nglingni cho'ktirib yuboradigan asarlarni men tushummayman. Nabuo menga o'girildi-da: «Buncha qayg'uli rasm bo'masa», dedi. Bu io'zlarini eshitdim-u, ichimda g'alayon ko'tarilgandek bo'idi. Nima bo'lganda ham jigarimdan bunday gapni kutmagandim. «K o'zingni kattaroq och-da, diqyat bilan yaxshilab qara, ana o'shanda, undagi go'zallik seni maftun etganiga o'zing ham umin bo'lasan!» – dedim men va xuddi kutmagimday bo'sib chiqdi. Unga ertasi kuni quyosh yorug'ida qaragandim, qora va kulrang tuslar jiiva qilmoqda edi. O'shandan beri har kuni qara-jum sari u menga yaqinroq bo'lib boraverdi, go'yoki men bilan goplashish uchun tilga kirgandek. Rasm bilan bo'lgan bu suhabat menga Xudoning inoyati edi. Yabuki bunchalik ibratomuz danjuda o'zgarar deb hech o'ylamovdim.

– Agar Yabuki-kunning¹ xotini uni tushunolgan bo'lsa, bu

nur ustiga a'llo nur. Uni tomoshabin qabul qiladimi, yo'qmi, bu endi boshqa masala.

– Suratda yovuzlik yoki biron-bir aql bovar qilmaydigan nimadir bo'lsa, unda tushunmasliklari turgan gap. Balki bu nodir isarmasdir, lekin shunday bo'lgan taqdirda ham baribir, men uni tushunolaman. O'g'lim menga: «Sen uchun aziz bo'lgan kishi quyerlarni qo'msaganini, qayerlarga borib ijod gashtini surishni sohlaganini bilmuoqchi bo'lsang, yaxshisi, bor-da, u yerlarni o'z

ko'zing bilan ko'rib kel», dedi va kelish-ketish muammolarini o'z zimmasiغا oldi.

– Ertaga men Yabuki uchun qadri bo'lgan Uazining tevarak-atrofini sizga ko'rsataman. Rafiqam ikkимiz u yerlurgo qadam ranjida qilmaganimizga ham ancha bo'lgan. Sizga jonjon deb hamrohlik qilamiz. Sayohatchilarning aksariyati Parij deganda Elsey maydoniniyu, Sent-Onoren tushunishadi, yo'q. aslida unday emas, shahar tashqarisiga bir qadam bosib bo'lsha ham chiqib ko'ring-a, o'zingizni xuddi mo'jizalar ichiga tushib qolgandek his etasiz.

Mehmon sharafiga dasturxon yozildi, uchalovlari yerga solingan dasturxon atrofida tushlik qilishdi, bu yerdan ichkar hovli kaftdagida ko'rilib turardi. Masako qo'liga bir burda nomni ushlagancha, Fransiyada yashashga shunchalik ko'nikib ketgan er-xotin Kuredalarning ustritsani qynalmay, bernalol yeyayotganlarini kuzattarkan, bu mehmondo'st oilada Yabuki o'zini qanday his etgani haqida o'ylay ketdi. Agar o'g'li ham oila qurib, alohida yashasa, uyidan fayz ketadi.

– Partiga birinchi kelishingizmi deyman? Unda, albatta, sizga hamrohlik qilaman.

– Ha, albatta, hamrohlik qilamiz, – deya bosh silkidi mett Kureda. – Yabuki shahar atrofimi xush ko'rardi. Men ishlagan anhorni ko'rganda: «Otni mendan oldin qamchilab qolibsan», deb o'pkalagandi, U daryoni juda sevardi.

Uning azbaroyi suuga mehri tushganidan yozning issiq kunlari anhor yоqalab qanday sayr qiganni, suuga yaqinlashib horgani sayin sabri chidamay, paypoqni uloqtirib, yalandeyoq suvni shaloplatib kechganini gapirib bergandi.

– Bu voqeа o'n to'rtinchи iyul bayram tantanasi kuni sodir bo'lgandi. Kun issiq, bu yoz avvalgilariidan boshqacha kelgandi. Bir kuni Yabuki-san dabdurusdan uyinga kirib keldi-da:

«Bekjon, jele¹ tayyorlashni bilasizmi?» – deb so'rab qoldi. So'ngra jeleni qanday tayyorlashni menga o'rgatdi. Men u istajunday chiqara olmay, oxiri o'rniga sirkalangan loviya ugра pishirib berdim. U halimdek yumshoq odam bo'lib, chivinga hum ozor bermasdi.

U yodiga tushib qolgan voqealarni sizga jon-jon deb gapirib berardi. Masako beixtiyor Yabukining bu xonadonda o'tgan hoyoti, ya'ni ahyon-ahyonda bo'lsa-da, unga yapon milliy tumillardan tatif ko'rish nasib etgani haqida o'yladı. Ertasi kuni Masako er-xotin Kuredalarning taklifiga ko'ra, tushdan keyin ularga qo'shilib avtomobil sayohatiga jo'nadi. Havo ochiq, erta boshlangan kuzning yoqimli shabadasi esib turardi. Rulda metr Kuredaming o'zi o'tirardi. Mashina shahardan Parij tashqarisiga yo'l oldi. Yo'l bo'yidagi eski ko'chalar tuyulishida kichik-kichik qahvaxonalar ko'zga tash-

¹ Je le – elimshak (meva sharbatiga jelatin va shiravor qo'shib, quyutirib tayyorlangan shirin yegulik, dirildooq).

lanardi. Masako kecha unga ko'rsatishgan qator uylarni esladi. Monmartning shu qismidagi mavzening muyulishida ham qahvaxona bo'lib, yo'ikaning qoq o'rtasiga stol qo'yib o'tirib olib, o'tgan-ketganni beparvolik bilan kuzatayotgan cholini xayolidan o'tkazzi.

Ularning mashinasi dala bo'ylab uchib bordi. Atrofda ko'zni tolqitiradigan na bir fabrika, na bir korxona ko'rindi: shahar tashqarisida birdan dala va bog'lar ko'zga tashlandi. Masako o'tgan kunlari mobaynida unga tinchlik bermuy kelayotgan o'ziga nomalum bir tuyg'u bilan hozirgi sayohatini orziqib kugandi. Yolqizlikda yashab, ko'ngli yarimta bo'lub qolgan va ayollik qismatiga bitilgan kunlарни o'tkazayotgan Masako yetti yilik o'tgan umri mobaynida erining gunohlaridan o'tishga bir necha bor rozi bo'lgandi. Ba'zan ohista, ich-ichida uni chaqirar, endi esa Yabuki yashagan hayotning bir bo'lagini bo'lsa-da, ko'rish unga ham qarz, ham farz edi. Balki Masako o'z iqtidori mezonini bilish ko'yida musofirchilik alamini togan rassom izidan borsagina uni tushunolgan bo'larmidi?

Shimolgacha cho'zilgan haqiqiy o'mmon Parijdan boshlanib, qirq-ellik daqiqalik yo'i edi. O'mmon ichiga kirib borganlarida, uni o'rab turgan g'ui-g'ui daraxtлами ko'rib, Masako dovdirab qoldi. Atrofda zog' ham ko'rinnasdi.

— Xuddi oyog'ing ostidan tulkimi, bug'umi chiqib kelayotgандек tuyulaverardi...

— Bug'ularga ko'zim tushmadi, lekin, quyonlar, sonyalar¹ u tomonda yashaydi, — deb qo'li bilan ishora qildi metr Kureda.

— Yabuki yana bir ishida qor bosgan daraxtorni tasvirla- gundi.

— Menimcha, bu xuddi o'sha. U yerning qishida qor yog'i- shi bilansovudan shamdekkotib qolish hech gap emas. Yabuki bu asar ustida chamasi besh soatlar ishlagandir-ov. Menga hammadan ham qorga taslim bo'lmay turgan jur'atlidaraxtlar qiyofusi yeqadi.

Hozir o'mmon tinch, lekin biroz vahimali, xolos. Bu yerda tubiiga urush ochgan inson zotining arvohini ham ko'rmaysiz. Ularning ko'z o'ngida o'mmon yo'ldagi daraxtlar orasidan tushgan yorug'likda qasrga o'xshash imorlat paydo bo'ldi; xuddi yapon qasri devorlaridek yassi tepaliklar cho'zilib ketgan — turgan-bitgani tarix deyavering. Shahar va qishloqlarni bosib o'tgan mashina niyoyat orziqib kutilgan Uazi vohasiga yetib keldi. Uzoqdan Masakoga tanish soy, o'sha anhor, o'sha ko'prik ko'zga tashlandi. Ko'prik quturgan buqadek beso'nqaqy bo'lsa hum vohaning manzarasini odadagidek to'ldirib turardi. Soy tip-tiniq, suvida o'rdaklar suzib yurardi. Yaqin atrofda restoran bo'lub, er-xotin Kuredalar uyga biron nima olib ketish maqsadida taomnomaga ko'rgani ketishdi.

¹ Sonya — olmaxonga o'xshash kemiuvcchi hayvon.

Ko'prikdir o'tishgach, Yabuki sevgan va har yili charamasi uch oy vaqtini o'tkazadigan Oyyor qishlog'iغا kirib kelishi.

— Keyin Yabuki kelib tushgan mehmonxonaga ham kirib o'tamizmi?

— Bu yerda hali mehmonxona ham bormi?

— Bolmasam-chi! To'g'irogi, mehmonxona emas, pansion U yerda Van Gog yashagan xona ham saqlanib qolgan.

Ko'zlangan manzilga yetib kelishgach, Masako bezovtalani boshladi. Mashina qator uylar tushgan ko'chadan o'tib bordi, qishloq idorasini joylashgan ixchamgina maydondan chiqdi. Masako mayxona oldida mashinadan tushdi. Mayxona tepasidagi «Van Gog» restorani degan yozuv yارq etib ko'zga tashlanib turardi. Bu ikki qavatlari eski bino bo'lib, xira yoritilgan zal bo'm-bo'sh edi.

Metr Kureda Masakoning ko'zlaridagi savolni darrov uqib oldi.

— Aytishlaricha, burun bu yerlarda tomiga tuyruk o'rnatilgan arzon qahvaxona bo'lginish. Van Gog shu yerda, orqadagi xonaning chordog'ida o'igan.

Masako hayot quyoshi botay-botay deb turgan bir pal-lada rassomning yuqoridaq kichkinagini tuyrukdan tushib turgan xira nurga ma'yus tikilib turganini ko'z oldiga keltirib, yuragi orziqib ketdi. Rassomga nisbatan bunday qo'polik - restoranning Van Gogning nomiga qo'yilgani nafsomiyatiga tegdi. Idora yonidan turib qarasangiz, cho'qqisiga o'tkir nayza

qudalgan eski cheirkov shundoq ko'rini turardi, agar nishablik-dan tepalikka ko'tarilsangiz, u yana ham yaqolroq ko'rindi. An shu Yabuki chizgan cheirkov edi. Bir necha asr avval chekkaroqda bunyod etilgan bu cheirkov qandaydir bir xislati bilan odamlar tomonidan asrab-avaylab kelinayotir. O'zi ham yo'llar ayrlig'an yerdagi joylashgandi. Cherkovdan ibodat murosimi ovozi eshitilib turardi.

— Menimcha, Van Gog aynan mana shu cherkovni chizgin bo'lsa kerak. Men uni Parijdag'i impressionistlar muzevida ko'rgundim.

— Ha, u shu yaqin-atrofiga qo'yib chizgan. U buni o'zi vafot etgan 1890-yili ishlagandi. Manzara - balki haliyam o'sha-o'sha. Yabuki esa aynan shu cherkovni yon tomonidan tasvirlagandi.

— Van Gogning cherkovi haqiqatdan butunlay boshqacha edi. Ko'kka parvoz qilsin deya ataylab moviy rangda chizilgandi. Yabukimki - muloyim-ma'yus, Van Gognikidan butunlay farq qilindi.

Masako cherkovning tosh devorridan yuqoriga boqdidi, balki quchonlardir rassom ham xuddi shu yerda turgan bo'lsa, ajabmas. Yabuki bunga boshqa tomonidan qaragandir, ranglar ham yunga boshqacha tovlanib ko'ringandir.

Cherkov atrofimi aylana turib, yonginasida Yabukining og'ir ko'rsinishini sezgandek bo'ldi va birdan bug'doyzorga ko'z yurtirdi. Pishib yetilgan tillarang boshqolar vazmin chayqalardi.

— Bu haligi, gala-gala qarg'alari bor Van Gogning dalasimi?

— Ha, xuddi o'zi, Yigirma yettinchi iyul kuni shu yerda u o'zini otib qo'ygan. Lekin tirk qolgan. Uyiga qaytib kelib, uch kundan keyin vafot etgan.

— Yolg'izlikda o'igaumi?

— Menimcha, Teo degan ukasi yonida bo'lgan.

Masako tillarang bug'doyzorga tikiilib qararkan, endi bu yog'iga bardoshi yetmasligini tushundi. U yana Yabukining og'ir xo'tsimishini his etdi.

— Ustoz, aytinq-chi, Yabuki ham o'z joniga qasd qilgani rostmi?

Metr Kureda hayratdan ko'zlarini chaqchaytirdi, sarosima dan tipirchilab qoldi. Sal narida dala xriantemalarini uzayot-gan xotimi qaddimi rostladi.

— O'takanni yoray dedingiz-ku! Butun hayoti afsonalar qurshovida qolgan rassomning o'mishini Yabuki-kunning ha-yoti bilan taq qoslab bo'larkamni? Bu gapni qayerdan oldingiz? — dedi Kuredanining xotini va boshdan-oyoq unga razm solib chiqdi.

— Yabuki ham o'sha o'zini o'ldirmoqchi bo'lgan rassomning izidan qolmay, uch oy lab shu yerlarda yashab yurgan-ku, axir, Kim biladi, balki o'limida ham unga o'xshagisi kelgandir. Shunaqasi ham bo'jadi-ku. Balki, o'sha tubsizlik uni ohanrabodek o'ziga tortgandir.

Er-xotin Kuredalar bir-birlariga zimdan qarab qo'ydilar-da, so'ng nigoqlarini oltin boshqolqariga qaratdilar.

Yabuki-kun shu yerda betob bo'lib qolib, bizga telegramma yuborgandi. Biz o'rtog'im ikkımız yetib kelganimizda, biz peshvoz chiqib kutib oldi va uchalamiz yo'l bo'yidagi restoranlardan birida tamaddi qidik. U sillaqurish kasaliga muhibulo bo'lgandi. Qorin to'q bo'lsa, kalla ham yaxshi ishlamaydi derdi-da, hech nima yemasdi va bu ahvolida duch kelgin yerda hushidan ketib, yiqilib qolishi hech gap emasdi. Qulog'imiza, harholda, mana shunday gaplar ham chalingan-di. Eshitgamiz shu, balki rostdan ham shunday bo'lgandir. Masako hatto ajal ham undan yuz o'girib ketgan Yabukini o'yluganida, ich-ichiga sig'may ketayoigan kinoya, jirkanish uni adoyi tamom qilib borardi. Ehtimol, bu cherkov ana o'sha paytlarda ishlangandir. Rasmida ham cherkov o'z tanholigini ko'ze ko'z qilib, ko'kka bo'y cho'zgancha, hayot oqimini kuzatib turardi.

O'sha vaqtidagi haqiqiy cherkovdan esa xoral' ovozlarigina zo'rig'a eshitilib turardi.

Dafn marosimi bo'lsa kerak. Bu yerning kunlari uzun...

Qosh qorayib, oqshom tushgani bilinib tursa-da, bug'doy-zonlar kunduzgidek yop-yorug', mavj urib turgan boshqolar to'liqini ular uzra to'shalgan ulkan gilangan o'xshab ko'rinardi. Dilianing shunday yonginasida tosh devor bilan o'ralgan katta

¹ X oral – xoral (katolik, protestant dinidaglarning diniy ashulalari va shu shakldagi musiqali pyesa).

yer maydoni bor edi. Boshida u bu joyning nimaligiga aqli yet-madi, lekin darvozadan gul ushab biri kirib, biri chiqib turgan bir to'p qariyalaru bolalami ko'rib, gap nimadaligini anglati.

Bu yerda mozor bor edi. Kuredaning rafiqasi qishtoq yo'ldan

xrizantemalarni nima sababdan uzgani endi ma'lum bo'lgandi.

Biron ta daraxt ko'rinnasdi, faqat qabr toshlari qator tizilib ketgandi, xolos. U yer-bu yerda odamlar ko'rinnardi. Masakoga bejirim tosh devor tagidagi oddiygina qabrnii ko'rsatishdi.

Unga qabr toshi o'matilgan bo'lib, atrofiga gullar ekilgandi.

Toshlardan biriga: Vincent Van Gog, boshqasiga – Teodor

Van Gog deb yozib qo'yilgandi. Ikki aka-uka qabrnii ko'rgan

Masakoni titroq bosdi, oxiratning qanchalik ma'nosiz va suku-

natga cho'meganini u ilk bor his etishi edi. Bu yerga ularning

xokigina dafn etilgandi. O'zi chizgan avtoportretdagidagi ozg'in

yuzli, suyaklari chiqib yotgan Van Gog shu qabrga qo'yilgandi.

Dunyoga kelib o'z qadrini topolmagan rassomning hayoti shu

qabr toshining tagida bosilib yotardi. Kuredaning rafiqasi

ehtirom bilan unga xrizantema guldastasini qo'ydi. Masako

qabr yonida turgan yog'och paqirni olib, gultarga suv quygisi

keldi. Qaborda yotgan odam Masakoning yaqn kishisi bo'masa-

da, baribir, uni begona deb bo'lmassi. Vafotiga 80 yildan ko'p

bo'lgan rassom yotgan yerga o'zingni tashlasang, bu yil dunyo-

dan o'tgan yapon rassomi ham uning yonida yotibdi-ku, deya-

ko'ngiling taskin topadi. Oddiygina bu qishloqda o'z rasmlari

bilan dong taratgan mashhur mussavvir dafn etilgan. Hayotda

qaysi yo'ldan borishni bilmay, uzlatda yashagan bu odam o'z

rasmlarida bizlarga nimalarni so'zlab bermoqchi bo'lganiykin? Yabuki ham o'zidan keyin tushunib bo'imaydigan, hali o'z bahosini topmagan nomalum cherkov tasvirlangan rasmi qoldirgandi.

Osmonda qarg'alar galasi bir ko'rindi-da, yana ko'zdan iloyib bo'idi. Masakoni bu yerlarga er-xotin Kuredalarning oqko'ngilliklari va Yabukining ruhi yetaklab kelgandi. Masako orqa tomonida qabr bo'lgan tosh devor yoniga keldi-da, uni asta sildi va u yerda o'sgan giyohdan bir tutam yulib oldi. So'ng asta yurib, qolgan qabrlarni ziyorat qildi.

Endigi keladiganlarga bu yerlardan joy topimasi amiq. Er togida yonma-yon turgan tobutlar ham siqlib qolgandir.

Masakodan sal narida er-xotin Kuredalar turishardi.

Ko'ryapsammi, sen ham rassomsan, lekin cherkovni, dalani chizigunlar Over-Uazidagi mozorda ular bilan birga yotishibdi...

pichirlab dedi metr Kuredaning xotini.

– Ha, to'g'ri. Ular doktor Gashening qo'ilda tarbiya topish-

gun-da.

– Siz rasmimi chizgan o'sha Gashe deganlari ajoyib odam

bo'lgan ekan-da. U bir vaqtning o'zida ham tirsagiga, ham

yelkusiga suyangan holda o'tiribdi...

– U senga yoqarmidi? Portretiga boqsang, tashla barimi, bu

yerduн bosmini olib ketayilik, deyayotgandek.

Metning tovushi Masakogo erining ovozini eslatib yubordi.

Hushyor tortgan Masako bildiki, er-xotin Kuredalar uni yolg'iz

mozor aylanib yurganini kuzatib turgandilar. Ular darvozadan

chiqibor tepalikdan qivalab, yurib ketdilar va ikki yuz-uch yuz yil burungi, rangini yo'qotmagan qator uylar yonidan chiqishdi.

Masako o'z xayollariga band ketayotgandi, birdan metr Kure-

daning ovozi uning diqqatini bo'ldi.

— Mana o'sha joy. Yabuki Overga kelganida, albatta, shu

yerda to'xtardi.

Mehmonxonasi Xongoning boshlanish joyida, qizil darvoza yonidagi Tokio talabalar pansionni eslatuvchi «Van Gog»

restoranining xuddi o'zi edi. Masako nima qilishini bilmay ikkilanib qoldi, lekin ancha ichkariga kirib borishgani bois orqaga qaytish imkon qolmagandi. Metr eshikni bir itargandi, ixchamgina mehmonxonanining ikkinchi qavatga olib chiquvchi zinasi ko'rindi. Zina yomida baland yozuv stoli turardi, ular-ning chaqiriqtariga hech kim javob bermagach, metr stoldagi qo'ng'iroqchani olib jiringlardi. Birozdan so'ng ichkartidan uybekasi chiqib keldi. Qaddi-qomati kelishgan, baland bo'yli bu ayol avvaldan tanish er-xotin Kuredalar bilan salomlashdi va Kureda bekaga Masakoni tanishitrgan edi, uning yuzida ham-dardlik ifodasi zohir bo'ldi.

— Demak, mse Yabukini xudo dargohiga olgan ekan-da... Uning oilasi borligini bilmabman. Yabuki hamisha yolg'iz edi, avval ham shunday bo'lganiga amin bo'ldim, endi esa — abadga tanho...

— Bu yerunga yoqardi...

— U rasm chizishdangina zavq olardi, xolos.

— U yashagan xonani ko'rsak bo'ladi mi?

— Yo'q, hozir u yerda bir hindistonlik talaba yashayapti, noqlay.

Oanchalik g'alati bo'imasin, bu so'zlar Masakoga tas-kin berdi. Kichkinagina tuyunkdan yorug' tushib turadigan chordoqning to'ridagi mansardani¹ ko'z oldiga keltirgani zumon, uni qo'rquv hissi qamrab olardi. Kureda majburlamadi. Bekaga minnadorchiлик bildirib, choyshaqa berishdi-da, chiqib ketishdi.

— Yabuki yashagan xonani ko'rish sizlarga nasib etmagani-dan juda afsusdaman. U doim o'sha yerda ishlardi. Muhimi-ehizish, derdi u. Haqiqisidan farqli o'laroq, g'amgin ranglar, mana, yanayam og'irishdi, chunki u ranglarni shunday qabul qildi.

Masako haqiqatan ham o'sha faqirona xonani ko'rgandek ruhi tushib ketdi. U Yabukining qadami yetgan yerlarning ham-musida bo'lganini ko'z oldiga keltirdi. Bu sayohat eri bilan yetti yil ayrılıqda yashagan Masakoning Yabukini yaxshiroq bilib olshiga yordam bergandi. Masako mehmonxona bekasinining so'zlarini esladi: «U doim yolg'iz edi, shuning uchun men uni hech kimi bo'imsa kerak deb o'ylagandim, endi bo'lsa, to abad shundayligicha qoladi...» Balki Yabuki uni umrining so'nggi kunlarigacha yolg'iz qoldirishlarini istagandir...

¹ Mansarda — shipi qiya boloxona.

QIRMIZI

BINAFSHA

TOSIO UDO

Janob U. menga tuvakda binafsisha sovg'a qildi. Men Sizarga shu inson haqida gapirib bermoqchiman.

Janob U.ning kasbi – baytar, ya'ni mol do'xtiri. Hozir ko'plar uyida mol boqadi. Shu bois janob U.ning bosh qashishga qo'lli tegmasa kerak deb o'ylagandim. Yo'q, men haqiqiy ahvoldan butunlay bexabar ekamman. Ayni payda Jonivorlar shifoxonalariga emas, aksincha, kuchuk va mushuklar bilan bemalol kirish mumkin bo'lgan mehmonxonalariga va itlur sartaroshxonalariga ehtiyoj ko'proq ekan.

Buning ustiga janob yo'l-yo'lakay kirgan mijozning iti borni, mushugi bormi shunchalik qunt bilan davolar ekanki, hisob-kitob qilib chiqib ketgan mol egalari bu yerda qayta qoralarini ham ko'rsatmas ekanlar.

Janob U.ning ro'zg'or tebratish uchun yagona chorasi qolgandi, uham bo'lsa shu yaqin orada yashaydigan boshlang'ich va o'rta sinf o'quvhilariga xususiy dars o'tish. Menimcha,

janob U. urushdan keyin qanchadir vaqt amerikaliklar huzuridagi bosh qarorgohda ishab, ingлиз tilini o'rganib olgandi.

O'n yil burun esa u o'zini adabiyotda sinab ko'rmoqchi bo'lgandi. Bu yil janob U. oltmishta kirdganimi nishonladi, demak, u paytlarda uning yoshi ellikda bo'lgandi, odamlar naza-tida go'yo u taqdiringa tan bergandek edi-yu, lekin janobning to'satdan ruhi ko'tarila boshladi. Baytar sifatida o'z ishining ustasi ekaniga gap yo'q, biroq qo'y og'zidan cho'p olmagan bu odum, haligi «mehmonxonalar hujumiga bus kelolmasdi.

Men u bilan o'sha paytlari – bundan o'n yil burun adabi-yot saboqlarida tanishib qolgandim. Afsus, buni men sizarga awvalroq ayrtishim lozim edi: gap shundaki, kamina yozuvchiman – bu ishda mechog'lik muvaffaqiyatga erishgamman, buning ihmiyati yo'q. Men shu saboqlarda dars berardim. Sababini bilmadim-u, lekin o'sha paytlarda adabiyotga ixlosmandlar ko'p edi, to'garak ham kundan-kunga rivojlanib, gullab-yash-nub borardi.

Janob U.ga ko'zim tusghan zahoti bildimki, undan hech nima chiqmaydi. Roman yozish uchun odamda alohida bir iste'dod bo'lishi zarur degan qat'iy fikrdan yiroqman, lekin o'zimming kamtarona tajribamdan kelib chiqib aytadigan bo'sam, agar inson halol yashasa, har bir qo'yayotgan qadamini o'ylab bossa, shuning o'zi hech bo'lmaganda bita qissani dunyoga keltirish uchun yetarli degan bo'lardim. To'garakdaglarni ku-

zatganimda, ularning yoshiba, jinsiga ahamiyat bermaganman va birontasiga umidsiz nazar bilan qaramaganman.

Afsuski, janob U. aynan o'shanday noshudlar sirasidan edi. Balki men qattiq ketib yuborgandirman. Ammo-lekin, men, ko'pni ko'rigan inson sifatida uzoq yillar davomida peshlani, mukammallashgan o'z ichki sezgilarim sadosiga ishonardim.

Sochlariqa oq oralab, biroz bukchayib yursa-da, u o'zini mag'firur tutardi; odamlarga haddan tashqari ilfitoli edi, ulor ham uni benuqson va halol inson deb bilar edilar. Aftidan, janob yoshining yukini his etib tursa kerakki, yosħlar davrasiga kirdganiда o'zini kamshitigandek ko'zlarini yerga qadagancha bukchayib turaverardi. Bunday joyga adashib tushib qolganini o'ylab, afsuslanardi.

Haftalar ko'z ochib-yumguncha o'tdi-ketdi, uch oylik saboqdag'i darslar ham niroyalab, boshqalar qatori janob U. ham imtihonga o'z qasidalarini taqdim etdi. Uning yozganlarini o'qib chiqqach, ichki sezgilarim meni mutlaqo aldamaganiga amin bo'ldim. Yozilganlarni mutlaqo adabiyot deb bo'lmasi, syujet yoki kompozitsiya to'g'risida-ku, gapirmasa ham bo'ladi. Uning uslubi boshqalarinikidan yomon edi demoqchimasun; yoki bo'imasa ba'zi joylari g'azabni qo'zg'ar darajada bema'ni ham deyolmayman, shunchaki, yozilganlarning bari bir-biri ga sira bog'lamagandi. Sen adabiyotni qo'y, yaxshisi, o'sha hayvonlaringni davolayer, demoqchi ham bo'ldim. Lekin uning yuzi birdan jiddiy tortganini ko'rdimu tilimi tishlab

qoldim. Keyin o'zim ham astoydil qilingan mehnat zoe ketmas degan qarorga keldim va u yog'iga o'zi asta-sekin tushunib, qo'lidan kelmaydigan ishdan voz kechar deb o'yladim.

Janob U. birinchi kursni tugatib, ikkinchi kursga o'tdi. Sochlariqa oq oralab, bukchayib qolganiga qaramay, bu odam uchinchi kursda ham o'shanday qat'iyat bilan o'qishni davom etti, yomg'irli, izg'irinli kunlarda ham bironta dars qoldirmay, mushg'ulotlarga muttasil qatnashib turdi.

Men unga ma'ruzalarning ma'no-mazmuni murakkab-lashmagani, o'zi bilgan mavzular takrorlanishini, faqat o'qituvchilar o'zgarganini, qo'rqmay bosqichdan-bosqichga o'taverishi mumkinligini aytdim. Janob U. ni bularning birontasi bezitmadni, o'sha ishtiyoyq, o'sha jiddiylik bilan mashg'ulotlarga qatnashib turdi. Bu ham mening g'ashimga tegardi. Xo'p, mana, kelding, eshitding, asoslarni o'zlashtirding, endi u yog'i o'zingga havola. Saboqdan bu darajada umidvor bo'lish, yozuvchi bo'laman deganga yarashmaydi.

Ba'zan U. bilan uchrashib qolganimda, yozganlarini bir sidra o'qib chiqardim va uni bir qadam ham olg'a sijimaganay ayon bo'lardi-qolardi. Men har holda yozuvchiman, yaxshi-yomon asarning farqiga boraman. Janob U.da pichoqqa ilinarli biron nima topilmashi. U haqdagi ilk taassurotim mutlaqo to'g'riliga ishonch hosil qildim.

Oxiri, uning o'zi ham buni payqadi, shekilli – darslarda ko'rinnmay qoldi. Men ham uni esdan chiqarib yuborgandim –

birdan u to'garaklarida nashr etilgan jurnalni menga jo'natdi. Unda janob U.ning hikoyasi bosigandi. O'qib, hayron bo'ldim. Bu nasrga o'xshab ketardi, yana unda qandaydir kuchni sezib turardingiz va bu yozilganlar o'quvchini o'ziga torta olardi.

U yerda gap askar hayoti haqida borardi. Albatta, bu yosha uni armiyani yoki urushni ko'rмаган deb bo'lmasdi, zero uning avvalgi hikoyalariда ham xuddi shu mavzu ko'tarligandi. Men uning aynan urush taassurotlari va kechinmalari haqida yozmoqchi ekanimi anglab yetdim. Men bundan ta'sirlandim. Chalkash, tushunib bo'lmas syujetlarni jon kuydirib qidirish shart emas, boshdan kechinganlaringni ro'yrost bayon qilsang, shuning o'zi kifoya.

Janob U.ga hikoyasi menga ma'qul tushgamini yozdim. Muvaffaqiyatga erishayotganidan xursandligimni, ayni paytda hayratda ekanimni ham yashirmadim. Undan javob kelmadni, lekin janob U.dan olgan ibratim ruhimni ko'tardi. Meni yani bir tushunib yetganim shu bo'idiki, qunt va turishqoqlik hatto adabiyotda ham zoe ketmas ekan.

O'shandan beri janob U. yilda bir yo ikki bor yozganlarini muttasil menga jo'natib turadi. U o'z ijodi bilan to'garak jurnali va uning nashrlarida qatnashadi, atiqi bir marotaba bo'lsa ham mahalliy gazetada boshqa novellalar qatorida yozgani bosilib turadi. Hikoyalarinib bekamu ko'st asarlar qatoriga o'shib bo'lmasa-da, unda o'quvchini o'ziga jalb eta oladigan o'ziga yarasha bir kuch bor.

O'tgan yilning oxirlarida janob U. uymiga tashrif buyurib, tuvakda binafsha olib keldi. Bundan bir hafta burun esa doimiy un'anaga ko'ra, navbatdagi asarini jo'natgandi. Yozganlari yana o'sha gazetada chop etilib, bu safar eng yaxshi deb topilgandi. Bu bir zabitning so'nggi kunlari va o'llimi haqida hikoya qiluvchi, uncha katta bo'lмаган yigirma betlik hikoya bo'lib, aftidan, janob U.ning harbiy tajribalari mahsuli edi.

Hikoyani o'qib chiqdim-da, unga o'z taassurotlarimni yozib yubordim va hayal o'tmay janob U.dan javob xati oldim. Unda u men bergen yuksak bahodan minnatdor ekanimi mammuniyat bilan izhor etgandi. Tezda o'zi ham qo'ng'iroq qilib qoldi. O'g'ir, vuzmin bu odam uymiga tashrif buyurishini so'rab, oyoq tirab turib oldi. Sira qo'yavermagach, rozi bo'ldim-da, keladigan kуни begiladim.

Men, bu tashrif sababini tushunolmay, o'zimcha, ko'rsatgan e'tuborim uchun minnatdorchilik bildisra kerak, deb o'ylagandim. Hatto uym uzoqligini ro'kach qilib, uni yo'ldan qaytarmoqchi ham bo'ldim, u e'tirozimni qabul qilinadi.

Janob U. qog'oz xaltaga, yana bir necha qavat gazetaga o'ralgan binafshali tuvakni ko'tarib, va'dakashgan kun uyingga kirib keldi. Bosiqina bu odam eskicha mulozamat bilan salomlashdi-da, binafshani qanday parvarishlash haqida uzundan-uzoq ma'ruza qila ketdi. Men gullar ishqibozi emasdim, lekin ozodlikka chiqib erkin naftas ola boshlagan ajabtovr binafshani ko'rdimu uning sho'xchan, tiniq rangiga mahliyo

bo'lib qoldim. Qalin barglari chindan-da hayratomuz bu binafsha bo'liq va baquvbat edi. Uni yaproqli o'simliklar qatoriga qo'sha bo'tarmikin deya o'ylab qoldim.

Boshda u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirdik, so'ng ikkimizni biday qiziqtiradigan mavzu uncha ko'p bo'lмагани bois uning so'nggi hikoyasini muhokama qilishga ko'cha qoldik. Voqealarushda mag'lub bo'lgan, qishi qattiq kelgan Manchjuriyada bo'lib o'tgandi. Sovuq urib, holdan toygan yapon zabitini qo'msab, harbiy gospitalda jon beradi; tirk qolgan do'stilari muzlab yotgan yerni arang kavlab, uni o'sha yerga dafn etisha-di. Men:

– Nima, o'zingiz harbiy gospitalda hech bo'lмаганиmisiz? –

deb so'radmin.

– Bo'lganman.

– Aynan qayerda?

– Telin degan joyda.

Manchjuriyada o'sib-ulg'ayganim uchun bu nom menga tan-

ish eshitildi.

– O'shanda tobiningiz qochgammidi? Yoki yarador bo'lgan-midningiz? – deya unga qarab qo'ydim. Uning qismi Shimoliy va Markaziy Xitoyda jang qilganini bilardim. – Bu qanday sodir bo'lgandi?

U boshini eggancha, jum turardi.

– Bilasizmi... – deya zo'rg'a gap boshladi, tomog'iga bir nima tiqilgandek, ikkilanib. Keyin labini pirpiratib ming'irradi u... Mana, qarang... – deb o'ng qo'li kaftini menga uzatdi.

Qo'idayin qo'l, besh barmoqning bari but, bir qarashda ham-masi joyidadek, lekin sinchiklab razm solib qaragandim, kaftidagi bir necha chandiqa ko'zim tushdi, o'rtada, ular tutashgan joyda kuygandan qolgan siliq dog' bor edi.

Birdan miyamda bir fikr paydo bo'ldi...

– Nahotki, o'zingizni otgan bo'lsangiz?

– Ha.

Janob hayajonlanmay, beparvogina im qoqib qo'ydi-da, boshqa hech nima demadi. Lekin men voqeal qanday sodir bo'ganini ko'z oldimga keltirmoqchi bo'ldim. Axir bir oygina bo'lsa ham armiyada xizmat qilgan va nimalarindir bilsiga ul-gurgen edim-da. Atidan, u yaqin-atrofsda hech kim yo'qligidan foydalanib, o'ng qo'lini miltiq og'ziga to'g'rilagan va chap qo'lli bilan tepkini bosgan.

Shu ham gap bo'ldimi. Janob U. olgan jarobatini quroldan foydalanishda ehtiyoitsizlikkayo'l qo'ydim deya tushuntirmoqchi bo'ldi ham deylik, lekin bu shunchaki jo'n ish emasligi ma'lumku. Birinchidan, qurol o'z himoya vositasiga ega, shu bois bunday hodisalar ko'pam uchrayvermaydi. Miltiq o'qlanganda esa uni tozalash, tuzatish aslo munkin emas, ustiga-ustak yaqin-atrofdan soldatlar chiqib qolishlari ham mumkin.

Xullas, keltirilgan dalilar o'zini o'zi otish mutlaqo tasodifiy hodisa emasligini tasdiqlab turbidi, demak, o'z qo'lini mo'jalga olib otishga nafaqat jur'at kerak, bunday latifani to'qib chiqaridigan odamda boy tasavvur ham bo'lishi lozim.

Men xiralik qilib janob U.ning joniga tegmoqchi emasdim-u, unga ma'qul bo'lar deb o'ylab, ishlari qanday ketayotganini surishinrib bilmuoqchi bo'ldim. Suhbatumiz uni qiziqitradigan mavzu bo'lgani bois savollarmiga jon-jon deb javob berardi.

Ularning otryadi daryo sohiliga yashiringandi, ro'paraga esa Sakkizinchil armiya joylashgani bois, xuddi yopishib qolgandek joylaridan qimir etomasdilar. Vaqt vaqt bilan narigi qirg'oqdan ularga varaqachalar otishardi yoki bo'lmasa, karnayda yaponchalab taslim bo'lishni taklif etishardi. Avvaliga janob U. qochish uchun payt poyladidi, so'ng bundan biron naf chiqmashigini tushunib yetgach, unda o'zini otish fikri tug'ildi.

Taxmin qilganimdek, janob U. bu boshlagan ishi mushkul savdo ekamini oxiri o'zi ham tan oldi. U barini taroziga solib, haqiqiiga yaqin afsonani to'qib ham qo'ygandi, faqat qulay fursat kutardi, xolos.

Nihoyat, kutilgan fursat yetib keldi. Qurollar almashtiriladigan bo'ldi, U. ham eski miltig'ini topshirib, yap-yangi qurol - «tyan»¹ imi oldi. O'jha sifatida berilgan miltiqlarni zabitlar shunday deb atardilar, Sakkizinchil armiya shu miltiq bilan qurollangan edi. Uning omadi chopib, «tyan»ning tasmasi uzilib ketib, himoya vositasi ishdan chiqqan ekan.

U to'qib chiqargan afsona bariga mos kelardi. Oxiri U.ni ruzvedkaga yuborishди. U orzu qilgan narsalar birin-ketin amalga oshayotgan edi.

U. tepalikkacha yetib bordi-da, o'zini arosatda qolganday his etdi - bu u to'qib chiqargan latifaning boshlanishi edi. Haqiqatga yaqin kelish uchun balandlik bo'lishi kerak edi va u shu joyga yetib keldi. Qo'llida miltiq bilan qiyalkka ko'tarilish qiyin edi. Halig'i «tyan»ning esa tasmasi uzuq edi. Nima qilish kerak? U miltiqni tepalikka otdi-da, o'zi ham ikki qo'lli bilan tirmashib tepega chiqsa boshladi. Tepalik cho'qsisiga chiqib oldi-da, qo'llini cho'zib, miltiqni uchidan tutdi va o'zi tomonga torta boshladi, bir vaqt tepki allaqanday ildizgami, shoxgami tegdi-da, miltiq otlib ketdi.

Janob U. yana bir marotaba afsonani tekshirib ko'rdi va hummasi joyida ekaniga ishonch hosil qilgach, tepalik etagida yordi, miltiq og'ziga o'ng qo'lli kaftini qo'ydi, ko'zini chirt yundi, so'ng chap qo'lli bilan tepkini bosdi, oldiniga og'riqi sezmadni, qo'lli xuddi pardek yengil bo'lib qoldi va osmonga uchib ketdi.

U xavotir bilan ko'zini ochdi. O'ng qo'llining kalfida teshikni ko'rdi, nozikkina, oppoq suyakkalari shundoq ko'rinishi turgardи. Zum o'tmay yarasasi qonga to'ldi. Qon pastga tomib tu-sha boshladi. Shunda u rejasini o'zgartirdi. O'zini tepalikdan qilib tushganday qilib ko'rsatmoqchi bo'ldi-da, ikkinchi yoniga ag'anadi va baqirib odamlarni yordanga chaqira boshladi.

¹ Sakkizinchil armiya - Xitoy Kompartiyasi tomonidan boshqariladigan Xitoy armiyasining muntazam qismi.

² Tyan - miltiq (xitoy).

Qichqiriqni eshitib, darrov bir necha odam yordanga yetib keldi va yarami bog'lashdi.

— So'roq ham bo'lqandir?

— Bo'lganda qandoq, juda qattiq so'roq bo'ldi! Bir amallab qutulib chiqdim.

— Voqeja qachon yuz berdi?

— Qirq to'rinchchi yilda.

Ikkovimiz ham sukuiga cho'mdik, so'ng men yana bir nimanani aniqlamoqchi bo'ldim:

— Faqtgina armiyaga bo'lgan nafratdan bunday ish qilish mumkin emas. Balki siz marksizm g'oyalariga xayrixfordirsiz?

— Ha, — oddiygina qilib hayajonsiz javob qaytardi u.

Xayrashish oldidan janob U. o'sha-o'sha vazmin holda dedi:

— Men gospitalda yotganimda ba'zan frontdag'i do'stlarimni qattiq qo'msardim.

Janob U. xayrashdi-da, ketaturib, qo'llini ko'ksiga qo'yib dedi:

— To'g'risini aytasam, men bu haqda yozmoqchi edim, shuning uchun yozuvchilikni egallamoqchi bo'lqandim, lekin bu ish qo'simdan kelmadidi. Kecha ikki yuz etlik betlik narsani yozib tugaqidim va o'zimni shunday yengil his etdimki, asti qo'yaversaz. Men sizdan juda-juda minnatdorman. Shu yillar mobaynida siz menga ko'p yaxshiiklar qildingiz. Tomog'imga nimadir tiqildi. Men uning o'ng qo'lliga qaradim. O'sha qo'lli soyabon tutishga yaramasa ham qalam ush-

lushga asqotishi mumkin edi. Demak, o'sha qo'lli sabab va yana o'sha qo'l bilan ikki yuz etlik bet narsani yozib, o'n yilik hayotini surflabdi. Urushda qatnashmaslik uchun ikki qo'l va ikki oyoqni otish emas, balki aynan o'ng qo'lli ishdan chiqarish kerak edi.

Janob U. ning o'sha tashrifidan so'ng bir oycha qirmizi binafsha gullab turdi. Mana, ancha vaqt o'tdi, lekin deraza oldidagi mening stolimda haliyam qirmizi binafsha ochilib turibdi. Quyosh tushganda u yanayam qiziroq tusga kiradi.

Men aslida yalqov odamman, ammo-lekin, binafshani parvarishlash bilan bog'liq ko'rsatmalarini bajonidil bajaraman.



da, o'zini butunlay tabiat hukmiga topshirdi-qo'ydi – yozda daraxtlar salqinidan bahramand bo'lib, kuzda esa – barglar uymi ichida yashay boshiladi. Bog'dan qushlar arimasdi, yozda esa ilonlar paydo bo'lardi. Agar bog'bon bo'lish istiyoqi tug'ilmaganda, shamol hamon daraxtlardan uzilib tushayotgan barglarni to'zitib, uchirib, ularga o'z hukmini o'tkazib yuraverган bo'lardi. Bu – endi uning ikkala farzandi bir vaqtning o'zida oila qurib, uyni tashlab ketishganidan so'ng bir yil

SINTI YUKI

XAZONREZGI BOG'

I

Bog' bilan ovuna boshlaganida Kayamaning yoshi oltmisida edi. O'shandan beri oradan o'n yil vaqt o'tdi... Oltmisiga to'lganida yana o'n yil umr ko'raman deb u sira o'ylamagandi, nari borsa yana ikki, uch yil yasharman degandi. Endi, mana, ko'rib turganingizdek, o'ziga ermak ham topib oldi. Hozir yoshi yetmisida... Bog', u umid qilgan o'sha tushuntirish mushkul bo'lgan quvonchni hadya etishi uchun kamida yana o'n yil vaqt kerak bo'lishini u boshidanoq bilgandi va shunga qaramay, Kayama bor pulni ikki yuz subo¹ yer sotib olishga sarflagan-di. Ishdan bo'shashi oldidan qo'lliga tekkan pulning ham tagi ko'riniq qolgandi.

Burungi Musasino tekisligi qiyofasi hanuz saqlanib qolgan o'sha Tamagava soyi yaqinidagi o'rmon chetidan uy qurdi-

¹ Subo – 3,3 kv.m. maydon o'chovi.

da, o'zini butunlay tabiat hukmiga topshirdi-qo'ydi – yozda daraxtlar salqinidan bahramand bo'lib, kuzda esa – barglar uymi ichida yashay boshiladi. Bog'dan qushlar arimasdi, yozda esa ilonlar paydo bo'lardi. Agar bog'bon bo'lish istiyoqi tug'ilmaganda, shamol hamon daraxtlardan uzilib tushayotgan barglarni to'zitib, uchirib, ularga o'z hukmini o'tkazib yuraverган bo'lardi. Bu – endi uning ikkala farzandi bir vaqtning o'zida oila qurib, uyni tashlab ketishganidan so'ng bir yil o'tgandagi gap.

Xotini vaft etganida Kayama ellik ikki yosha edi. Ik-kala farzandi – qizi va o'g'li oila qurish uchun uning roziligini so'rashdi. O'shandan beri ular Kayamaning uyiga qadam rannida qilishmadidi. Ba'zan Kayamani vahima bosardi: nahotki, u qari vaysaqiga avlanib qolayotgan bo'sa? Balki bu uzoq va mashqaqqatli umr davomida tur mush yo'ldoshisiz qalbingni tilka-pora qiluvchi o'sha g'alatlilik to'planib borarkan-da? – deya o'zini-o'zi yupatmoqchi bo'lardi. Ammo bundan fagaq tushkunlikka tushgani qolardi, xolos. O'g'li uylanish niyatida ekunini aytganida. Kayama qilar ishni qilib qo'yib, endi mendan rezilik so'ranganiga o'laymi, deb xavotirlang'an edi. Yo'q, o'g'li bilan gaplashib olganidan so'ng darhol roziligini berdi. Qizida ham deyarli shunday bo'lgandi. To'g'rirog'i, u ko'ngilchanlik qilgandi.

Farzandlari o'z oilalarini bilan barcha qulayliklarga ega zamonaviy uuda yashashardi va otasining almisoqdan qolgan

eski uyiga kelishga unchaliq xushlari yo'q edi. Bu davrning urf-odallari Kayamani qanchalik iztirobga solsa, o'z yolq'izligi, hammadan ajralib bir chetda qolib ketganini his etish shunchalik kuchayib boraveradi. Ikki nafar farzandi to'rt nafar bo'lganini o'ylab suyunsa, endi bir yo'la to'rttalasidan ham judo bo'lgan-dek tuyulmoqda edi... Kayamaga ikkinchi bor uylanishdan ko'ra, farzandlari kelajagini ta'minlash muhimroq edi. Balki o'zini yolq'iz his etgani uchun ham uni o'z yoniga chorlaydigan do'sti ana shu bog' bo'lishini xohlagandir?

«...Bog' yaratdingmi, endi, bunyod etganlarining so'ngi nigoching bilan vujudingga singdirib, bu dunyonи tark etishing qoladi, xolos. U dunyoga olib ketishing mumkin bo'lgan yagona ilinj – bu so'nggi lahzalaringga ko'z oldingda gavdalanganlari bo'jadi, xoloss», – bot-bot shivirlardi Kayama o'zini nima-gadir ishortirmoqchi bo'lib. Holbuki, u dunyo o'zi qanaqa, degan savolga durustroq javob bo'lmasa-da, rosti u bu haqda chuqurroq o'ylab ham ko'rmagandi. Faqat mujmalgina qilib, narigi dunyo deb qo'ya qolardi. Kayama ikki-uch yilik umrim qolgan bo'lsa kerak deya boshida bog' yaratishga hali astoydi yoki katta bir orzudek qaramay kelardi.

II

Kuz eshik qoqishi bilan Kayamanikiga bog'bon va toshfuruşh kirib keldi. Bog'bonning ismi Sudo bo'lib, uni Kayamaning o'zi chaqirtirgandi, sotuvchi esa kutimaganda o'zi kelib qoldi.

U choqqina yuk mashinasida Okutitibu tog'idan tosh tashirdi. Tosh kerak bo'lgan uy yoki bog' egalarini o'zi qidirib topardi, yuk mashinasidagi toshni o'n ikki yoki o'n uch ming ienga pullardi. Mashinani odatda uning yigirma yoshi o'g'i haydardi, savdogar esa uning yonida o'tirardi. Ba'zan unga buyurtmani odindan berishardi, lekin ko'proq sakkiza, to'qqizia yirik tosh yuylangan mashinasida yaqinda qurilgan uylarni uning o'zi qidirib topardi.

Savdogar Kayamaning uyiga xuddi shunday tasodif bilan kelib qolgandi. Bog'ning ko'tami uning diqqatini o'ziga tortgandi. «Avval toshlarimni bir ko'rsangiz-chi», – dedi u. Sotuvchi yuzi qizil, ko'zlar qisiq, tishlari esa oppoq, burnining tagida qo'ng'iz mo'ylovi bor kishi edi. Bu sifatlarsiz uning tashqi ko'rinishi e'tiborni tortmasa-da, lekin halol va ochiqko'ngil ekanini yuzi shundeq aytilb turardi. «Mayli, ko'rsam ko'ra qolay», – ko'nglidan kechirdi Kayama, natijada esa bir emas, bir necha yuk mashina tosh sotib oldi. Unga sodda, ochiqko'ngil savdogardan ko'ra ko'proq uning kamtarin, buning ustiga mehnatsevar o'g'li ham yoqib qolgandi.

Kayama ba'zan tosh sotib olishdan bosh tortar yo bo'lmasa molning bahosini tushririshni so'rardi. «Ustoz, savdolashishning hadisini olibsiz-ku», – jiddiy qiyosada tegajog'lik bilan derdi savdogar va molini Kayama ay'gan narxga berib yuborardi. Ehtimol, u Kayamaning bir vaqlar maktabda o'qituvchi bo'lganini bog'bondan eshitgan bo'lsa kerak.

– Bunday katta bog' uchun, – savdogar ikkala qo'llini ikki yoqqa keng yozdi, – o'n moshin tosh kerak bo'lishini ustozning o'zları juda yaxshi bilsalar kerak. Yo'lkalarga kamida yuzla tosh plitta zarur bo'ladi. Keyinroq, aminmanki, sizga yana yirik tosh ham kerak bo'lilb qoladi.

– Lekin menga bog' uchun 50 subo yer ajratilgan... Siz ay-tayotgan o'sha yirik toshning kattaligi qanday o'zi?

Savdogar yana ikkala qo'llini ikki tarafga yoyib:

– Mana bunday va bundan ikki baravar katta va yo'g'on. Havó rangida. Bir donasi bir moshinga joy bo'ladi, – dedi.

«Qiziq, bog'bon Sudo buni qayverga joylarkin?» – deb o'yaldi Kayama va shu zahotiyiq xayoliga bir fikr keldi, ehtimol, bu moviy tosh butun boshli bog' manzarasini mukammal holga yetkazdi.

– Pulim kamroq edi. Shu tosh bilan yakunlab qo'ya qolsak degandim. Tosh rostdakam moviyimi o'zi?

– Moviy bo'lganda qandoq! Men uni yaqinda topdim, hall hech kim ko'rmanagan, o'g'lindan boshqa. Bunaqasini umringda ikki yo uch marta uchratishing mumkin. Bir chaqaga qimmat toshni pullayapti, ishi ham xo'p serdaromad ekan-da, deb o'ylasangiz kerak, chamamda. Ba'zan shunday ham bo'ladi, uch kun tiling osilib ishlaysan-u, bor-yo'gi bittagina shartnomma imzolaysan, u ham xarajatingmi qoplaydimi-yo'qmi, xudo biladi. Toshni Tokioga yetkazish uchun yana uch kun sarflaysan; bir kuning tog'dan bir-biriga mos tushadigan toshni topishga ketsa,

ikkinci kuning uni moshinga yuklaysan, uchinchi kun esa uni tashish kerak bo'ladi. Yoqilg'i sotib olish kerak, moshinning buzilib qolishi bor, agar yordamching uquvli bo'lmasa, topganidan ham ayrılish hech gapmas. Shunday paytlar bo'ladi, uya ikki qo'lingni burningga tiqib qaytasan, ustigastak yana qarz ham bo'lasan, ish haqi to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi. Yana ishchilarga quyib berishing ham kerak. Axir ular yosh yigitlar bo'lsa. Tog'u toshlar mening jon-dilim. Bu moviy rangidi meni nimasi bilandir o'ziga maftun etgan. O'yaymanki, sizning bog'ingizga u uzukka ko'z qo'ygandek yarashib tushadi. Agar puli bo'lganida ham baribir uni menga sotardi, deb o'ylaysizmi? – Hayajondan va usiz ham savdogarning qip-qizil yuzi xuddi tonggi shafaqdek lovullab yonib borardи.

Kayama birdan yuragining tez-tez urayotganini his etdi. «...Moviy toshni u dunyoga olib ketamanmi? Nima, uni boshumga yostiq qilarmidim?»

Taxminan bir haftacha o'tgach, savdogar yuk mashinasida o'sha moviy rangli toshni olib keldi. Peshona terini arta turib, hayajonlanib dedi:

– Roppa-rosa besh yuz kamme' bo'ladi!

Bu xarsangni moshindan tushirib, endi bu yog'iga sudrab olib kirish bog'bonning zimmasidagi ish edi. Besh kishi darhol pishang bilan qurollanib, sekin-asta toshni siljita-siljita, bog'ning ichkarisiga olib kirishdi. Yumshoq yer ham toshning

¹ Kamme – og'irlik o'chovi, 3,75 kg.

og'irligidan ingrab yuborgudek bo'ldi. Savdogar ham yechinib, o'g'li bilan birga ishchilar yonida ivisir edi.

– Ehtiyyot bo'linglar, tirmalmasin, – baland ovozda ogohlantirdi Kayama. Bu ogohiantirishdan ko'ra ko'proq avrashga o'xshab ketardi. Odatda Kayama deyarli pichirilab so'zlardi, hozir esa ovozining kutilmaganda bunday kuchli chiqqanidan o'zi ham hayron qoldi. «Tamom, endi bu tosh, menimcha, o'zimga qabr toshi bo'ladi», – dilidan o'tkazdi u.

– Yaxshi tosh. Ajoyib tosh. – Kayama savdogarning yelkasiiga urib qo'ydi. Biroq bunday qarasa, bu savdogar emas, uning o'g'li ekan. O'g'li unga javoban muloyimgina jilmaydi-da, yelka qisib qo'ya qoldi. Savdogar shundoq ham qisilgan ko'zlarini badtar qisib dedi:

– Bunday toshda kunduzi yotib uxlasa ham bo'ladi.

«Balki, – deya ma'qullagandek samimiylilik bilan boshini sil-kitti Kayama. – Kunduzi uslash yaxshi, lekin undan ham yaxshisi, bolalarmi bu yerga chaqirib, tosh ustida o'turib ko'k choy ichganga nima yetsin! – Kutilmaganda uning qalbi quwonchga to'lib ketdi, lekin shu lahzadayoq uning o'mmini dilgirlik egalladi:

– Buncha go'lbosmasam...»

Xarsangni bog'ning o'rtafiga olib borganlarida qosh qorayib qolgandi. «Tosha suv kerakka o'xshaydi», – o'yaldi Kayama va yog' och paqurni yoshgina ishchiga berdi-da, quduqdan bir necha paqir suv olib kelishni buyurdi. Suv sepilgandan keyin sil-liq tosh birdan och-ko'k tusga kirib, yashnab ketdi... Kayama-

ning ko'z oldida xuddi ulkan dengiz yastanib yotgandek bo'ldi. Savdogarning ko'zlarini biroz namlandi, u yuzini Kayamaga yaq-inashitrdi-da:

– Qulog soling-a. Vodiyydag'i tog' soyining jildirashini eshitayapsizmi?

– Eshittayapman, shekilli. Mening vafotimdan so'ng ham bu ovoz yanada balandroq jaranglasa qaniydi. – Kayama nam tortgan toshning sirtimi siladi. Savdogarning yonoqlaridan yosh dumaladi.

– Toshni ko'rgim kelib qolsa, yana kelaman. Bir oz muddat-ga bo'lsa-da, orqa eshkidan kirishga ruxsat berarsiz, axir?

– Ha, albatta, bizga yo'q demassiz, harqalay... – jur'atsizgina qo'shib qo'ydi savdogarning o'g'li.

III

Ikki-uch kun o'tgach, Sudo xushxabar olib keldi:

– Aobadayda ulkan bog' sotilyapti. Bunga bir nechta havaskor bog'bon talabgor ekan, shuning uchun olmoqchi bo'lsangiz, bu masalani ikki-uch kun ichida hal qilish kerak. Deyarli suvitkin, buning ustiga, menimcha u yerda uchta yuk mashinaga ortsa bo'ladijan qadimdan qolgan ajoyib asl toshlar bor, hozir bunaqasini olib kelishmayaapti, qidirsangiz ham hech yerdan topolmaysiz. Bu toshlar Kuramadan, Kosyudan, Ti-kubadan keltirilgan. Ochig'imi aytSAM, bir joydan terib keltingan

toshlarning qizig'i ham yo'q. Bu toshlarni Sizning toshingiz yoniga qo'ysa bormi, zo'r bo'lardi-da. Bunga nima deysiz?

Kayama bog' egasini, bog'ning sotilish sababini obdon so'rab-surishtirdi.

— Bu dang'illama uy qandaydir bank xo'jayininki ekan. Havo hujumi vaqida yonib ketibdi. O'n yil o'tubdiki, uy qayta tiklamabdi, shuning uchun uyming egasi beva ayol bog'ni sotmoqchimish. U yerda besh, yo'g'e, yetti ming subo yer bor. Ayol yerni toshlarsiz, daraxtlarsiz alohida sotmoqchi. U yerda sizga bemalol yetib ortadigan, yo'kkaga yotqizilgan bir talay tosh plitlar bor. Kavlasa, bundan ham ko'proq chiqishi mumkin. Uy yonib kui bo'lgan. Lekin toshga balo ham urmagan, xullas, bu o'sha siz izlagan narsa.

— Yaxshi, ertaga men bilan birga bora olasizmi?

— Albatta. Hoziroq u yerga borib, ogohlantirib qo'yaman.

Farzandlari Kayamadan oila qurishlari uchun rozilik so'raganlarida tezda rozi bo'lib qo'ya qolganidek, bog'bon Sudoga ham xuddi shunday tezgina ko'nib qo'ya qolgani haqida o'yldi. O'g'il, qizi uymi tashlab ketishdi, lekin endi bu yerdan Kuramadan, Kosyudan, Tikubadan va Okutitibadan oqib kelayotgan tog' soyining ko'pgina qadimgi toshlari joy olgandi... Kayama, uni chulg'ab borayotgan o'ziga notanish bir hayajonni his etdi va bu hayajon shu ondayoq uni sovuq bo'shilq qa'riga tortib kelayotgandek tuyuldi... Bog'bonchilik bilan shug'ullanganidan beri endi birinchi marotaba uning yuragi qora sharpaning daxl qilishi edi.

Kayamaning uyidan Aobadaygacha — o'tiz daqiqalik yo'l. Salqin kuzning etni junjiktiruvchi erta tongida Kayama uyduran turib, uning kundalik xursandchiligi va yupanchiga aylanib qolgan moviy toshga suv separdi. Tosh bamisolni odamning jussador gavdasiga o'xshardi. Cho'zilib yotgan odan gavdasiga. Kayama daraxtdan tomgan yomg'ir tomchilarini shimib olayotgan toshning yanada moviyroq tusga kirganini ko'rib, yuragi sirqiradi. Yerparchni etilgan tanadan soyning jildirashimas, balki ilohiy sado eshitilayotgandek tuyulardi unga.

«... Toshni o'zim bilan u dunyoga olib ketsammikan? Unga timchgina boshimni qo'yib yotardim...» — Avval ham uning xayolidan kechgan bu so'zlar yana qayta jonlandi. Shu payt orqa eshikdan Sudo kirib keldi.

— Bu yangi tosh albatta yaxshi, lekin toshning yana bir go'zalligi shundaki, u qanchadon-qancha yillarni pisand qilmay, uni ortda qoldirib bizgacha yetib kelgan.

Kayama nonushta qilinay, u bilan birga chiqdi. Ular Aobaday bog'iga kirishlari bilan Kayama u yerni ko'rib, hangu mang bo'lib qoldi. Bu yerda besh emas, o'n ming subolik yer bor edi. Yasama tepalik ortida bahaybat daraxtlar o'sib yotardi. Tosh va daraxtlar, chamasi, hatto xarajatga ham qaramay, har tomonidan tashib keltirilgandi... Kayama hali-yam o'sha qadimgi Yaponiyaning ruhi kezib yurgan bu bog'ni

uzoq aylandi va bu joyda yashaganlarning bari urushgacha hech nimaga zoriqmay kun kechirgan egasini eslatib turardi.

Shu bilan birga, bog'da yurakni zirqiratuvchi nimadir bor edi

– Kayama gap nimada ekamini chuqur anglab turardi. Bu o'n ming subo yer hali-hanuz o'sha urush yong'imi bilan kurashib, kuyib yommoqda edi, go'yo.

– Qurbanolari bo'iganmid? – Kayama Sudodan so'radi.

– Mish-mishlarga qaraganda, yong'in payti uyda faqat besh nafar ayol bo'igan ekan, birontasi ham omon qolishmagan deyishadi.

Kayama indamay olg'a yurib ketdi. Hatto ko'z yogurttrib ham ulgurib bo'lmaydigan, ulkan bog'ning u yer-bu yerida tuxshlar va toshlarni ortishga shay turgan yuk mashinalari turardi. Ishchilar va bog'bonlar esa go'yo sertashvish chumolilar kabi betinim ishlashardi.

Sudo Kayamani orqa eshikka olib bordi-da, toshlarni unga ko'rsatdi. Buni ko'rib Kayamaning ko'zлari chaqnab ketdi, dam-badam hayajonli xo'rsinib qo'yardi. So'ng Sudo Kaya-man pastak g'arovzor yoqalab cho'zilgan soyador so'qmoqdan boshlab ketdi.

Kayamaning ko'zi eski choyxonaga tushdi. Ko'hna shiy-poncha azbaroyi sharti ketib, parti qolganidan yiqilay deb tur-gandi. Uchta yosh ishchi barakni qanday buzzsa, uni ham xuddi shu taxlit jon-jahdlari bilan buzar edilar. Ularga qolsa, barini

bir zumda yo'q qilib tashlashsa. Kayama ishchilarning jonlanib ketgan yuzlariga boqdidiy, yuragi yana bir tutam bo'ldi. «Bu uya yuz yildan ko'p bolgandir-ov», – xayolidan o'kazdi u.

Ular choyxonadan pastga qaratbat ketgan ensiz so'qmoqdan borishayotganda, bog'bon dabdurustdan Kayamaga o'girdida, hayajonni bosolmay qichqirib: «Mana, shu yer!» deya bir gala ishchilarni ko'rsatdi. Uning ovozini eshitib, ishchilar bir to'xtab oldilar-da, keyin yana ishchilarni bamaylixitir davom ettiraverdilar. Chirik barglar qorishib ketgan tuproq ostididan qora tosh to'shamalar chiqib kelardi. Quizib olingen elliktacha tosh to'shamma uyumi xuddi osmondan yog'ilayotgan quyosh nuridun hurkkandek bir chetda pisibgina yotardi.

– Eshityapsizmi? – so'radi Kayama Sudodan.

– Niman!

– Eshitimayotgan bo'lsangiz, mayli...

«Yong'inda halok bo'igan ayollar, har kuni bo'lnasa-da, baribir, tez-tez mana shu tosh to'shamalarni bosib o'tganlar!» – deb o'yaldi Kayama. U olisdan bo'lsa-da, ularning oyoq tovushlarini hozir ham eshitib turganini Sudoga qanday ayt-sin... Bog'bonning uning ustidan kulgani qoladi. Bu to'shamalar boqqa terilsa-chi, bu ovozlarini o'shanda ham eshitita olarmikan?.. Kayama qo'llarini chalishitrib, bog'ni bitta-bitta odimlab aylana boshladi va qalbida yana o'sha qora soyani his etdi.

V

Ko'p o'tmay Sudo yana xushxabar olib keldi.
– Sal narda yana bitta sotiladigan bog' bor. Bunga nima deysiz?

Kayama boshida rad etmoqchi bo'ldi:

– Men hovlarning barini boqqa aylantirmoqchi emasman. Men o'monchani va undagi daraxtlarni saqlab qolib, manzaralni toshlar terdirmoqchiman, xolos.

– Bilaman, bilaman. Toshlar bilan uyg'un bo'lishi uchun yana boshqa daraxtlar ham ekilsa yaxshi bo'tardi. Azaliyami¹, sershox qarag'yymi, yana shunga o'xhashlarni... Suv bo'yiga olxo'ri eksangiz bormi, yayrab o'sadi...

– Bu yerda bularning baridan bormi?

– Bo'immasam-chi.

Ma'tum bo'lischicha, Sudo bu daraxtlar tilini yaxshi tushunarkan, chunki urushning boshida bu yerga ularni o'zi tashib ketirgannish. Daraxtlarning bari ajoyib, derdi u. Uning gap-lariga qaraganda, u yerda yana beshta ulkan, quchog'ing to'ladijan manzarali daraxtlar, anorlar bor emish, xullas, ham-masi zo'r deyishadi.

Uyining yonginasida shunday bog' bor ekani Kayamananing xayoliga ham kelmagandi.

– Bog'ni sotish ularga nima uchun kerak bo'idiykin?

– Yer-mulk egasi yaqinda olandan o'tgan, bevasiga esa daraxtlarning keragi yo'q, u, menga maysazor va hovuzcha bo'lsa bo'ldi, deyapti.

«... Demak, mening bog'inda o'sha, burungi tosh to'shamalar va daraxtlar jo'rovoz qo'shiq aytar ekan-da. O'lganlarga nimai-ki aziz bo'igan bo'lsa, barini shu yerdan – mening bog'indan topishadi va mening ovunchog'imga aylanishadi...» Kayama yengil shamol aylantirib-aylantirib yerga tushirayotgan barg-larning shitirashiga quloq tutdi. Toshlar yerdagi barglar bilan o'yashgandek bo'tib, qandaydir sokin bir kuyni yaratishardi. Birdan kuyning unga: «Xazonrezgi bog'i» degan ovoz eshitildi. Kunning azbaroyi tuniqligi va ochiqligidan ovoz xuddi g'oyibdan kelayotganga o'xshardi.

«Xazonrezgi bog'i... Nomi yomon emas», – xayolidan o'tkazdi Kayama va Sudoga dedi:

– Yaxshi. Bu bog'ni sotib olganim bo'sin.

Sudo vafo't etganida Kayamaning yoshi oltmishda edi. Bog'bon valofidan yetti kun o'gach, u Sudoning uyi orqasidan kichkina bog'chaga kirdi. U yerda qari oq olxo'ri o'sadi. Kayama uning narxini tushirib berish uchun boshqa bog'bon – Sudoning og'aynisdan iltimos qildi va bu daraxtni uyiga eltilib berishini so'radi.

«... Mana, o'ganlar uchun aziz bo'igan yana bir narsa qo'shildi...» Kayama olxo'ri ni qanday olib kelishlarini tomosha qilatunib, Sudoning unga narigi bog'dan olib kelgan daraxtini esladi.

¹ Azaliya – manzaral o'simlik.

...Katta yuk aravasiga ortilgan daraxt ildizlari og'ir va beso-naqay edi. Ularni posangilash uchun aravacha oldiga tosh osib qo'yishgandi. Aravachani uchta yosh yigit sudrab borardi, kichik Sudo esa bayram tantanalaridagidek dabdaba bilan oldinda yurib, asta-sekin tepalikka ko'tarilardi. Uning ko'zları porlab turardi. Aravacha Kayamaning uyiga kirib borishi bilan birdan egilib qoldi.

«Ehtiyyot bo'linglar!» – qichqirdi kimdir, lekin Sudo allaqachon aravaning oldiga o'tib olgandi. Hech narsa bo'lmaganday u: «Avval toshni tushiringlar», – deya yosh ishchilarga buyruq berdi». Mana bu «ehtiyyot bo'linglar» deb jar solishu behuda shovqin-surondan uning yuzi norozi tus olgandi.

Toshlari tushirilishi bilan ularning og'irligidan qutulgan aravanning old tomoni birdan tepaga qarab sakrab ketib, ustidagi daraxtlar kishnayotgan otdek tikkayib qoldi. Sudoning epchil va chaqqon harakatlaridan Kayama hayratda edi.

«Maqtammoqchi emasman-u, lekin shu paytgacha bironta yerim jarohatlanmagan. Balki bo'yimming pastligidan shundaydir. Masalan, havaskor-sportchilarni oling, doim bir baloga giriftor bo'lib yurishadi. Menimcha, faqat mashq qilish bilan ish bitmaydi».

Dard shunday odamning ham boshiga yetibdi-da! Uning boshiga dard emas, sake¹ yetdi. Kayamaning xayolidan anavi

tosh bilan savdo qiluvchi qizil yuzli odam ham ichkilikka mukkasidan ketgan edi, degan fikr o'tdi. Sudoning vaftodidan so'ng savdogar ikkovi apoq-chapoq bo'lib qolgandi. «Toshni ko'rigin kefib qolsa, yana kelaman. Bir zunga bo'lsa-da, orqa eshikdan kirib, uni ko'rishinga ruxsat berarsiz?» – deb so'ragan kishi haligacha qorasini ko'rsatgani yo'q.

VI

Oradan besh yil o'idi. Moviy tosh boqqa binoyidek o'mashib keldi. «Agar unga quloq tutsangiz, soyning shildirashini eshitasis», – derdi savdogar. Qulog'ingizga nimadir chalinsa, bilingki, bu o'sha, o'z vatanining soyini qo'msagan toshning nidosi bo'ladı.

Biroq bu moviy toshga o'z vatanini ko'rish boshqa nasib etmadi. Yomg'irlı, izg'irinli kunlarni unutmagan toshning sirti osmonning moviy rangini ham o'ziga singdirib olgandi, uning son-sanoqsiz ajnlarida esa sabza rangli yo'sin o'sardi. Sershox daraxt tugidagi hurpaygan nozik novdalar toshni muloyimlik bilun og'ushlariga olib turardilar. Yomg'irdan so'ng gavdaga o'xshash toshning ko'krugidagi chuqurchaga suv to'planib qolardi. Ba'zan qayerlardan bolalari bilan gala-gala bo'lib uchib kelgan chaqqon chumchulqlar bo'yinlarini cho'zib, shu suvdan ichar, chanqoqlarini qondirishar va qanot qoqib pitlashardi. Agar suv qurib qolgudek bo'lsa, Kayamaning o'zi

¹Sake – aroq.

quduqdan suv olib uni to'ldirib qo'yishni kanda qilmasdi. Chuqurchaga barglar to'lib qolsa, Kayama uni ham olib tashlardi. Jonivorlarga yaqinlik hisidan qariyaning yuragi ilirdi. Tabiat qanday yaratgan bo'lsa, barchasi o'sha zaylda yashasha davom etardi. Bu qonunlarning zug'umidan Kayama ham borgan sari so'lib borardi. U qaddini avvalgiday rostolmay qoldi, yekkalari, beli timmay og'rindi, ko'zları nursizlanib, unga ajal ko'lankasi joylashib olgandi.

A'zoi-badani timsiz qaqlhardi. Bu, ayniqsa, kun bo'yı uyi dan chiqmay, diqqanfas qolib ketganiida, harakatsizlik uni butunlay domiga olganida ko'proq yuz berardi. Shunda kiriyan tunlay ko'zlarining oldini tuman bosib, jumirlab ketardi. Bunday payt-larda bog'ning ohanrabosi uni o'ziga tortgani-tortgan edi.

U, oddiy kundalik tashvishlardan qutulgach, ancha yillardan beri to'plab kelayotgan eski kitoblarini varaqlashga tushardi. Ba'zan husnixat bilan ovunardi. Qora tushga botirib olgan cho'tkani oppoq qog'oz ustiga olib kelganida, zavqdan yuragi to'liqib ketardi. Biror qanchalik istamasin, bu kunlarni osoyisha o'tkazgan kunlarnim deb aytolmasdi, negaki, yolg'izlik, ajal ko'lankasi hatto u yozgan ierogliflarida ham o'zini namoyon etib turardi.

So'nrggi paytlarda Kayama toshdan chiqayotgan ovozni tez tez eshitadigan bo'lib qolgandi. U yonidan o'tayotgan har bir tosh to'shamma unga ohista aks sado berayotgandek tuyulardi.

«Balki bu yoniib ketgan o'sha besh nafar ayolning qadam tovushlaridir?» – Kayama shunday o'yladiyu birdan yuragi shub etib ketdi. Yo'q, adashmayapti, bu ularning odimlari.

Bir kuni kechasi yosh bir ayol tungi ko'yakda tosh

to'shamalardan yurib, Kayamanning xonasi oldiga keldi.

– Kim u? – so'radi Kayama. Javob o'miga ayol orqasini o'girib oldi. U beli tarrang tortimagan kimonoda edi. Ayol ohista, sing'algandek ko'zdan g'oyib bo'la boshladi. Uning Kayamani chaqirishga kelgani kundek ravshan edi. Ayolni yo'qotishdan qo'rqan Kayama oyoqyalang uning orqasidan tezda boqqa yugurdi.

U ayol bosib o'tgan to'shamalar ustidan bora turib, yo'ilakuy, mahotki, arvohlarda ham oyoq bo'lsa, deya pichir-ladi o'zicha, harholda, bularning bari tush bo'lmasa kerag-ov. To'shamalardan oyog'iga o'tgan issiq uni hayron qoldirdi. Balki bu issiq ayloning oyoqlaridan chiqqandir?.

Kayamaning bog'ida Aobadiy bog'idan keltirilgan saksontacha tosh to'shamma yoyiq yelpig'ich shaklida uchta yo'lkagu yotqizilgandi. Kayama oq ko'lankami ko'zdan qochirib qo'ydi. O'ziga kelib quragandi, uning moyiv tosh oldida turgанини ko'rdi. Unga tomon bir odim bosdi va hovuzdan baliqini chaqirgandek, kaf'uni kaftiga urdi, shunda tosh qa'ridan unga aks sado eshitildi va ketma-ket yana boshqa toshlar ham ovoz bera boshlashdi.

Kayama Sudoning halok bo'lgan ayollar besh nafar edi degan gapini esladi. «Balki bu o'sha beshalovidan biridir? – hayajonlanib o'yldi va ko'z oldida qulab tushayotgan omborga o'xshash yana o'sha choyxona namoyon bo'ldi. – O'sha uyga balki beshta aysoldan biri borgandir?.. Aynan o'sha, bugun paydo bo'lgani?»

– Eshtiyapsizmi?

– Nimani?

– Agar eshitmayotgan bo'lsangiz, mayli... – Kayama Sudo bilan bo'lgan suhbatti esladi. Bugun o'ganiga o'n yildan osghan xotini uning orqasidan kelgani ehtimoldan yiroq. Yo'q, bu ayolning qomati butuntay boshqacha edi – bu yosh qiz bo'isa kerak. Shubha-gumonlar Kayamani tinch qo'ymayotgandi.

Kayama yetmishga kirdi. Endi kunning yarmini awonda shezlingga' yotib, ba'zan mudrash bilan parishonlikda o'tkazardi. U tez-tez, qani endi bu dunyonni mana shunday tinch va osoyisita, azobsiz tark etsam, deya xayol qillardı. 200 subo yeri ni egallab yotgan bog' o'sha-o'sha o'zining hurpaygan ko'lamzori bilan uning hamon ko'nglini ko'tarib kelayotgan bo'lsada, lekin yuragining tub-tubida qandaydir xavotir yotardi. Endi bu tuyg'u uni tark etmasligini Kayama yaxshi tushunardi.

Kayama ro'zg'or to'rvasini olib, tiquilib ketgan avtomobilari bilan qulqoqni qomatga keltiruvchi shovqin-suronli ko'chaga chiqdi-da, bir-bir bosib asta do'konga kirdi. Xaridorlar orasidan

o'zi tengi erkaklarga duch kelib, teskari qaradi. Bu keksalar bunchayam bechora bo'lib ko'rinnasa, deya xayolidan o'kazdi. Ularga na hashamatli mebel, na noyob, qimmatbaho jihoz kerak. Deyarli bo'm-bo'sh ro'zg'or to'rvasini ko'tarib olgan yemish yoshli qariya – bunday mutanosiblik senda nafaqt achinish hissini uyg'otadi, bu hatto kulgingni ham qistatadi.

Uning ishtahasi yaxshi emasdi. Agar, bog' ikki baravar o'sib, kattalashgan bo'lsa, Kayamaning o'zi ikki baravarga noziklashib ketgandi. Sunukaga har doingidek ro'yxati uncha uzun bo'lmagan o'sha-o'sha bir xil oziq-ovqatlar; non, yog', tuxum, mevalar va ko'kut solinardi. U shularning o'zi unga kifoya deb o'yldi yoki bo'lnasa tashvishlardan qochib, maridan-beri ovqatlanardi.

Asl yapon oshxonasi taomlanidan u kamdan-kam hollarda tanovul qilardi, nafsimi tiyib, oziga qanoatlanib qo'ya qolardi, chunki oz yedi nimayu, ko'p yedi nima, unga buning ahamiyati bo'lmay qolgandi. Kungu uch mahal bir xil ovqat yerdı, keyin ikki mahalga o'tdi, oxirgi paytlarda bir mahal dasturxonga o'tiridigan bo'ldi. U ko'proq suv ichardi, suv pitssaning o'mini bosardi. Kayamu do'konga ham har kuni chiqmasdi, shu bois ko'proq mog'or budi anqy boshlagan nondan yerdı.

U quyosib botishi bilan uxlagani yotardi. Uxlash oldidan esa kechki gazeta va kitoblarni varaqlardı. Uyqu elitisib bilan kitobni yopardi-da, qani endi shu taxlit tinchgina oyoq-qo'jingni cho'zib, u dunyoga ravona bo'lsang, deya orzu qillardi. U ko'pincha qorong'i xonada ko'zlarini chaqchaytirib

¹ Shezlong – o'rindig'i uzun oromkursi.

tong otishini kutib yotardi; nafas olishga qiynalganidan a'zoi-

badanini ter bosib, ko'z yumushga ham qo'rqib qolgandi.

Bu yil ham oppoq kimonodagi o'sha ayol bog' yo'ikasidagi tosh to'shamalardan yurib, yana uning yoniga kela boshladi. U bu yerga tez-tez keladigan bo'lib qolgandi, ayol har kelganida Kayama uning ortidan bog' tomonga oshiqardi. Kayama yuragidagi tovush ayolni chaqirayotganini eshitib, yuragini hovuchlab, uning izidan borardi, biron nimadan uyalmaguncha bunday qat'iyatsizlikdan o'zini to'xtatolmasdi... Oppoq libosli bu aylol doim g'oyib bo'lib qolardi. Har safar bir joyda – o'sha moviy rangli tosh ortida ko'zdan yo'qoldi...

Kayamaning yuzidan tomchi dumaladi. Yo'q, bu ko'zyoshi emasdi. Uning ko'zida unar-unmasga oqavermaydigan suvni siqib chiqaradigan g'alati bir og'riq turgandi. Xuddi sake yeng'gan Sudo kabi tosh savdogari vaft etibdi-da, degan o'y kechdi uning dilidan.

«...Agar hayot bo'lsang, nega kelmaysan? Seni, o'g'lingni shunday sog'indimki...»

Kumush rangli baliq qorong'ida hovuz yuzini bir shapillat-di-da, o'zi ko'targan to'lqin ichiga kirib g'oyib bo'idi. To'lqin kengayib boraverdi. U yerda, chuqurlikda baliqlar erkin, ozod suzar edilar. Oppoq bo'lib ko'rinyayotgan ayolning hayajonga soluvchi ehtirosini o'zidan nari qilomagan Kayamaning bundan majoli qurib, serrayib qotib qolgandi. U o'zini tosh ustida yuz yildan beri xuddi mana shunday qimirlamay o'tirganday his etmoqda edi...

VII

Bir vaqt qarasa, Kayamaning o'g'li ro'parasida turibdi.
– Tosh tashuvchining o'g'li-chi, u qani?

– Nima dedingiz?

– Yo'q, hech nima, o'zim shunchaki... Qachon kelding?

– Ancha bo'ldi. Ota, nima, tobingiz yo'qmi?

– Shunchalik tashvishlanar ekansan, har zamonda bir kelib, holimdan xabar olsang bo'lardi. Bu yerga o'zi yilda necha marta kelasan?

– To'rt martu, shekilli...

– Shu yetarli deb o'ylaysunni?

– Bi'zan shunma bo'lib qoladiki...

– Xotining tuzukni?

Yuribdi.

Kayama g'aribona kechki ovqatini hozirgina yeb olgandi.

– Sal ertaroq kelganningda birga ovqatlanardik.

– Boshqa safar.

– Boshqa safar... O'sha boshqa safaring nasib qilishiga ishonasanni o'zing?

– Bo'lmasa-chi.

– Boshqa safar... Endigi boshqa safar men bo'lmayman...

Kayama o'g'li hozir nima haqda o'ylayapti-yu, bunga qanday javob berishini kutardi.

–...Uning yoshi anchaga borib qoldi... Anchaga.

– Men dunyoda bunday gaplarni eshitish uchun yashama-dim.

– Unga nima kerak?.. Buncha ma'yus ko'rinadi. Hozir ni-mani istasa, bari muhayyo bo'ishi mumkin.

– Ha, men ham qachonlardir nimalarnidir orzu qilganman. Endi yetmishga kirdim... Shunday bo'lsa-da, senga ataganim bor.

– Ko'nglingda biron-bir orzu bormi? – so'radi Kayama.

– Qaydam. Niman ham orzu qillardim.

– Pul kerakmasni senga?

– Pul qancha bo'lsa ham zarar qilmaydi.

– Men aynan shu haqda sen bilan gaplashmoqchiman. To'g'ri, menda hozir pul yo'q, lekin boshqa narsa bor. Yaqinda men senga mana buni tayyorlab qo'ygandim.

Kitob javoni tortmasidan Kayama pergament qog'ozli konvertini oldi-da, uni o'g'lining tizzasiga qo'ydi.

– Bu nima? – so'radi o'g'il.

– Ochsang – ko'rasan. So'rashning hojati yo'q.

O'g'il konvertgaga ko'z qirini tashladi-da, darrov uni Kaya-maga qaytarib berdi.

– Kerakmasni?

– Pul doim kerak, lekin buni ololmayman.

– U yerda nima yozilganini ko'rdingmi o'zi?

– Bu avtomobil halokatida sodir bo'ladijan baxtsiz hodisadan sug'urta.

– Agar menga biron kori hol yuz bersa, bu pul yana o'n martaga ko'payadi. O'zing bilasan, yo'lovchilar orasidagi o'llim xavfining eng yuqori ko'satkichi – bu aynan bolalar va yetmish yoshibilar orasida uchraydi – badali 500.000 ien, sug'urta esa 5 million.

– Aytdim-ku, ololmayman deb.

– Balki ko'chaga chiqqanima, bexosdan qoqlilib, yiqilib tushbarman? Quarabsanki, men mashinaning tagidaman. Shunday bo'ishi mumkin-ku, axir?

– Bas qiling, bunday narsa bilan hazillashmaydilar! O'g'lining yuzi qizarib ketdi. Uning xijolat tortganini ko'rgan Kayama, uni bunday aqsliz ishni qilishga undagan yoqimli bir og'riqni his etdi. Bu aqslizikmid, yoki o'ylab qilingan ishni, endi unga hammasi baribir edi.

– Mening gapim – gap. Shunday bo'lgach, bu hujiatlarni olib qo'y. Baribir bundan qochib qutulolmayman. „Birdan Kayamaning ko'z oldida ulkan tashlandiq bog'numoyon bo'ldi; timb-tinchimas bog'bontar, tosh kavlayot-gan ishchilar, endi bu qiyofilar unga begona, yet sharpalardek ko'rinurdi.

«Kím biliadi, balki, mening bog'im ham xuddi shunday qarovsiz ahvolga tushib qolar. Uning o'miga odamlar yashay-digan uy yoki ko'p quvatlari bino qurishar, ehtimol...»

Kayama bosiq, xirillagan ovozda gap boshladi:

– Balki bog'dagi toshlarni sen o'zing terib olib solarsan! Ularni bu yerga olib kelishganiga o'n yil bo'ldi, lekin ular-

ning o'zi besh ming yoshda. Bu toshlarning joni bor. Men endi o'laman, keyin daraxtlar ham nobud bo'lsa kerak. Tokioning havosini havo deb bo'lmaydi.

O'g'li otasining gapalaridan noxush hayratlangandek bo'ldi.

Shu payt uning orqasidan haligi, noma'lum oq ko'lanka o'tgandek bo'ldi.

— O'sha ayol!

— Nima deyapsiz?

— Toshni sotish haqida o'yashim bilan shu ayol paydo bo'jadi...

— Nima deyapsiz, qanaqa ayol?

— O'sha ayoll! U bu yerda bog'dagi toshlarni sog'inganidagina paydo bo'jadi. Bu oq kimonodagi o'sha ayol. Qachonlardir Aobadaydag'i dang'llama uyda yoshgina ayol yashagan. Falokatni qarangki, urush boshlanib, ayol uyi bilan birga yonib ketgan. O'sha toshlar uning bog'idan keltirilgan. Afidan, u, har kuni shu to'shamalarni bosib hovuz yoniga borgan va o'tirib xayolga cho'mgan. So'ngra yana shu to'shamalarni bosib, orqasiga qaytg'an ya eski chorbog'iga chiqib, choy damlagan...

Kayama shu so'zlarни shivirlabgina gapirdi-da, ko'zini yumi-di. Qorong'ilik tobora yaqinlashib, quvonch borgan sari uni qurshab borardi, yoki-qorong'iikk'a o'r ganib qolib, yorug'ilikni arang ajratayotgan ko'zlarini endi iliqlikni his eta boshtagandi...

MUNDARIJA

Ivan Bunin.....	3
Kornet Elagin ishi	4
Mustafa Al-Manfaliy	64
Jazo	64
Rober Merl	89
Izabella	90
Tomas Hardi	134
Uch musofir	135
Xans-Xayns Evers	176
O'reymchak	177
Yosifko Sibaki	216
Van Gogning qabri	216
Tosio Udo	250
Qirmizi binafsha	250
Sin iji Yuki	262
Xazonrezgi bog'	262

Adabiy-badiiy nashir

UCH MUSOFIR

Hikoyalar

Tarjimon
Dildorxon Aliyeva

2-nashri

Muharrir *I. Ahmedov*

Rassom-dizayner *B. Zufarov*

Texnik muharrir *L. Xijova*

Kichik muharrirlar: *D. Xolmatova, G. Eraliyeva*

Musahih *E. Egamullov*

Kompyuterda tayyorlovchi *F. Boitrova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158-14-08-2009. Boshishga 2015-yil 9 dekabrida ruxsat etildi. Bichimi 60x108^{1/2}. Ofset qoq'ozsi. «Virtue Times New Roman» garniturasida offset usulida bosildi. Sharqli bosma tabog'i 10.80, Nashr tabog'i 10.73. Adudi 3000 nusxa. Buyurtma № 5-864.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10

e-mail: iptd.uzbekistan@iptd.uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz